

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLON KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**O.T. ROZIQOV, B.I. MIRXODJAYEV,
M.N. JO'RAYEV, J.A. TURSUNOV**

**FOYDALI QAZILMA KONLARINI
QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISH
ASOSLARI**



Toshkent - 2020

UDK: 553 (575.1)

Roziqov O.T., Mirxodjayev B.I., Jo‘rayev M.N., Tursunov J.A. “Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari”, darslik – Toshkent, 2020. – 202 b: (38) rasm; (7) jadval; (8) adabiyot; (10) internet resurs.

Ushbu darslik Geologiya-qidiruv fakulteti “Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (qattiq qazilmalar)”, “Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning geofizik usullari” hamda “Geologiya – qidruv ishlari texnikasi va texnologiyasi” yo‘nalishlarining bakalavr talabalari uchun o‘quv rejasiga muvofiq tayyorlangan.

Ushbu darslik prof. Isaxodjayev B.A., dots. Mirusmanov M.A. va boshqalar tomonidan “Foydali qazilma konlarini qidirishning geologik mezonlari va belgilari” (1996 y.), katta o‘qituvchi Sodikov S.T. o‘zbek tilidagi “Foydali qazilma konlarini hujjatlashtirish va namunalash” (2015 y.) nomli o‘quv qo‘llanmalarini inobatga olgan holda “Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari” o‘quv fanidan o‘zbek tilidagi hozirgi zamon talablariga javob beradigan birinchi darslik sifatida tayyorlandi.

Mualliflar tomonidan taqdim qilinayotgan ushbu darslik geologiya va konchilik yo‘nalishi oldida turgan dolzarb maqsad va vazifalarni hal qilishga, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga, ularning amaliy bilimlari saviyasini oshirishga munosib ulush qo‘shadi, degan umiddamiz.

Taqrizchilar:

M.K. Turopov - O‘zdavgeolqo‘m “MRI” DK Sektor boshlig‘i, professor, geologiya-mineralogiya fanlari doktori.

X.A. Akbarov - ToshDTU, “Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi” kafedrası professori, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, akademik.

ANNOTATSIYA

Ushbu darslikni tayyorlash jarayonida, professor B.A. Isaxodjaev, dotsent M.A. Mirusmonov va boshqalar tomonidan yaratilgan “Foydali qazilma konlarini qidirishning geologik mezonlari va belgilari” (1966 y), katta o‘qituvchi S.T. Sodiqov muallifligidagi “Foydali qazilma konlarini hujjatlashtirish va namunalash” (2015 y) – davlat tilida chop etilgan o‘quv qo‘llanmalar mazmunini inobatga olgan holda, soha mutaxassislari va pedagoglari e’tiboriga mualliflar tomonidan taqdim etilayotgan “Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari” o‘quv fanidan o‘zbek tilida hamda hozirgi zamon talablariga mos bo‘lgan birinchi darslik sifatida tayyorlandi.

Darslik hammualliflari geologiya va konchilik yo‘nalishi oldida turgan dolzarb maqsad hamda vazifalarni – jumladan istiqbolli ma‘dan maydonlarni bashorat qilish, izlash usullariga asos bo‘luvchi turli mezon, alomatlarni qo‘llash, so‘ngra foydali qazilmalarning sifat darajasini unumli o‘rganib chiqish, kompleks razvedka ishlarini rejalashtirish va iqtisodiy talablarga javob beradigan jixatlarini aniqlash, bo‘lajak mutaxassislarga tavsiyalar berish, shu bilan birga, sohaga mos ravishda ularni tayyorlash va amaliy bilimlari saviyalarini oshirishiga munosib o‘z ulushini qo‘shadi, degan umidda qoladi.

Ushbu darslik 5311700-shifrlı “Foydali qazilma konlari geologiyasi va qidiruv ishlari” (qattiq foydali qazilmalar) bakalavriyat oliy ta‘lim yo‘nalishida tehsil olayotgan talabalarni tayyorlashga mo‘ljallangan.

АННОТАЦИЯ

В учебном пособии по курсу “Основы поисков и разведки МПИ” учтены материалы методических руководств (учебников) профессора Б.И. Исаходжаева и доцента Мирусманова М.А. “Геологические критерии и признаки поисков МПИ” (2015 г.) изданных на узбекском языке и отвечает современным требованиям, предъявляемым к учебникам и является первым изданием на государственном языке, рассчитанном на использование в учебном процессе по программе подготовки специалистов – бакалавров для подразделений Госкомгеологии, АГМК и НГМК.

Авторы выражают уверенность, что данное пособие поможет решению задач, вытекающих из целей стоящих перед ВУЗами, готовящих специалистов для горно-геологических направлений НХРУ – в деле расширения МСБ, в частности, прогноз перспективных площадей и постановка поисковых работ на основе изучения критериев и признаков орудинения, промышленной ценности руды, планирование комплекса разведочных построений, также экономическая целесообразность будущности объекта – все это оформляется в качестве рекомендаций к осмыслению будущих руководителей производств – студентов бакалавриата.

Авторы также выражают надежду, что учебное пособие внесет свой скромный вклад в целенаправленное обучение бакалавров – геологов с тем, чтобы выпускники могли на практике решать все поставленные задачи перед отраслью задачи.

ABSTRACT

The textbook for the course “the Basics of prospecting and exploration MD” into account materials manuals (textbooks) Professor B.I Isaxodjayevev and associate Professor Mirusmonov M.A. “Theological criteria and signs searches MD” (2015) is published in Uzbek and answers modern requirements to the textbook and is the first publication in the national language, is designed for use in educational process the program of training of bachelors for departments of the state Committee of the Amursk pox plant and IS MK. The authors Express their confidence that this manual will help the solution of problems arising from the objectives faced by the Universities that train specialists for the mining and geological areas NKHRU in promoting SMEs, in particular, the forecast of prospects and exploration work based on the study criteria and characteristics of ore, the industrial value of the ore, the planning of the complex exploration of builds, also the economic feasibility of future – all this is issued as recommendations to understanding future leaders – students.

The authors also hope that the tutorial will make a modest contribution to purposeful learning bachelors geologic, so that graduates could practice to solve all and tasks.

KIRISH

80 yildan ziyod vaqtdan buyon geologiya va konchilik ishi bo'yicha oliygohlar hamda texnika universiteti tarkibidagi ushbu yo'nalishlarga tegishli fakultetlarning o'quv dasturlarida "Foydali qazilmalar konlarining geologiyasi va razvedka ishlari" mutaxassisligi ikki asosiy fandan iborat. Ular: "Foydali qazilmalarga doir ma'lumotlar" ("Foydali qazilmalarning genetik va sanoat turlari" - hozir) va "Foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish uslubiyati".

Ikkinchi asosiy fan konchilik geologiyasi asoslari, konlarni sanoat tomonidan bozor iqtisodi talablariga muvofiq baholash, zaxiralarni hisoblash va namunalash turlari hamda usullari, ma'dan tanalarining vujudga kelish sharoitlari va shakllarini aniqlashni o'rganib chiqish, qidirish va razvedka qilish jarayonida qo'llanadigan uslublarni geologik nuqtai nazardan asoslash masalalarini qamrab olgan.

Demak, ushbu asosiy fanlar bir xil tabiiy obyektlarni, ya'ni foydali qazilmalar konlariga tegishli geologik xususiyatlarni yoritadi, birinchisi - ma'danning vujudga kelishini, ikkinchisi esa - ma'dan sifatining sanoatbobliligini baholashni va samaradorligini o'rganadi.

Razvedka ishi konchilik sanoatining tarmog'i sifatida vujudga kelgan.

"Konchilik sanoati" monografiyasi muallifi - Sankt-Peterburg konchilik instituti professori B.I. Bokiy o'z kitobida razvedka ishiga tegishli o'rin bergan va 1922-yildan boshlab konchilik oliygohlari hamda barcha institutlarda, jumladan davlatimiz poytaxti - Toshkentda ham maxsus "Razvedka ishi" kafedrasini tashkil etilgan.

Keyinchalik "Razvedka ishi texnikasi" alohida fan bo'lib ajralib chiqqandan so'ng "Razvedka ishi" "Foydali qazilmalar konlarini qidirish usullari" deb atala boshlangan.

Har bir fan bilimlar tizimidan iborat bo'lib, quyidagilar bilan belgilanadi: predmet (tadqiqot ishlar olib borilayotgan obyekt); o'ziga xos uslubiyati va bashorat qilish. Shu fanning asosi - foydali qazilmalar konlarining sanoatdagi turlari hisoblanadi. Tadqiqot - qidiruv ishlari uslubiyati esa - potensial ma'danlashuv maydonlarining geologik - iqtisodiy holatini to'g'ri baholash, ya'ni - sanoatdagi ahamiyatini har tomonlama o'rganib chiqishdir.

Foydali qazilmalar konlarini bashorat qilish ma'danlarni qamrab olgan (o'zlashtiruvchi) tog' jinslarini, jumladan geologik - tarkibiy sharoitini o'rgangan holda zaxiralar bashorati ko'pincha amalda razvedka va qazib olish davrlarida tasdiqdan o'tadi.

Konning sanoat turi bo'yicha taqdimoti nafaqat o'tkazilgan geologik tadqiqotlarga asoslangan, balki foydali qazilmalar (ma'dan)ning sifatini aniqlovchi

kimyoviy va texnologik xususiyatlari to'g'risida olingan ma'lumotlar ham katta e'tiborga ega. Geologik, mineralogik, tog' - texnikaviy, texnologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar konning sanoat bo'yicha baholashda asosiy tayanch qismlar hisoblanadi.

Mustaqillik davrida "Razvedka ishi" tarmog'i doimo davlat rahbarlari e'tiborida bo'lib kelmoqda. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning 2010-yildagi geologik jarayonni yanada rivojlantirish, samaradorligini oshirish bo'yicha Farmoni tarmoqni rivojlantirishga yanada qulay shart-sharoitlar yaratib berdi.

Soha mutaxassislari, pedagog-olimlar diqqatiga sazovor bo'lgan va "Burg'ilash texnikasi" hamda "Foydali qazilmalar konlarini geofizik qidirish usullari" ixtisosi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavr talabalarga mo'ljallangan ushbu darslik mualliflari tomonidan yuqorida qayd etilgan masalalarni qisqacha yoritish bo'yicha tegishli amaliy tadqiqot ishlari olib borilgan. Davlat tilidagi ushbu darslik mazkur yo'nalish bo'yicha bo'lajak mutaxassislarga samarali yordam berishi muqarrar.

Ushbu darslikning hammualliflariga ilmiy-pedagogik tahsil bergan marhum ustozlarimiz: akademik X.N. Baymuxamedov, professorlar - I.M. Mirxodjaev, N.A. Nikiforov, M.A. Axmedjanov, Ya.S. Visnevskiy, O.I. Sergunkova, S.M. Xalikov, L.A. Osipov, A.X. Holmatov, Sh. Sultanmurodov, Z.M. Protodyakonova va A.S. Tadjiyevalarni xotirlab, ularning bizga bergan ta'limlari uchun ta'zim qilamiz.

Ushbu darslikka asos solgan va tayyorlov davrida geologik ma'lumotlar bilan foydalanishga qulay sharoit yaratib bergan hamda qimmatbaho maslahatlari uchun O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi raisi, geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi B.F.Islomovga alohida minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Darslik yozilishi jarayonida Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Geologiya-qidiruv" fakulteti pedagog - olimlarining qimmatli maslahatlari uchun akademik, g.-m.f.d. prof. X.A. Akbarov, g.-m.f.d. prof. B.A. Isaxodjayev, g.-m.f.d. prof. K.X. Odilxonov, g.-m.f.d. prof. M.K.Turapov, "Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi" kafedrasini mudiri g.-m.f.n. dots. M.A. Mirusmanov, O'zbekiston Milliy Universiteti "Mineralogiya va geokimyo" kafedrasini mudiri, g.-m.f.n. dots. A.Z. Umarov, O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasining boshqarma boshlig'i Q.R. Mingboyev, "Mineral rusurslar instituti" davlat korxonasi direktori, g.-m.f.d. Sh.P. Alimovga hamda 2-bosqich magistrantlari A.B.Jumagulov va B.U.Najmiddinovlarga mualliflar samimiy minnatdorchilik bildiradi.

1-BO'LIM

FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM USLUBLARI

“MUHOKAMA-MUNOZARA” USLUBI VA UNING TAVSIFI

Bu interaktiv o'qitishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi va tinglovchilarning ushbu mavzu bo'yicha turli xil bilim darajasi va tajribalari asosida o'rganiladigan masalaga qanday yondashishi ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi muhokama uchun muammoli savolni yoki hayotdagi aniq bir vaziyatni belgilab, o'rtaga tashlaydi. Tinglovchilar esa mavzudan chetga chiqishlariga yoki ayrim faol tinglovchilarni yetakchi bo'lib, faqat ular fikr bildirishlariga yo'l qo'ymaydi, mumkin qadar barchaning faol ishtirok etishlariga ahamiyat beradi, tinglovchilar bir-birlarining fikrlariga hurmatsizlik bilan qarashlariga yo'l qo'ymaydi. Muhokama oxirida o'qituvchi fikrlarni umumlashtirib, o'z fikrini nazariy va amaliy isbotlab bayon etadi.



Foydali qazilmalar konlari haqida umumiy ma'lumotlar



Foydali qazilma konlarini izlash asoslari:

- I. Temirli konlaridan (ma'danli formatsiyalar bo'yicha);
- II. Mis konlaridan;
- III. Qo'rg'oshin va rux konlaridan;
- IV. Volfram konlaridan;
- V. Oltin konlaridan.



Foydali qazilmalarning zaxiralarini hisoblash.



Geologik-qidiruv parametrlarining o'rtacha raqamini hisoblash va ularni qo'llash.

✚ Qidirish mezonlari:

- ❖ Stratigrafik mezon;
- ❖ Strukturaviy mezon;
- ❖ Geokimyoviy mezon:
 - Foydali qazilmalarning yer yuzasida uchrashi;
 - Tarqalish (yoyilish) oreollari (doirasi);
 - Ikkilamchi oreollari va tarqalish oqimi.

✚ Izlash alomatlari (belgilari):

- ❖ Geofizik alomatlar (anomaliya);
- ❖ Geomorfologik izlash alomatlari.

✚ Foydali qazilma konlarini izlashning asosiy usullari.

✚ Mineralogik izlash usullari.

✚ Razvedka ishlarini o'tkazish usullari:

- ❖ Razvedka to'rlarining shakli, zichligi va yo'nalishi;
- ❖ Ma'danlarni turlarga ajratish mazmuni;

✚ Namunalash usullari:

- ❖ Ma'danli foydali qazilma konlarini namunalash;
- ❖ Mineral tarkibi bo'yicha namunalash;
- ❖ Namunalar orasidagi masofani aniqlash (namunalash qadami);
- ❖ Namunalarga ishlov berish va qisqartirish;
- ❖ Namunalarga ishlov berishning nazorati;
- ❖ Namunani tahlildan o'tkazish sifatini nazorat qilish.

✚ Razvedka ishlari asoslari.

✚ Foydali qazilma konlariga bo'lgan konditsiyalar (Sanoat tomonidan iqtisodiy talablar).

✚ Foydali qazilmalarning zaxiralarini hisoblash.

USLUBNING MASHG‘ULOTGA TATBIQ ETILISHI

- “Foydali qazilma” tushunchasi qaysi turiga kira...?
- Foydali qazilmalarning qaysi sanoat turlari...?
- Kondagi foydali qazilmani qazib olish necha bosqichda olib boriladi?
- Qidiruv va razvedka qilish bosqichlari va tamoyillari.
- Razvedka maqsadlarida konlarni guruhlash va ularning asosiy mezonlari.
- Geologiya qidiruv ishlari bosqichlarida tog‘ laximlarini geologik hujjatlashtirish va namunalash.
 - Namunalash turlari va usullari.
 - Zaxiralar tasnifi va hisoblash.
 - Konditsiyalar haqida tushuncha.
 - Foydali qazilmalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari va ularning halq ho‘jaligida ishlatilishiga qarab guruhga bo‘lish.
 - Baholashning asosiy mezonlari.
 - Qidiruv va razvedka qilish bosqichlari va tamoyillari.
 - Guruhlashning asosiy mezonlari.
 - Geologiya qidiruv ishlari natijalariga qo‘yiladigan talablar.
 - Qidirish va razvedka qilish tizimlari.
 - Geologik hujjatlashtirish sifatini ta’minlash qanday jihatlarga bog‘liq?
 - Razvedka va ekspluatatsiya konditsiyalari.
 - Geologiya qidiruv ishlarining turli bosqichlarida konni baholash.
 - Burg‘ilash quduqlarini hujjatlashtirish.
 - Namunalash vazifasiga qarab turlarga bo‘linish.
 - Richards-Chechett formulasida koeffitsiyent qiymati nimaga bog‘liq?
 - Nuqtaviy namuna olish usullari.
 - Chiziqli namuna olish usullariga qaysilar kiradi?
 - Hajmiy namuna olish usullariga qaysilar kiradi?
 - Chiziqlinamuna olish usullari.
 - Kerndan namuna olish guruxi.
 - Burg‘ilash kernsiz bajarilganda namuna olish.
 - Ma’dan foydali qazilmalarning nechta sanoat turi ajratiladi?
 - Richard-Chechett $Q = kd^2$ formulasida foydali qazilmaning xususiyatiga bog‘liq bo‘lgan k-koeffitsiyent qanday o‘zgaradi?



“INSERT JADVALI” USLUBI VA UNING TAVSIFI

Uslubning maqsadi: Mazkur uslub tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu uslub tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Uslubni amalga oshirish tartibi:

❖ tinglovchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;

❖ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn tinglovchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;

❖ tinglovchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” - tanish ma’lumot.			
“?” - mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

USLUBNING MASHG‘ULOTGA TATBIQ ETILISHI

“Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari”ni o‘rganishda Davlat geologiya qumitasi qoshidagi korxonalar “Mineral resurslar instituti” va “Davlat geologiya muzeyi”dagi ko‘rgazma sifatida foydalaniladigan minerallar, xaritalar, qirqimlar va qisqa ma’lumotnomalardan material sifatida foydalaniladi. Tinglovchilar foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari mavzusi yuzasidan olingan bilimlarini yo‘nalish buyicha foydali qazilmalar konlarining mezon va belgilari asosida jadvalni to‘ldiradilar.

“B-B-B TEXNOLOGIYASI” USLUBI VA UNING TAVSIFI

“**Bilaman / Bilishni xohlayman / Bilib oldim**” uslubi - yangi o‘tiladigan mavzu bo‘yicha ta‘lim oluvchilarning birlamchi bilimlarini aniqlash yoki o‘tilgan mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligini aniqlash uchun ishlatiladi. Uslubni amalga oshirish uchun sinf doskasiga yangi o‘tiladigan mavzu bo‘yicha asosiy tushuncha va iboralar yoziladi, ta‘lim oluvchilar berilgan vazifani o‘zlariga belgilaydi. Yuqorida berilgan tushuncha iboralarni bilish maqsadida quyidagi chizma chiziladi:

Bilaman	Bilamayman	Bilishni xohlayman

Ushbu metodda ta‘lim oluvchilar ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan vazifani yakka tartibda yoki juftlikda jadvalni to‘ldiradi. Ya‘ni taxminan “Biz nimani bilamiz” ustunida ro‘yxat tuzish, fikrlarni toifalar bo‘yicha guruhlash. “Bilishni xohlayman” ustuni uchun savollar olish va savollarni o‘ylab belgilar qo‘yish. “Biz nimani bildik” ustuniga asosiy fikrlarni yozish.

№ t/b	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1.	Ma‘dan (ma‘dan) belgisi deb nimaga aytiladi?			
2.	Qidiruv va razvedka qilish bosqichlari va tamoyillari?			
3.	Geologiya qidiruv ishlari bosqichlarida tog‘lahimlarini geologik xujjatlashtirish va namunalash?			
4.	Qidirish va razvedka qilish tizimlari?			
5.	Baholashning asosiy mezonlari? Guruhlashning asosiy mezonlari?			
6.	Qidiruv va razvedka qilish bosqichlari va tamoyillari?			
7.	<ul style="list-style-type: none"> ❖ Namunalash vazifasiga qarab qanday turlarga bo‘linadi va usullari? ❖ Richards-Chechett formulasida koeffitsiyent qiymati nimaga bog‘liq va $Q = kd^2$ 			

	formulasida foydali qazilmaning xususiyatiga bog'liq bo'lgan k -koeffitsiyent qanday o'zgaradi?			
8.	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Nuqtaviy, chiziqli, hajmiy namuna olish usullariga qaysilar kiradi? ➤ Kerndan namuna olish qaysi guruhga kiradi? ➤ Burg'ilash kernsiz bajarilganda namuna nima'dan olinadi? 			

“B-B-B” USLUBI TEXNOLOGIYASI

Ushbu uslub ta'lim oluvchilarning birlamchi bilimlarini aniqlash va faollashtirish maqsadida ishlatiladi. Uslubning mavzuga qo'llanilishi. Mavzu bo'yicha iboralar, tushunchalar yoziladi, ta'lim oluvchilar berilgan iboralarga belgilar qo'yib chiqadi. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar qanday bilimga egaligini hamda faolligini ta'minlagandan keyin mavzu bo'yicha ma'lumotlar

USLUBNING MASHG'ULOTGA TATBIQ ETILISHI

№ t/b	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1	Foydali qazilmalar konlari haqida umumiy ma'lumotlar			
2	Foydali qazilma konlarini izlash asoslari			
3	Foydali qazilmalarning zaxiralarini hisoblash			
4	Qidirish mezonlari va izlash alomatlari (belgilari)			
5	Foydali qazilma konlarini izlashning asosiy usullari. Mineralogik izlash usullari			
6	Namunalash usullari			

“BAHS-MUNOZARA” USLUBI VA UNING TAVSIFI

Mazkur uslub - biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish uslubidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu uslub qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim

O'qitishning interaktiv uslublari deyilganda birinchi navbatda talabani o'quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interaktiv uslubdagi mashg'ulotda talaba berilayotgan ma'lumotlarni tinglashi, o'qishi, ko'rishi, yozib borishi, mavzu bo'yicha savollar berishi, o'z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o'zining hayotiy tajribasi bilan bog'lab, mavzu bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilishi lozim.

Quyida “Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari” modulini o'qitishda qo'llaniladigan interaktiv uslublarning ayrimlari to'g'risida ma'lumotlar keltiramiz:

USLUBNING MASHG'ULOTGA TATBIQ ETILISHI

Bahs-munozara uchun mavzular:

- ❖ Baholashning asosiy mezonlari haqidagi bahs.
- ❖ Richard-Chechett $Q = kd^2$ formulasida foydali qazilmaning xususiyatiga bog'liq bo'lgan k -koeffitsiyentning o'zgarishi haqida munozara.
- ❖ Namunalash turlari va usullari haqidagi bahs.
- ❖ Razvedka maqsadlarida konlarni guruhlash va ularning asosiy mezonlarini ajratish bo'yicha munozara.
- ❖ Baholashning asosiy mezonlari mavzusida bahs-munozara.

“AQLIY HUJUM” USLUBI VA UNING TAVSIFI

Aqliy hujum uslubining asosiy qoidalari:


- ilgari surilgan fikr va g‘oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- taklif qilinayotgan fikr va g‘oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo‘lsa ham, uni baholashdan o‘zingizni tiying;
- tanqid qilmang! Hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir;
- fikr bildirilayotganda gapni bo‘lmang;
- maqsad-fikr va g‘oyalar sonini ko‘paytirish;
- qancha ko‘p g‘oya va fikr bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi, bebaho fikr va g‘oyaning tug‘ilish ehtimoli paydo bo‘ladi;
- agar fikrlar qaytarilsa, rad etmang;
- fikrlar hujumini o‘tkazish vaqtiga qat’iy rioya qiling;
- berilgan savollarga qisqacha javob bering.

USLUBNING MASHG‘ULOTGA TATBIQ ETILISHI

Tinglovchilarni faollashtirish, birlamchi bilimlarni aniqlash maqsadida quyidagi savollar beriladi:

- ❖ Ma’dan (ruda) belgisi deb nimaga aytiladi?
- ❖ Qidiruv va razvedka qilish bosqichlari va tamoyillari?
- ❖ Razvedka maqsadlarida konlarni guruhlash va ularning asosiy mezonlari?
- ❖ Geologiya qidiruv ishlari bosqichlarida tog‘ lahimlarini geologik hujjatlashtirish va namunalash?
 - ❖ Namunalash turlari va usullari.
 - ❖ Guruhlashning asosiy mezonlari?
 - ❖ Geologiya qidiruv ishlari natijalariga qo‘yiladigan talablar?
 - ❖ Qidiruv va razvedka qilish tizimlari?
 - ❖ Geologik xujjatlashtirish sifatini ta’minlash qanday jihatlarga bog‘liq?
 - ❖ Richard-Chechett $Q = kd^2$ formulasida foydali qazilmaning xususiyatiga bog‘liq bo‘lgan k -koeffitsiyent qanday o‘zgaradi?

“VENN DIAGRAMMA” USLUBI VA UNING TAVSIFI



USLUBNING MASHG‘ULOTGA TATBIQ ETILISHI

Tinglovchilar 4-ta kichik guruhga ajratiladi. Ularga kuzatish usullari:

1) Bevosita (kontaktli);

2) Bilvosita (vositali);

3) Distansion (kontaktsiz) o‘lchovlarni “Venn” diagrammasi asosida taqqoslash va umumiy jihatlarini aniqlash topshiriladi.

Shaxsning individual xususiyatlarini aniqlovchi usullarni talaba to‘liq anglab yetishi uchun...?

1-guruh - Bevosita va bilvosita o‘lchovlarning o‘rganadigan xususiyatlarini aniqlash va umumiy jihatlarini ko‘rsatish.

2-guruh - Distansion va bilvosita o‘lchovlarning o‘rganadigan xususiyatlarini aniqlash va umumiy jihatlarini ko‘rsatish.

3-guruh - Distansion va bevosita o‘lchovlarning o‘rganadigan xususiyatlarini aniqlash va umumiy jihatlarini ko‘rsatish.

4-guruh - Distansion, bevosita, bilvosita o‘lchovlarning o‘zia xos xususiyatlarini aniqlash va umumiy jihatlarini ko‘rsatish.

“Venn Diagramma” uslubi - 2 yoki 3 obyektzni, tushunchani, g‘oyani, xodisani taqqoslash faoliyatini tashkil etish jarayonida ishlatiladi. U talabalarda taqqoslash, tahlil qilish va guruhlash malakalarini shakllantiradi.



1-bosqich

Talabalar ushbu diagrammani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi.



2-bosqich

Yakka, juftlikda yoki guruh ichida diagramma asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi.



3-bosqich


O‘xshash va farqli xususiyatlar diagrammaga yoki jadvalga tushiriladi.




4-bosqich

Faoliyat natijalari tahlil qilinadi va baholanadi.


1-guruh blankasi




2-guruh blankasi



3-guruh blankasi



4-guruh blankasi



“BLITS O‘YINI” USLUBI VA UNING TAVSIFI

Ushbu uslub tinglovchilarni harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishni, mantiqiy fikrlash, turli ma‘lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu uslub orqali tinglovchilarga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo‘lish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

USLUBNING MASHG‘ULOTGA TATBIQ ETILISHI


Guruh bahosi	Guruh xatosi	To‘g‘ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslarini o‘rganish uslublari
		3			Nuqtaviy, chiziqli, hajmiy namuna olish usullari
		5			Qidiruv va razvedka qilish bosqichlari va tamoyillari
		2			Razvedka maqsadlarida konlarni guruhlash va asosiy mezonlarini o‘rganish uslublari
		1			Qidirish va razvedka qilish tizimlarini o‘rganish uslublari
		4			Namunalashning birinchi va ikkinchi bosqichini bajarish uslublari

NATIJANI BAHOLASH

8 ta to‘g‘ri javob uchun	“A’lo”
6-7 ta to‘g‘ri javob uchun	“Yaxshi”
4-5 ta to‘g‘ri javob uchun	“Qoniqarli”

“KEYS-STADI” USLUBI VA UNING TAVSIFI

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” - aniq vaziyat, hodisa, “stadi” - o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan uslub hisoblanadi. Mazkur uslub dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).



“KEYS-STADI” USLUBINI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash

3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish

4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot

Keys: Talaba bitiruv oldi amaliyotidan “Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilish asoslari” fanining amaliyot darslari uchun dala materiallaridan namunalar olib kelib, mikroskop ostida o'rganish uchun ulardan shliflar (yuzasi silliqlangan namuna) tayyorlashi kerak. Afsuski ayrim talabalar namuna olib kelmaydi. Bir misol: talaba namuna materiallari bo'lmaganini bilib, ertasi kuni vaziyatdan chiqish uchun shahar qurilish atrofidan namuna olib keldi. - Bu namunani men borib amaliyot o'tgan kondan oldim, deb ta'kidladi. Bu holatni amaliyot materiallarini qabul qilayotgan o'qituvchilar sezib, ular o'zaro kelishib, talabaga sezdirmay materiallarni qabul qilishdi.

O'qish jarayonida talaba namunani o'rganishni boshladi, natijada o'rgangan materiallari oltin koni emas, balki mis koniga tegishli ekanligini va olingan namuna (qurilish atrofida) texnogen namuna va unda har xil chiqindilarning arashmalari borligini (mis, temir va qo'rg'oshin) ko'rsatdi. Tahlil qilish uslubiya-tini o'rgandi, lekin natijada u o'ylagan oltin koni haqidagi ma'lumotni olmadi. To'g'rimi yoki yo'qmi, muammoni tahlil qiling.

2-BO‘LIM

2.1. FOYDALI QAZILMALAR HAQIDA UMUMIY MA‘LUMOTLAR

Foydali qazilma - bu qattiq, suyuq yoki gazsimon holatlardagi tabiiy mineral hosilalarning kontinent yuzasida, dengiz va okeanlar tubida yig‘ilgan to‘plamidir.

Geologik-qidiruv ishlar jarayonlarida ularning tarqalishi, shakllari, o‘lchamlari, son va sifat tasniflari hamda mineral resurslarga xos iqtisodiy ahamiyati yoritib beriladi.

Foydali qazilma ishlab chiqarishdagi texnologik sifatlariga ko‘ra metall, nometall, yonuvchi (kaustobiolitlar) va gidrominerallarga ajratiladi.

Metall va ba‘zi nometall foydali qazilma ma‘danlarda ajratib olinadi.

Ma‘dan - bir yoki bir necha komponentlar yig‘indisiga ega bo‘lgan hamda sarf-xarajatlarni qoplaydigan minerallar to‘plamidir. Ma‘dan - yer qaridan qazib olishning rentabelligini aniqlovchi foydali komponentlarning konsentratsiyalari, miqdor, mineral tuzilishlarga ega bo‘lgan tabiiy va texnogen hosila.

Mineral resurslarning muayyan qismi qidiruv ishlari natijasida zaxiralarga o‘tkaziladi, ular ishlab chiqarish jarayonida mineral xomashyoga aylanadi. Zaxiralar qidiruv va razvedka jarayonlarining tannarxi bo‘yicha hisoblanadi. Uning realizatsiya qismi esa foydalanish jarayonida boshlanadi va xomashyoning chakana narxlarda ifodalaniladigan qiymati bilan belgilanadi.

Texnologik ishlab chiqarishga mo‘ljallangan qattiq mineral xomashyo ma‘dan tovari deb ataladi.

Nometall mineral xomashyoning muayyan qismidan suyuq, gazsimon xomashyoni qayta ishlashda foydalaniladi.

Mineral resurslarning joylashuvi mahalliy (lokal) va mintaqaviy (regional) nazorat qilinadi.

Lokal strukturalarga sharoit mineral resurslar konlarida yig‘iladi. Boshqacha aytganda, **kon** lokal geologik strukturada ma‘lum bir makoniy o‘rin egallagan sifat va son ko‘rsatkichlarning amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan to‘plamiga aytiladi.

Konlar agar tasdiqlangan konditsiyalarga mos bo‘lib, balans zaxiralarga ega bo‘lsa, sanoatbop deyiladi.

Hozirgi vaqtda ularning zaxiralaridan foydalanish iqtisodiy jihatdan talablarni qondirmasa yoki texnikaviy va texnologik mumkin bo‘lmasa, sanoatbop emas deb hisoblanadi.

Namunalash natijalariga ko‘ra va ma‘lum konditsiya o‘lchamlariga mos keladigan tabiiy geologik-strukturaviy chegaralarga yoki shartli konturlarga ega bo‘lgan konning mahsuldor qismi **ma‘dan gavydasi** deyiladi. Ular turli xilda

bo'ladi. Ba'zi uchastkalarda foydali komponentlarning yuqori konsentratsiyalari, ba'zi uchastkalarda esa ular umuman bo'lmasligi mumkin.

Konlarda odatda bir, ikki yoki bir nechta ma'dan gavdalari uchraydi. Lokal geologik strukturalardagi kichik ma'dan to'plamlari **ma'dan belgisi** deb ataladi. Kichik o'lchamli ma'dan belgilari ma'dan nuqtalari yoki minerallashgan nuqtalar deyiladi.

Mineral xomashyo (foydali qazilma) - inson amaliy faoliyati davrida o'z holicha yoki ishlov berib foydalanadigan tabiiy yoki texnogen mineral yig'indi.

Foydali komponent - qazib olish va sanoatda foydalaniladigan predmetlarning asosini tashkil qiluvchi tog' jinsi, mineral, kimyoviy birikma yoki element.

Foydali qazilma konlari - o'zining sifati, miqdori, texnik, geografik-iqtisodiy va geoeologik parametrlari bilan ishlab chiqarishning rentabellik shartlariga mos keladigan tabiiy yoki texnogen mineral xomashyo. Sifat parametrlari asosiy, ikkilamchi va zararli komponentlarning miqdoridan, ma'danning mineral tarkibidan va texnologik tasniflaridan iborat bo'ladi.

Ma'dan belgisi o'zining sifat parametrlari bo'yicha sanoat talablariga javob bera oladigan, ammo yetarli miqdorda zaxiraga ega bo'lmagan mineral xomashyo yig'indisi. Ma'dan sanoatbop va yo'ldosh minerallardan tashkil topadi, uning tuzilishi tekstura va strukturalari bilan aniqlanadi.

Ma'dan mineral - foydali komponentlardan tashkil topgan, kimyoviy birikma yoki sof element. Ular asosan metall ma'danlari uchun sof elementlar (oltin, kumush, platina, mis, vismut) va ularning intermetalloidlari; og'ir metallarning oksidli birikmalari (magnetit, gematit, kassiterit, xromit, sheelit va boshqalar).

Sulfidlar (argentit, molibdenit, xalkopirit, bornit, galenit, sfalerit, kinovar, antimonit va boshqalar), silikatlar (beril, spodumen, lepidolit va boshqalar).

Nometall ma'danlar alyumosilikatlar, karbonatlar va boshqa tuzlarning agregatlaridan tashkil topgan (ohaktosh, dolomit, gips, galit, kalsit, olmos, grafit, oltingugurt, ko'mir, slaneslar).

Ma'dan teksturasi - mineral agregatlarning shakl o'lchamlari, o'zaro munosabatlari bilan aniqlanadi. U massiv donador, tomirsimon, yo'l-yo'l bo'lishi mumkin.

Ma'dan strukturasi alohida minerallarning shakllari o'lchamlari bilan aniqlanadi.

Konlarning hosil bo'lishida mineral hosil bo'lish jarayonlari geologik shkalasi bo'yicha bo'linadi. Ular etap va bosqichlarga **ajraladi**.

Etap - uzoq vaqtni o'z ichiga olgan bo'lib, bitta genetik turda (masalan, magmatik, pagmatit, gidrotermal) ma'dan yig'ilishi bilan hisoblanadi. Ko'pgina konlar ikki, uch va undan ham ko'p etaplarda shakllangan.

Bosqich (stadiya)-etapning ma'lum qismlarida shakllanib, bu davrda alohida tartibda minerallarning yig'ilishi bo'lib o'tadi. Bosqichlar - erta bosqichdagi mineral agregatlarni brekchiyalanishi va sementlanishi: turli yoshdagi tomirlarni kesishini aniqlovchi minerallashuvdagi tanaffuslar bilan bir-biridan farq qiladi.

Mineral assotsiatsiyalar ketma-ket bosqichlarning **mineral generatsiyalari** deyiladi. Umumiy hosil bo'lish va bir vaqtda paydo bo'lgan minerallarni birlashtiradigan paragenetik mineral assotsiatsiyalari yoki paragenezis mineral ma'dan qurshovchi jinslar bilan sinxron hosil bo'lsa, **singenetik**, agar hosil bo'lib olgan jinslar paydo bo'lsa **epigenetik**-ustidan qo'yilgan deyiladi. Hosil bo'lish miqyoslariga qarab quyidagi ma'danli maydonlar kategoriyalariga bo'linadi:

Provinsiya, viloyat (poyas basseyn), rayon, maydon, makon, ma'dan gavdasi, yer shari.

Provinsiyalarga yirik struktura elementlari platformalari kiradi.

Dengiz va okean tublarida joylashgan konlarning alohida assotsiatsiyalari foydali qazilma oblasti provinsiyaga tarkibiy element bo'lib, izometrik chiziqlarga ega va konlarning hosil bo'lishi va tarkibini alohida to'plash bilan xarakterlanadi. Hududiy birinchi tarkibli tektonik strukturalarga (mulda, ko'tarilish graben va hokazo) taalluqlidir.

Chuqur yoriqliklarga subduksiya zonalari va rif sistemalariga taalluqli bo'lgan chiziqli chizilgan oblastlar **ma'dan tasmalari** deyiladi. Ularning o'lchamlari bir necha yuzdan ming kvadrat kilometr gacha bo'ladi.

Ma'dan maydoni ancha yirik (provinsiya, oblast) ma'lum tektomagmatik va litologofatsial sharoitda joylashgan konlarning yig'indisidir.

Agar foydali qazilmalar konining muayyan to'plami darzlarning kesishgan joylariga to'g'ri kelsa, ular **ma'dan uzeli** deb ataladi.

Ma'dan maydoni yer yuzasining kichik bir bo'lagini tashkil qiladi, unda bir vaqtda paydo bo'lgan genetik yaqin konlar joylashgan bo'ladi. U aniq geologik strukturaga ega bo'lib, bir necha seriyali birlashgan ma'danlarning bitta katta konidan yoki bir necha konlardan iborat bo'ladi.

Barcha foydali qazilma konlari shartli ravishda uchta katta seriyaga: endogen, ekzogen va metamorfogen, har bir seriya o'z navbatida guruhlariga, guruhlar esa sinflarga bo'linadi.

Endogen - ba'zan gipogen deganda Yerning ichki energiyasi bilan bog'liq konlar tushuniladi. Bu seriyada oltita guruh ajratiladi. Asosiy va ultra asosiy magmalar bilan bog'liq eritmalarni differensiyalanish va likvatsiyalashgan jarayonlarida ikkita guruh (magmatik va karbonat) hosil bo'ladi.

To'rtinchi guruh (pegmatit, albitit-greyzen, skarn va gidrotermal) nordon, o'rta va ishqoriy magmatik komplekslar bilan assotsiatsiyalanadi hamda kech intruziv

va intruzivdan keyingi bosqichlarda shakllanadi.

Ekzogen (yuzaki, gipergen) konlar quyosh energiyasi ta'siri ostida moddalarning kimyoviy, biologik differensiyalanishi oqibatida shakllanadi. Bu yerda uchta guruh ajratiladi: qadimgi va hozirgi nurash qatlamlari bilan bog'liq nurash konlari; sedimentatsiya basseynlarida mineral moddalarning mexanik, kimyoviy, biokimyoviy va vulqon differensiyalanishida paydo bo'lgan ma'danli cho'kma grunt va artezian yer osti suvlari faoliyati bilan bog'liq cho'kma jinsli havzalarda hosil bo'lgan ma'danli **epigenetik** konlar **metamorfogen konlar** - yer qa'ining chuqur qismlarida yuqori bosim va harorat ostida vujudga keladi. Bu seriyada ikki guruh ma'danlari ajratiladi: ilgari paytda bo'lgan barcha genezisdagi konlarning yangi termodinamik sharoitda qayta shakllanishidan metamorflashgan va minerallari metamorfogenning qayta paydo bo'lishidan metamorfik yoki tarqoq elementlar yoki ularning birikmalari gidrotermal-metamorfogen jarayonlaridagi konsentratsiyalar.

Metamorfogen konlar esa yer bag'rida sodir bo'ladigan o'zgarishlar mahsuli hisoblanadi. Bu seriyada 2 guruh (metamorflangan va metamorfik) konlari ajratiladi.

Foydali qazilma konlari hosil bolishini o'rganishning asosiy maqsadi shu konda ish olib borishni asoslash va kondagi qidirish mezonlarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan bilimlarni belgi sifatida foydalanishdan iborat. Foydali qazilmalarni qidirishda olib boriladigan ishlarni belgilangan nuqtalarda olib borishda qidirishning mezonlari ahamiyatlidir.

2.2. QATTIQ FOYDALI QAZILMA KONLARINI QIDIRISH VA RAZVEDKA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

2.2.1. Qidirish va razvedka qilishning iqtisodiy, matematik va geologik asoslari

Nazariya faqat shunda nazariya deyilishi mumkinki, agar u xodisa va jarayonlarni, ularning xususiyatlarini bashorat qila olsa. Xar qanday umumlashtirish va xulosa chiqarish o'z ichiga bashoratlashni oladi. Qidirish va razvedka qilishning bosh obyekti - bo'sh jinslar bilan o'ralgan foydali qazilma (yoki ma'dan) xisoblanadi. Foydali qazilma koni obyekt sifatida, iqtisodiy samara bilan foydalanish uchun qidirish va razvedka jarayonida ajratiladi.

Bo'sh jins va foydali qazilma (yoki ma'dan) bir-birlaridan o'zlarining iqtisodiy yoki geologik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan farqlanadilar. Shuning uchun qidirish

va razvedkaning nazariy asoslaridan birini mineral xomashyo iqtisodiyoti tashkil etadi.

Foydali qazilma (ma'dan) va foydali kazilma koni o'z mohiyatiga ko'ra geologik jismlardir. Ularning paydo bo'lishi va joylashishi geologik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Shuning uchun ularni bilish va ulardan qidirish va razvedka jarayonida foydalanish "FQKlarini qidirish va razvedka qilish"ning geologik asosini tashkil etadi.

Geologik jarayonlar juda ko'p holatlar, sharoitlar, vaziyatlar va sabablarga bog'liq bo'lgan, ko'p faktorli jarayonlardir. Geologik qonuniyatlar ehtimollik xarakteriga egadir. Bu qonuniyatlarni aniqlash geologik va geofizik usullardan tashqari matematik asoslanishni ham talab etadi. Shuning uchun geologik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda, ayniqsa ularning o'rtacha miqdorlarini hisoblashda matematikaning "ehtimollar nazariyasi" qoidalarini qo'llash talab etiladi. Geologiya-qidiruv ishlari jarayonida olingan ma'lumotlar juda katta bazani xosil qiladi. Bu baza minglab sonlardan iborat bo'ladi. Olingan ma'lumotlarning har biri tekshirilayotgan obyektning ma'lum bir nuqtasiga tegishlidir. Bu nuqtalarning har biri aniq koordinatlarga egadir. Ana shu koordinatlarga ulardan olingan ma'lumotlar, ya'ni analiz natijalari "bog'lab" qo'yiladi. Ana "sonlar massivi" yoki "ma'lumotlar bazasi" zaxira hisoblash uchun ishlatiladi. Bu xisob-kitoblar esa matematika qoidalari bo'yicha bajarilishi kerak. Aks holda xisoblangan zaxira noto'g'ri bo'ladi. Shu paytda asosiy bajariladigan matematik amallarga yuzani hisoblash, xajmni hisoblash, massani hisoblash, ko'plab alohida ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblash kabi amallarni kiritish mumkin. Bu matematik amallarni bajarishda albatta matematika qonunlarini to'g'ri qo'llash talab etiladi.

Shunday qilib, qidirish va razvedka qilish obyektining mohiyati uchta fan (iqtisodiyot, geologiya, matematika) usullari yordamida ochib berilishi va tavsiflanishi mumkin.

Qidirish va razvedka qilish vazifalarining bajarilishi yuqorida keltirilgan uchta fan usullari kompleksini qo'llashni talab etadi.

Qidirish va razvedka qilish avvalam bor foydali qazilmani bo'sh tog' jinsdan ajratishni o'rganishdan boshlanadi. Bu ikki tushuncha geologik-iqtisodiy kategoriyalar (tushunchalardir). Bularning ikkalasi ham aslida tog' jinsidir. Tog' jinsi esa bu - geologik tushuncha.

Toza iqtisodiy tushunchalarga "xom ashyo", "kapital ko'yilma", "rentabellik" kabi tushunchalar kiradi.

Qidirish va razvedka qilish jarayonida konda to'planadigan ma'lumotlarning ko'pchiligi "geologik-iqtisodiy" tushunchalar sirasiga kiradi. Chunki har bir kon

o'ziga xos geologik-sanoatbop parametrlarga (GSP) ega. Bunday parametrlar: yotish sharoitlari va chuqurligi; ma'dan tanalari va ochiladigan jinslarning qalinligi; ma'dansiz qatlamlarning qalinligi va holati; mineralogik tarkibi, foydali va zararli komponentlar miqdori; ma'dandar va qamrovchi jinslarning turg'unligi; suv kelish miqdori va h.k.

Muayyan kondagi konkret GSPlar yig'indisi konning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilab beradi.

Sanoat uchun konlarni texnik jixatdan imkoniyatli va iqtisodiy jixatdan manfaatli o'zlashtirishni ta'minlovchi GSPlarning chegaraviy miqdorlari ya'ni konditsiyalarini bilish muhimdir. Natijada anashu GSP bo'yicha foydali qazilma chegaralanib uning zaxirasi hisoblanadi.

Konlarning iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tasniflanishida tasniflovchi belgi sifatida turli GSPlarning ko'rsatkichlari qo'llanilishi mumkin. Bular orasida eng asosiylari quyidagilardir:

1. Foydali qazilma uyumlarining qalinligi.
2. Foydali qazilma sifati.
3. Foydali qazilmaning yotish sharoitlari.
4. Qamrovchi jinslar kesimining barqarorligi.
5. Konni qazib olish sharoitlari.
6. Foydali qazilma uyumlari tarkibining barqarorligi.
7. Konning kattaligi.
8. Konning geologik-sanoat turi.

Ushbu ma'lumotlarni to'plash uchun esa geologiya qidiruv ishlarini bosqichma-bosqich olib borilishini ta'minlash va dala ishlarini to'g'ri tashkil etish zarur. Geologiya qidiruv ishlari bosqichlari esa quyidagilardan iborat:

- 1) Regional geologik tadqiqotlar (masshtab 1:1 000 000, 1:500 000);
 - 2) Davlat geologik xaritalash ishlari (masshtab 1:100 000, 1:50 000);
 - 3) Qidirish ishlari; a) ilgari tanima ixtisoslashtirilgan qidirish;
b) qidirish.
 - 4) Baholash ishlari; a) dastlabki baholash;
b) mufassal baholash.
 - 5) Razvedka qilish;
 - 6) Qo'shimcha razvedka qilish;
- Ekspluatatsion razvedka qilish.

Qidirish va razvedka jarayonida matematikaning alohida roli. Geologik jarayonlar juda ko'p holatlar, sharoitlar, vaziyatlar va sabablarga bog'liq bo'lgan, ko'p faktorli jarayonlardir. Geologiya-qidiruv ishlari jarayonida olingan ma'lumotlar juda katta bazani xosil qiladi. Bu baza minglab sonlardan iborat

bo'ladi. Olingan ma'lumotlarning xar biri tekshirilayotgan obyektning ma'lum bir nuqtasiga tegishlidir. Bu nuqtalarning xar biri aniq koordinatlarga egadir. Ana shu koordinatlarga ulardan olingan ma'lumotlar, ya'ni analiz natijalari "bog'lab" qo'yiladi. Ana "sonlar massivi" yoki "ma'lumotlar bazasi" zaxira hisoblash uchun ishlatiladi. Bu xisob-kitoblar esa matematika qoidalarini bo'yicha bajarilishi kerak. Aks holda xisoblangan zaxira noto'g'ri bo'ladi. Shu paytda asosiy bajariladigan matematik amallarga yuzani hisoblash, xajmni hisoblash, massani hisoblash, ko'plab alohida ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblash kabi amallarni kiritish mumkin. Bu matematik amallarni bajarishda albatta matematika qonunlarini to'g'ri qo'llash talab etiladi. Geologik qonuniyatlar ehtimollik xarakteriga egadir. Bu qonuniyatlarni aniqlash geologik va geofizik uslublardan tashqari matematik asoslanishni ham talab etadi. Shuning uchun geologik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda, ayniqsa ularning o'rtacha miqdorlarini hisoblashda matematikaning "ehtimollar nazariyasi" qoidalarini qo'llash talab etiladi.

2.2.2. Foydali qazilma konlari sanoat turlarining geologiyasi

Izlashning asosiy vazifasi - ma'danli konlarni topish, ularni sanoatimiz talablariga to'g'ri kelishini, ya'ni hozirgi zamondagi, foydali qazilma konlarni o'zlashtirish texnika va texnologiyasi darajasini hisobga olish sharti bilan dala ishlari olib borayotgan obyektlarni yuqorida keltirilgan me'yorlar tariqasida dastlabki baholashdir. Foydali qazilma konlarning mavjud bo'lishi yer qobig'idagi murakkab jarayonlar komplekslarining har xil masshtabli epizodlaridan iborat bo'ladi.

Geologik izlash natijasida foydali qazilma konlarida yuzaga kelgan joyni aniqlash to'g'risida taxminlar va boshqa olingan ma'lumotlar ilmiy tadqiqot bashoratlarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Foydali qazilma (ma'dan) va foydali qazilma koni o'z mohiyatiga ko'ra geologik jismlardir. Ularning paydo bo'lishi va joylashishi geologik qonuniyatlarga bo'ysunadi. Shuning uchun bu qonuniyatlarni bilish va ulardan qidirish va razvedka jarayonida foydalanish FQKlarini qidirish va razvedka qilishning geologik asosini tashkil etadi. Bu qonuniyatlarni o'rganish uchun esa, umumiy geologiya, mineralogiya, petrografiya, strukturaviy geologiya, foydali qazilmalarning genetik va sanoatbop turlari, gidrogeologiya, geomorfologiya kabi fanlarning nazariy asoslarini o'rganib chiqish zarur. Yuqorida sanab o'tilgan fanlar o'rganish geologik jismlar va jinlar, geologik xodisa va jarayonlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi va yemirilishi kabi bir qator nazariy bilimlarni beradi.

I. TEMIR KONLARI (MA'DANLI FORMATSIYALAR BO'YICHA)

Insoniyatning temirga bo'lgan ehtiyoji barchaga ayon. O'zbekiston sanoatining tez sur'atlar bilan rivojlanishi metallga bo'lgan talabni birmuncha oshirdi. Masalan: O'zbekistonning qora metallarga bo'lgan ehtiyoji yiliga 1,8 mln.tonnani tashkil etadi. Shundan 600 ming tonna qora metall chiqindilari va metallomni qayta ishlash hisobiga, qolgan 1,2 mln.t mamlakatga import qilinadi.

O'zbekiston hududida temirning turli genezisga ega bo'lgan 200 ga yaqin kon va ma'dan namoyonlari mavjud. Ulardan sanoat ahamiyatiga ega bo'lganlari titan-magnetitli, magnetit-skarnli va magnetit-gematitli tiplaridir. Bu tipdagi konlardan Shimoliy Nurata, Boysun tog'lari, Chotqol-Qurama regionida qadimda temir qazib olingani arxeologik tadqiqotlardan ma'lum. Chotqol-Qurama regionida Ixnach, Barkrak, Mingbuloq va Surenota ma'dan namoyonlari o'rganildi.

Bulardan Surenota ma'danli maydoni eng yirik obyekt hisoblanadi va mufassal o'rganilgan. Uning bashoratlangan resursi 30-40 mln.t. deb aniqlangan.

Markaziy Qizilqumda Sangruntov tog'larida aeromagnet usuli yordamida yirik anamaliya aniqlangan, lekin gematit-magnetli ma'dan temirga boy emas (o'rtacha 13 %). Bashoratlangan resursi 118 mln.t.

1968-yilda Sultonuvays tog'larida Tebinbuloq temir koni aniqlanadi va uning bashoratlangan resursi 450 mln.t. deb baholandi. Lekin kondagi temirli ma'dan sifati yuqori emasligi sababli qazib olish ishlari boshlanmagan.

1990-yili Uchquloq ma'danli regionida Temirkon gematit-magnetitli temir koni aniqlangan, baholash va razvedka ishlari olib borilgan.

Hozirda Shimoliy Nurotada, Chimqo'rg'on va Arvaten ma'dan namoyonlarida izlash ishlari davom ettirimoqda.

Temir konlari barcha genetik tiplarda uchraydi. Biroq bulardan cho'kindi, kontakt-metasomatik va metamorflashgan konlar muhim sanoat ahamiyatiga ega. Rossiyadagi Kursk magnetit anomaliasini (KMA) yer sharidagi eng yirik temir ma'danli provinsiyalardan biri hisoblanadi. KMA hududi 90 ming km² bo'lib, Kursk va Belgorod shaharlari atrofida joylashgan. Uning 400×150 km o'lchamli markaziy qismi amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Maydondagi temir ma'daniga boy qadimgi metamorfik jinslar qalinligi yer yuzasidan 80-100 m chuqurlikda o'rtacha 50-80 m, ayrim joylarda 300 m.ni tashkil qiladi. Tarkibida 26-38 % Fe bo'lgan kvarsitlar kambag'al ma'dan hisoblanadi. Kvarsitlarning yuqori nurashga uchragan qismi esa boy hisoblanadi. Bu qismda temir miqdori 54-65 %ni tashkil qiladi.

2015-yil ma'lumotlariga qaraganda dunyodagi temir ma'danlarining tabiiy zaxirasi 160 mlrd.t. atrofida; ularning asosiy qismi (71 %) Rossiyada (25 mlrd.t.), Braziliyada (23 mlrd.t.), Avstraliyada (15 mlrd.t.), Ukrainada (30 mlrd.t.) va Xitoyda (21 mlrd.t.). Qolgan qismi Qozog'iston (8,3 mlrd.t.) AQSH (6,9 mlrd.t.), Hindiston (6,6 mlrd.t.), Shvetsiya (3,5 mlrd.t.), Venesuela (4,0 mlrd.t.), Kanada, Eron va JARda joylashgan. Temirning dunyo bo'yicha umumiy resursi 2018-yilga qadar 8000 mlrd.t. deb baholangan. Bir yilda dunyoda 1 mlrd. 320 mln.t. temir eritib olinadi. Temir qazib olish bo'yicha Braziliya birinchi o'rinda turadi (300 mln.t). Temir 450 ga yaqin mineral hosil qiladi, ammo sanoat ahamiyatiga ega bo'lgani 10-12 ta magnetit Fe_3O_4 -72,4 %, fegematit Fe_2O_3 -70 %, fesiderit $FeCO_3$ - 48,3 %, gidrogotit (limonit) $HFeO_2$ -62,9 %, fegyotit $FeO_2 \cdot H_2O$ - 52,0-62,9 %, Fe magnomagnetit (Mg, Fe) $O \cdot Fe_2O_3$ 24-38 % Fe. Temir ma'danlari ularning tarkibidagi metallning miqdoriga qarab boy, o'rta va kambag'al turlariga ajratiladi. Tarkibida temir 50 %dan ko'p bo'lgan ma'danlar boy, 40-50 % bo'lsa o'rta, 25-40 % temir bo'lganlari kambag'al, 17-19 % temir bo'lganlari juda kambag'al hisoblanadi.

Dunyo bo'yicha qazib olinadigan temirning 68 %ga yaqini boy ma'danlarga, 20 %ga yaqini o'rta ma'danlarga, qolgani esa kambag'al va juda kambag'al ma'danlarga to'g'ri keladi.

I.1. SURENOTA TEMIR KONI

I.1.1. Surenota koni va uning o'rganilish tarixi

Temir ma'danli Surenota maydoni nomi Toshkent viloyatining Bo'stonliq va Parkent rayonlarida joylashgan shu nomli tog' tizmasi nomidan olingan. Ma'danli maydon yuzasi shimoli sharqqa cho'zilgan suv bo'linishiga ega bo'lgan o'rtacha tog' relyefi bilan tavsiflanadi. Suv bo'linishining balandlik bo'yicha absolyut belgilari: uning janubi g'arbiy tugallanishida 1400-1550 m, shimoli sharqida 1800-2000 m, cho'qqi suv bo'linishi va uning ostonasi o'rtasidagi nisbiy ko'tarilish 100-400 m. Kumushkon parkent asfalt yo'ligacha bo'lgan masofa 7-8 km Toshkent Chirchiq temir yo'li tarmog'igacha gruntli yo'l bilan masofa 50 km atrofida. Elektr ta'minoti Parkentdagi elektrostansiya (110 KVt) va Kumushkon (35 kv) elektr tarmog'i orqali amalga oshirilishi mumkin.

Asosiy suv oqimlari konning shimoli sharqiy chegarasidan 2500 km masofada oqib o'tadigan Oqsoq ota daryosiga janubi sharqiy chegarasidan 1,5 km masofadan oqib o'tadigan Parkentsoydir karyersimon ishlanmalar shundan darak beradiki, temir ma'danlashuvi qadimdan ma'lum bo'lgan. 1930-1940 yillarda uni

I.M.Yefimenko, B.N.Naslyudoya, N.P.Vasilkovski, K.N.Vintlant, A.B Batalovlar o'rganishgan va salbiy baho berishgan. Surenota koniga birinchi iobiy bahoni 1956-yil 1:200000 masshtabda aeromagnet tasvir o'tkazib yer usti magnetometrik ishlarini bajarib V.V.Kuznetsov berdi. 1958-1959-yillarda E.A.Kabanov va 1959-1962-yillarda A.A.Shupenov hodimlari bilan o'tkazgan burg'ilash ishlari yordamida janubiy va sharqiy anomaliyalar, baholash ishlariga tavsiya qilindi.

Baholash ishlaridan tashqari tog' tizmasining hamma maydonlarida qidiruv ishlari olib borildi. Natijada Serunota temir ma'danli maydon (sharqiy, g'arbiy uchastkalardan tashqari) hamma uchastkalari bilan chizildi.

Temir ma'dan resurslari 44-49 mln.t. aniqlangan, shu jumladan g'arbiy uchastka -10-12 mln.t, sharqiy-10-12 mln.t, Qo'tirbuloq-20 mln.t, Surenota-4-5 mln.t A.A.Shmunov va boshqalar tomonidan izlash-qidirish ishlari natijasida g'arbiy va sharqiy uchastkalarda C_1+C_2 toifalari bo'yicha zaxiralar hisoblangan, Qo'tirbuloq uchastkasida bashorat resurslari baholangan (5-10 mln.t.)

Bundan tashqari bor, angidriti, brusit va ilmenit cho'kindilar resurslari hisoblangan va quydagi natijalar olingan g'arbiy uchastka-16,9 mln.t. temir ma'dani, sharqiy uchastka 19 mln.t., ikkita uchastka bo'yicha temir ma'dan zaxiralarining yig'indisi-35,9 mln.t, bor angidriti-0,2 mln.t., brusit-35-50 mln.t.

I.1.2. Surenota konining geologik tuzilishi

Ma'dan maydonining geologik tuzilish A.P.Agafonov, M.M.Libidlar tomonidan 1957-1967-yillarda davlat geologik tasvirlash ishlarini o'tkazish jarayonida o'rganilgan. Jinslarning eng qadimiysi intruzivlar bilan o'rta toshko'mir diorid-granodorit, adamiilit majmuasiga (qoramozor) kirishib ketgan o'rta-yuqori devonning terrigen karbonotli jinslari hosilalaridir.

Tog' tizmasining chetki shimoliy-sharqida andizit va C_{2-3} majmuasining datsit traxiandezit, traxiandezit-bazaltdan (Sho'robsoyning P_1 majmuasi) tashkil topgan yuqori paleozoy vulkanitlari rivojlangan.

Surenota tog' tizmalarining shimoliy-g'arbida 650° burchak ostida janubiy-sharq tomonga yotgan holda shimoliy-sharqiy cho'zilishining temir darzligi o'tadi. Janubiy-sharqda ma'dan maydoni shimoli g'arbiga temir darzligiga qarab $50-60^\circ$ burchak ostida yotgan shimoli-sharqiy cho'zilishning Surenota siljishi bilan chegaralanadi. Tog' tizmalari jinslari o'qi janubi-sharqiy ostonadan o'tadigan shimoli-sharqiy cho'zilish bilan Surenota antiklinaliga egilgan qanotlarini yotishi-20 dan 60 % gacha, taxlanishning janubi-sharqi qanoti Surenota siljishi bilan yertilgan. Cho'nki unga o'q atrofi taxlam qismi va mezazoy-kaynazoy xosilalarining qalin qatlami so'rilgan.

Surenota ma'danli maydoni obyektlarida geologiya-qidiruv ishlari oldinda boradi va ularni ilmiy izlanishlarga yetaklab boradi. V.N Ushakov xodimlari bilan ma'dan obyektlarini turlashtirdi (1997-yil). Surenota tog' tizmalari ma'danlashuvi gidrotermal va ular uchta to'rga mansub:

1. gidrotermal-cho'kma, gematit-limonitli.
2. skarn-magnetitli.
3. kvars-gematitli.

Gidrotermal-cho'kma, gematit-limonit to'ri.

Bularga Qutrbuloq va Pochchayorbuloq ma'danlashuvi kiradi. Ma'danlashuv o'zunligi 5 km, eni 250 m masofaga cho'zilgan.

Ma'dan tanasini o'rta devoninig jive yarusi terrogen-karbonit jinslardan linzalar tashkil qiladi.

Eng katta linzani №3 chi ma'dan tanasi tashkil qiladi, uning parametrlari: Uzunligi 2-3 km, quvvati 5-20 m, temir miqdori 24-41,7 %, eng kupi 59,1-62,7 %. Vertikal kesmda bug'ilash bilan o'rganilgan, preslangan qavati 120 m bo'lgan 3ta temir ma'dan yotqizig'i qayd qilingan.

Ma'danning mineral tarkibi limonit-gematitli ma'dan linzalari zonal tuzilishga ega. Markaziy qismida ma'danlashuv boyroq (20-25 %), alohida namunalarda 40 % va undan yuqori.

Boy ma'danlashuv intervallarida qavati 3-12 m chekkalarda linza intensiv limonitlashgan alevrolitli ohaktosh, uncha katta bo'lmagan giyitit va gematit miqdori bunda temir 5-16 % margenes 3 % gacha.

Quduqning 250-400 m chuqurligida tomidan ma'danlashuvi 100-120 m ortda qoladigan kvarsli porfirlar D₁ ochildi. Ma'danlashuv Qo'tirbuloq siniqligi zonasida joylashgan, qaysiki uning ta'siri ostida boshlang'ich gidrotermal cho'kma ma'danlashuv brekchiya va yadroning mayda taxlamlariga bo'linadi, kalsit-gematitli tomirlar rivojlangan joyda.

Boy ma'danlarni ustki devon vulkanogen jinslari bilan yopishish zonasida va terrogen karbonatli (jivet yoshdagi) hamda limonitlashgan jinslar yotqiziqlari kesishish uchastkalariga rivojlangan mayda taxlamlar va fleksuralarga taaluqlidir. V.N.Ushakov Qo'tirbuloq maydoni resurslarini 30 mln tonnaga baholaydi, unda boy ma'danlarning parametrlarini pastligini ta'kidlab o'tadi. Qo'tirbuloq ma'danlari skarnli magnetit turidagi ma'danlashuvi temir manbai bo'lishi mumkin deb qaraladi.

I.1.3. Skarn magnetitli turlar

Surenota ma'dan maydonida quyidagi uchastkalar mavjud. G'arbiy, Sharqiy, Laylakxona Surenotali. Eng ko'p o'rganilgani -g'arbiy uchastka. U Surenota tog' tizmalarining markaziy qismida joylashgan va intruziv hamda o'rta-devon ohaktosh-dolomit jinslari bilan kontaktda, 1500-1884 m balandlikda. Cho'kma jinslar o'zgargan, brusitlarga aylangan (brusit miqdori 30 % gacha), skarnlashgan (skarnlar xondrotitli, shpinel-diapsidli va diapsidli). Bular bo'yicha ohakli skarnlar rivojlanadi (granat-piroksenli va epidolitlar). Ma'dan tanalari yotqiziqlar uzunligida. Magnezial skarnlarda va qavati 100 m dan 700 m gacha bo'lgan magnit anomaliyalari bilan belgilanadi.

Janubiy uchastka ma'danlari pirit, xalkopirit, vismitin aralashmalari bilan magnetitli, tarkibi temir 38,54 %, mis 0,1 %, kobalt 0,002 %, vismut 0,005 %. Uchastkaning bashoratlangan resurslari 15 mln tonna temir ma'dani.

Uchastka tog' tizmasining markaziy qismida granitoidlar orasida karbonatli blokda joylashgan. Karbonatli jinslar skarnlashgan (qoratog'ota yuqori devon famen yarusi svitasi va yuqori turney). Tarkibi bo'yicha ular xuddi g'arbiy uchastkadagidek, xondronit farqlarini kengroq rivojlanishi va ohaktoshli skarnlari bilan farq qiladi.

Uchastkada uchta ma'dan pozitsiyasijratib ko'rsatilgan: ohaktosh blokining granitoidlar bilan g'arbiy yonishish, sharqiy yonishish va laylakxona. Bosh ma'dan tanasi g'arbiy yonishishda topilgan. Bu yerda 11 ta quduq burg'ilangan, ulardan 6 tasi ma'danlashuvni ochib berdi. Ma'dan tanalari-aylanma yotuvchi qatlamsimon yotqiziqlar, qavati 20 m gacha davomlilik 600 m. 7 ta ma'dan tanasi ajratilgan.

Ma'dan tanasi №1 diapsidli skarnlarda joylashgan, qalinligi 7,65 m, yotish bo'yicha uzunligi-160 m, yotish burchagi 700 g'arbga qarab, ma'danlari magnetitli.

Ma'dan tanasi №2 xondrotitli skarnlarda va serpentitlashgan kalsifirlarda joylashgan, qalinligi 12,8 m, yotish bo'yicha uzunligi-160 m, yotish burchagi 700 g'arbga. Ma'danlar sulfid-magnetit tarkibli.

Ma'dan tanasi №3 serpentitlashgan brusetli marmarlarga taaluqlidir, qalinligi 2 m, temirning miqdori-40-46 %.

Ma'dan tanasi №4 xondrotit skarnlarida joylashgan, qalinligi 15,5 m, yotishi bo'yicha uzunligi 206 m, yotish burchagi 800 g'arbga, ma'danlari sulfid magnetitli.

Ma'dan tanasi №5 diopsid skarnlarida joylashgan qalinligi 8,2 m, yotish bo'yicha uzunligi-206 m.

Ma'dan tanasi № 6 diopsid skarnlarida joylashgan, qalinligi 2,9 m, yotish bo'yicha uzunligi 206 m, 820 g'arbga ma'adanlari sulfid magnetitli.

Ma'dan tanasi №7 serpentinishgan porfirit-xondrodit skarnlarda joylashgan qalinligi 20,2 m, yotish bo'yicha uzunligi 200 m, yotish burchagi 700 g'arbga, ma'danlari sulfid-asharit-magnetitli.

Karbonat blokining sharqiy yotishida granadioritlar bilan intensivligi 1500 gamma bo'lgan uzunligi 200 m eniga 70 m magnit anomaliyasi aniqlangan. Birinchi quduq 238-240 m intervalda magnetitning maydalanish ochib berdi. Laylakxona maydonida ham xuddi shunday qayd qilingan anomaliyani intensivligi 1000 gamma, uzunligi 200 m, eni 10 m, 20 va 29 nchi quduqlar ma'danlashuv ochilmasidir.

Sharqiy uchastka bo'yicha (laylakxonani qo'shgan holda) resuslar-12-13 mln tonna ma'dan V.N.Ushakov bo'yicha ma'dan nazorat faktorlari va skarn-magnetit turidagi ma'danlashuv quyidagicha:

Qamrab oluvchi jinslarning yoshi-famen, kam darajada jivet va turney qamrab oluvchi jinslarning tarkiblari -dolomitlar, dolomitli-ohaktoshlar. Magmatik jinslar - C₂ Qoramazor kompleksining granadioritlari (yuqori asosli fazalari bilan).

Struktura nazorati-yotish joyida maydalanish zonasi va brekchiyalanish: subdolgat ko'ndalang siniqlar va karbonat jinslar va yoriqlashgan zona: karbonat jinslarning tomirlarini oslishlari. Metosomatik jarayonlar-marmarlashish, orogoviklashish, magnezial skarnlar, flogopitizatsiya, serpentinishish, tremolitizatsiya.


Ma'danlashuvning geofizik maydonlarida og'irlik kuchi gradiyentlari bilan ijobiy magnit anomaliyalari borligi aniqlangan. Keyingi yillarda ko'pchilik tadqiqotchilar skarnli konlar haqida shunday xulosaga kelishgan-skarnli konlar murakkab gnezis obektlari, ma'dan moddasi manbai bo'yicha bir xil emas, poligan qaysiki bu "ona" intruziv: ma'dan taxlanish zonasida sun'iy vulkanogen cho'kma namoyonlik: chuqur magmatik o'choq: temirli jinslar ma'dan hosil qiluvchi flyutlarning filtrlanish yo'lida. Bu manbalarning oxirgi turi. Ya.P.Baklayev va boshqalar(1980 y) tomonidan tasdiqlangan. (Ural temir konlari uchun). Uning hisobi bo'yicha 40-50 % temir-kelib chiqishi mantiqiy bo'lgan ishqorli flyutlar ta'siri ostida asosiy va o'rta tarkib vulkanitlarning katta miqdordagi qalin qatlamlaridan olib chiqib ketiladi. V.N.Ushakov xuddi shunday hisobni Surenota ma'danli maydoni uchun o'tkazdi.

Gidrotermal cho'kma ma'danlashuvli jivet yoshidagi produktiv qutining temir bo'yicha zaxirasi milliard tonnadan ko'pdir. Demak, sanoat temir konlarini tashkil qilishda to'shalgan jinslar va intruzivni qamrab olgan jinslar kata ahamiyat kasb etadi.

Ma'dan maydonlarining lokalizatsiyalanishi va tuzilishi asosan “ona” intruziv yuzasining morfologiyasi bilan aniqlanadi. Ma'danlashuvning lokalizatsiyasi intruzivning-into- kam hollarda ekzo yopishish paytida sodir bo'ladi va undan bir qancha uzoqlikda gorizontal va vertikal bo'yicha ma'dan maydonlarini lokalizatsiyalanishi uchun regionlarning yirik struktura elementlari birindhi navbatda siniqliklarning kesishgan joylari ma'lum bir ahamiyat kasb etadi.

I.1.4. Kvars-gematitli turlar

Bularga-temir siniqligiga to'g'ri keladigan Tortqora va Oqberdi ma'dan namoyonliklari kiradi. Aniqlangan siniqlik zonasi karbonat jinslar va granitoidlar oralig'ida joylashgan kvars tomirli yoriqlar seriyasidan tashkil topgan. Bunda tomirlarning karbonat jinslar chegarasida kattaligi 200,4 m bo'lgan temir shlyapa aniqlangan.



1-rasm. Surenota temir koni uchastkalarining joylashishi va geologik tuzilish sxemasi.

1 - “Quturbulak” uchastkasi, 2 - “Jelezniy razlom” uchastkasi, 3 - “Pochayarvulak” uchastkasi, 4 - “Zapadniy” uchastkasi, 5 - “Yujniy” uchastkasi, 6 - “Vostochniy” uchastkasi, 7 - “Dalniy” uchastkasi, 8 - “Lyaylyakxona” uchastkasi.

1-zamonaviy yotqiziqlar: yuqori devon, famen va frank yaruslari: 2-dolomitlar, dolomitli ohaktoshlar, har xil qatlamli ohaktoshlar, ohaktoshli qumtoshlarning mayda qatlamlari; o'rta devon. Jivet yarusi: 3 – qumtosh, alevrolit, tuflar va kvarsli riolitlarning lava oqimi; o'rta karbon intruziv komplekslari: 4-granodioritlar; tektonik uzilmalar; 5- tektonik uzulmalar; 6- skarnlar; 7- temirli uyumlar; 8-uchastkalar chegarasi.


To'rtqora uchastkasining janubiy qismida davomliyligi 200-250 m, qalinligi 25 m bo'lgan brekchiya rivojlanish kvarslashgan, limonitizatsiyalashgan yotiziq yotadi. Alohida uchastkalarda gematit giyotit brekchialari tarkibida 24,15 % dan 31,63 % gacha temir bilan uchraydi. Uchastkaning shimoliy qismida temir siniqligi bo'ylab: kvars-limonitli, kvars-karbonat-limonitli brekchialar aniqlangan. Qalinligi alohida brekchialangan zonalrda 5-7 m. ularni umumiy qalinligi 100 m.


Oqberdi ma'dan namoyonligi-Surenota intruzivining shimoli-g'arbiy ekzo kontaktiga taaluqlidir va erta toshko'mir yoshiga mansub bo'lgan, eintensiv skarnlashgan kata blokli jinslardir.

Skarnlar-granitli qo'yilgan epidot, kvars, xlorit, temir slyudalari bilan. Ma'dan tanalari skarnlarda yotadi, linza shaklda va aylanma yotishga ega. Temir miqdori 15,09-25,55 %.

Oqberdi ma'dan namoyonligi - granitoidlar poshnasida famenning dolomit qalinligi bilan yopishish joyida skarn-magnetitli yotqiziqlar borligi bashorat qilinadi. Oqberdi ma'danli maydoni bashorat resurslari R₂ kategoriyasi bo'yicha 30mln tonna ma'danni tashkil qiladi. Surenota maydoni bo'yicha umumiy bashoratlash resurslari R₂ kategoriyasi bo'yicha skarn-magnetit turdagi ma'danlar 90 mln tonnani tashkil qiladi.


Skarn-magnetitli ma'danli tanalar cho'kindi karbonat va vulkanogen-cho'kindi tog' jinslarga biriktirilgan;






2-rasm. Surenota temir koni “Vostochniy” uchastkasining sxematik geologik xaritasi:

1-zamonaviy yotqiziqlar; yuqori devon fomen yarusi; 2 - qalinligi har xil ohaktoshlar, dolomitlar; oʻrta karbonli intruziv kompleksi: 3 – granodioritlar; 4 - tektonik uzilmalar; 5 – maydalanish va ezilish zonasi; 6- skarnlar; 7 - temirli uyumlar; 8 - oʻzlashtirish konturi; 9 - qirqim chizigʻi; 2-titan-magnetit va ilmenitli maʼdan tanalari oʻrta va asosiy magmatik togʻ jinslarida uchraydi (Tebinbuloq).



3-rasm. Tebinbuloq koni titan - magnetit maʼdanlari hamda vermikulit joylashuvlarining sxematik geologik xaritasi

To'rtlamchi sistemasi: 1-supes (oz miqdordagi gil), suglinka (ko'p miqdordagi gil), qumtosh va konglomeratlar; Devon sistemasi, o'rta bo'lim, beshmozor svitasi: 2 - qumtosh, alevrolit, tufli qumtoshlar, andezit tuflari, konglomerat tuflardan iborat va ohaktoshlarning aralashma qatlamlari: past va o'rta bo'limlari, jamansoy svitasi: 3-kremniyli marmarlashgan ohaktoshli qatlam slaneslar, ko'mir kvarsli, amfibolli shyudalar aralashmasi: erta karbonli Tebinbuloq intruziv kompleksi: 4 - piroksenit tebin, gornblendit, peridotit, gabbro va gabbro-sienitlar; 5 - sienit-dioritlar (qirqimda); 6 - G'arbiy ma'danli zon (S_2 - toifali titan-magnetit ma'danlar zaxirasini hisoblash konturi); 7 - g'arbiy ma'danli maydon janubiy qismining zaxirasi bo'yicha birinchi navbatdagi o'zlashtirish karyerining hisoblash (TIA) konturi; 8 - tomirsimon-sepma titan-magnetitli ma'danlashuvi aniqlangan zonalari; 9 - Bashoratli ma'danli zonalarning konturlari (geofizik ma'lumotlar); 10 - vermikulitli ma'danlashuvining zonalari: I - G'arbiy; II - Sharqiy (Markaziy uchastkasi); III - Sharqiy (Shimoliy uchastkasi); 11-qirqim chizig'i.




4-rasm. Temirkon ma'dan rayonining tektonik sxematik tuzilishi



(P.N.Podkopayeva, N.M. Larina, V.P. Vasheshko, A.G. Safarov boshqalar ma'lumotlari bo'yicha):

Strukturaviy - formatsion zonalari: 1 - Beltov - Qurama; 2 - Otish (nurataoldi burilish) strukturaviy - formatsion ostki zonalari - Pistalitou (P-1) va Xonbanditou (P-2) yoriqlari: 3 - strukturaviy - formatsion zona ajratmalari (TZ - Nuzkon chuqurlik); 4 - strukturaviy - formatsion zonasi oldi ajratmalari (YuP - Janubiy Pistalitou, Ye. G - Yegebevlitou); 5 - yuqori pog'onali shimoliy-g'arbiy (JL - Temirli PS - Pistalitou, Su - Simoliy Uchlquloch, XB - xonbanditov); shimoliy - sharqiy yuqori pog'onali (Uch - Uchmasoy, KU - Quruqsoy, KK - qolsuyuqli, SZ - Semizquduq, TB - Tabakbuloq, AB - Olqabos); 7 - submeridial (KV - Kelvasoy, ZR - Zarbdor, BR - Borishiqli, KR - Qoramandlik); 8 - antiklinal oqi; 9- sinklinal o'qi; vulqon bo'lqan markazi: 10 - yoriqlik, 11 - markaziy tiplar; 12 - vulqon faoliyatidagi

mahsulotlari: a – asos, b – o‘rtanordon tarkibli konlar: 13 – polimetall (1-Uchquloch); 14 – temir (2 – Temirkon, 3 – Chimqo‘rg‘on); 15 – temir ma‘danli maydondagi Temirkon chegarasi.



Geologik qirqim A-B




5-rasm. Temirkon konining sxematik geologik xaritasi (A.G. Safarov, L.M. Krikunova va boshqalar, 2001 y.)

1–to‘rtlamchi qatlam; terrigen-cho‘kindi tog‘ jinslar Chimqo‘rg‘on (D_{1-2ssh}), Uchquloch (D_{2uc}) va Nurata tog‘ oldi (S_{1rp}) svita; 2–argillitlar, 3–alevrolitlar, 4–qumtosh; 5–ohaktosh; vulkanogen hosil bo‘lgan Chimqo‘rg‘on svitalar (D_{1-2cm}): 6–diabazlar. 7–diabazli porfirritlar, 8–andezit-datsitlar; intruziv hosil bo‘lishi; 9–granitlar, granodioritlar (S_3-R_1), 10–dioritli porfirritlar; 11–yoriqliklar; 12–burg‘ialash quduqlarining qirqmadagi o‘rni; 13–temir ma‘danlar.

II. MIS KONLARI

1. Mis-kolchedanli foydali qazilma konlari bazalt-liparit (spilit-keratofirli) va bazalt-andezit-datsit-liparitli ma'danli formatsiyalar bilan bog'liq, (Qoramurun);



6 - rasm. Sulfidli mis–nikel konlarining asosiy tog' jinslarida vujudga kelish xususiyati (V.I. Biryukov bo'yicha)

1-noritlar; 2-ma'danni qamrab oluvchi gneys va slaneslar; 3-yalpi sifat (kora) va sochma (nuqtalar) ma'dan.

2. mis-porfirli foydali qazilma konlari intruziya va sub-vulkon porfir kam nordonli magmatik tog' jinslar bilan bog'liq (Qalmaqir, Dalnee);

3. skarnli mis konlari gabbro-diorit-graniorit, granodiot va grandiorit-sienit ma'danli formatsiyalar bilan bog'liq (Surenota).


III. QO'RG'OSHIN VA RUX KONLARI

Qo'rg'oshin va rux xalq xo'jaligining deyarli barcha jabhalarida ishlatiladi. Qo'rg'oshindan asosan (50 % dan ko'proq) akkumulyatorlarni ishlab chiqarish va benzinlarning antidetonatorlari – tetraetilqo'rg'oshinini ishlab chiqarishda foydalaniladi. U bir qator qotishmalarning tarkibiga hamda bo'yoq, kabel, turli xil kimyoviy qoplamalar va boshqalarda foydalaniladi. Ruxning yetakchi talabgoiri galvanik qoplamalar (47,5 %), latunlar (19 %), rux asosidagi qotishmalar (13 %), kimyoviy mahsulotlar (8,5 %) va yarimfabrikatlaridir (7,5 %).

O'zbekiston razvedka qilingan qo'rg'oshin va ruxning zaxirasi bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Uning hududida 100 dan oshiq




konlar va ma'dan namoyondalari mavjud hamda ular asosan Chotqol-Qurama va Janubiy O'zbekiston regionlari da joylashgan. Oltita polimetallik konlar : Uchquloch, Xondiza, Qo'rg'oshinkon, Qulchulak, Kumushkon va Lashkerek kabilarda geologik tadqiqot hamda zaxira hisoblash ishlari olib borilgan. Lashkerekda chuqurlik sari kumush miqdorining oshib borishi sababli kumushli obyektlar qatoriga qo'shib qo'yilgan. Uchquloch va Xondiza ularning eng yiriklari hisoblanishadi. 1980 yillargacha bu metallarni qazib olishda asosiy mavqe skarn tipidagi Olmaliq rayonida joylashgan Qo'rg'oshinkon va Tojikistondagi Oltin-Topkan konlarida bo'lishgan. 90-yillar o'rtalarida esa Dalniy, Uchquloch uchastkasining stratiformli ma'danlari ekspluatatsiya qilindi, u yerda 4 uchastka razvedka qilingan – Markaziy, Janubiy, Dalniy va G'arbiy.

1. stratiformli foydali qazilma konlari cho'kindi va vulkanogen-cho'kindi genezisli karbonat ma'danli formatsiya bilan bog'liq (Uchquloch);



7-rasm. Uchquloch ma'dan maydonining geologik tuzilish sxemasi:

1–janubiy pistalitau (C_2m_2) va tog'oldi-nurota (C_1v_2) svitasi: alevrolitlar, qumtosh, shag'allar, konglomeratlar; 2–ustquruqsoy (D_3f_2) va mentli (D_3f_1) svitalar: ohaktosh, argillitlar, alevrolitlar; 3–xanbanditouli va pistalitouli (D_2gv) svitalar: ohaktosh; 4–yuqori uchqulochli svita (D_2gv): dolomitlar; 5–quyi uchquloch svitasi (D_2gv): tufargillitlar, tufalevrolitlar, tufdolomitlar; 6–bandakli svita ($D_1-D_2?$) riolitlar; 7–yoriqlar; 8–ma'dan uchastkalari: 1–Markaziy; 2–Janubiy; 3–Dalniy; 4–G'arbiy.




8-rasm. Uchquloch polimetall koni “Dalniy” uchastkasining sxematik geologik xaritasi va A-B chizig‘i bo‘yicha qirgimi:

1-o‘rta va yuqori devon (2-3): ohaktoshlar, argillit, tuflar, kremniy linzalari tarkibida bor dolomitlari; 2-sanoatbop ma‘dan tanalari va ularning nomeri; 3– loyihalashgan karyer konturi; 4–qirgim chizig‘i.



IV. VOLFRAM KONLARI

1. skarnli foydali qazilma konlari granitoid va ohak toshli tog‘ jinslari kontaktida joy egallagan (Ingichka, Qo‘ytosh, Yaxton, Langar va boshqalar);



9 - rasm. Ingichka volfram konining sxematik geologik xaritasi va A-B yo‘nalish bo‘yicha geologik qirqim:

1-Mel yotqiziqalar (K); 2-yuqori silur (S_{2ld}) dolomit, marmar, ko‘mirli ohaktoshlar, slanes va alevrolitli aralash qatlamlar; 3-biotitli granitlar (Pz_3); 4-tektonik siljishlar; 5-sanoatbop skarnli ma‘danli tanalar va ular nomerlari; 6-qirqim chizig‘i. A-B qirqim bo‘yicha: 1-yuqori silur (S_{2ld}) dolomit, marmar, ko‘mirli ohaktoshlar, slanes va alevrolitli aralash qatlamlar; 2-biotitli granitlar (Pz_3); 3-tektonik siljishlar; 4-sanoatbop skarnli ma‘danli tanalar va ularning nomerlari.




10-rasm. Yaxton volfram koni “Severniy” uchastkasining sxematik geologik xaritasi va B-Г chiziqlar bo‘yicha qirqim:

1-pastki-o‘rta devon (D_1-D_2) marmarli ohaktosh, dolomitlar, qumtosh va slaneslarning aralashgan qatlamlari, rogovik, kvarsitlar; 2-granodioritlar (C_3-P_1); 3-lamprofirlar; 4-tektonik buzilmalar; 5-skarmlar; 6-sanoatbop skarnli ma’dan tanalari va ularning raqamlari; 7-sanoatbop bo‘lmagan skarnli ma’dan tanalari; 8-qirqim chizig‘i.


2. gidrotermal konlar tarkibidagi kvars-sulfidli foydali qazilma konlarini misol keltirish mumkin (granit jinslarni endokontakti bilan bog‘liq-Sargardon) (W).


3. kvars-sheelitli foydali qazilma konlari qumtosh-slanes tog‘ jinlarida joylashgan shtokverkli vulkanitlar bilan bog‘liq (Sautboy, Saritou).



11-rasm. Sautbay volfram konining “Sautboy” uchastkasi sxematik geologik xaritasi

Shartli belgilar 12 rasmda.






12-rasm. Sautbay volfram konining “Sautboy” uchastkasi A-B yo‘nalish bo‘yicha geologik qirqim

Zamonaviy yotqiziqlar: 1-gil tuproqli jinslar; yuqori mel (bur) turon yarusi: 2-tuproq, qumtoshlar; o‘rta-yuqori rifey, kokpatas svitasi, ikkinchi-uchinchi pachkasi; 3-kremniy, kvarsitlar; 4-dolomitlar; 5-ohaktoshlar; 6-rogoviklar; 7-slaneslar; erta va o‘rta permli intruziv kompleksi; 8-diorit, siyenitli diorit, dioritli porfirritlar; ertapermli intruziv kompleksi: 9-aplitlar va aplitsimon granitlar; 10-granoditlar; 11-adamelitlar; 12-ma‘dan tanalari va ularning raqamlari; 13-karyer konturi (qirqimda); 14-qirqim chizig‘i.

V. OLTIN KONLARI

1. Oltin-kvars (sulfidli) formatsiya cho‘kindi, vulkanit, intruziv va metamorfik jinslar bilan bog‘liq (Muruntau);



13 - rasm. Muruntau ma‘dan maydonining tektonik sxemasi (A.D.Shvetsov, S.Yu.Petrov va boshqalar materiallari bo‘yicha)

1–karbonat tog‘ jinslar. Metaterrigen tog‘ jinslar: 2–ko‘k besapan, 3–kulrang besapan, kremniyli tog‘ jinslar qatlamlari bilan, 4–kulrang besapan, 5–quyi besapan; 6–sharyaji, qatlamlaroro uzilish, dinamometamorfik struktura hosil bo‘lish, qayshoq yoriqlik; 7–ko‘ndalang yoriq va shimoliy-g‘arbiy yuqori yoriqli qatlam hosil bo‘lish bosqichlari struktura bloklari; 8–vzbro-sdvig surilish va boshqa yoriqlar bloki shimoliy-sharq siljishi; 9–qirqim bo‘yicha siljish: a–pastga tushgan blok, b–ko‘tarilgan blok; 10–qatlamlar: a–antiklinal, b–sinklinal; 11–ma‘dan uyumlar va tanasi; 12–razvedka shaxtalar va ularning nomeri. Xaritaning o‘ng tomonida sanoatbop foydali ma‘dan hosil bo‘lish deformatsiya ellipsoidiga joylashtirilgan.

2. Oltin-sulfidli formatsiyasi cho‘kindi va eferuziv-cho‘kindi jinslar bilan bog‘liq hamda ko‘mirli va grafitli slanetslar orasida o‘rnashgan. (G‘arb qismida Qo‘kpatas, Daugiz, Amantaytou);

3. Oltin karbonat sulfidli formatsiyasi karbonat jinslari bilan bog‘liq (Kauldi);

4. Qumtosh-slanets-flitsiodli jinslar tarkibida o‘rnashgan tomirli konlar (Zarmitan).

3-BO‘LIM

3.1. QATTIQ FOYDALI QAZILMA KONLARINI IZLASH ASOSLARI

3.1.1. IZLASH MEZONLARI

Ilmiy va maxsus o‘quv adabiyotida izlash jarayonidagi ushbu tushuncha to‘g‘risida alohida to‘xtalish zarur.

Rus matnini o‘zbek tiliga ag‘darishda birinchi bo‘lib “zamin” so‘zi ancha vaqt qo‘llandi. So‘ngra “mezonlari” tushunchasi o‘ziga xos joy egalladi hamda “belgi” so‘zi mazmuni juda keng ma‘noda ishlatildi. Sabablardan biri - albatta, ona tilimizning boyligi, ikkinchisi - rus tilida nashr etilgan o‘quv adabiyotlarida “peredelki” degan tushuncha “kriteriya poiskov”ga aylandi.

Shuning uchun biz - mualliflar fikrimizcha “qidirish (hozir-“izlash”) zaminlari yoki “qidirish mezonlari” tushunchasining mazmuni foydali qazilmalar konlarining vujudga kelishini nazorat va kuzatuvchi geologik qonuniyat deb tushunamiz. Chunki foydali qazilma konlari har xil turlarining geologik holati ularning vujudga kelishi uchun qulay sharoitlar bilan bog‘liq.

Demak, izlash mezonlari bu-yer qobig‘i ma‘lum qismining (uchastka) geologik tuzilishi va elementlarining xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqligini bildiradi.

Tushunchalarning guruhlarga ajratish bo‘yicha yo‘nalishda qo‘llanishi asoschilaridan V.M. Kreyter va V.I. Smirnovlarni eslab o‘tish kerak.

Albatta, izlash mezonlarining soni har bir tadqiqotchida har xil bo‘lishi mumkin, ammo shu mezonlarni ajratish uchun asoslar mazmuni chuqur o‘rganib chiqilsa, tafovut doirasi unchalik farq qilmaydi. Shuning uchun, quyidagi izlash mezonlariga e‘tibor beramiz.

Formatsion mezon. Bu mezonning mazmuni – foydali qazilmalarning geologik formatsiyalar bilan aloqadorligi, ya’ni, formatsiya (N.S. Shatskiy) bu - maxsus tarkibli va tizimli tektonik strukturalar bilan bog‘liq tog‘ jinslarining tanalaridir.

Boshqacha aytganda - formatsiya deganda tog‘ jinslariga bog‘liq ma‘lum mineral birikmalar borligi va ularning yoshi hamda kelib chiqish xususiyatlari paragenetik munosabati tarkibida cho‘kindi, magmatik, vulqonogen-cho‘kindi (stratiformali) nazarga olingan.

Demak, foydali qazilmalar – har xil formatsiya sharoitlarida yuzaga kelgan va murakkab geologik holatlarda paydo bo‘lgan tog‘ jinslari deb ajratib olish mumkin.

Cho‘kindi formatsiyalar bilan foydali qazilmalarning bog‘liqligi aniq - ular

ma'dan tanalari boshqa tog' jinslari formatsiyalari bilan yonma-yon joylashgan, shu foydali qazilmalar qatlamlarini cho'kindi tog' jinslarining maxsus formatsiyalari sifatida qabul qilish kerak.

Endogen konlarning magmatik formatsiyalar bilan aloqasini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1) magmatik tog' jinslariga bog'liq ma'danli konlar komplekslarining bir vaqtda vujudga kelishi;

2) endogen konlar va magmatik tog' jinslarining bir xil geologik strukturalarga bog'liqligi;

3) konlar va tog' jinslarining tashkil topish chuqurligi;

4) metamorfizm darajasi;

5) intruziv daykalar roli;

6) endogen foydali qazilma konlarini intruziv tog' jinslari bilan aloqadorligining geokimyoviy xususiyatlari.

Konning vujudga kelishi sharoitlarini o'rganishda ma'dan joylashuvi jarayonining ma'lum fatsial holatiga o'tishi aniqlanadi.

N.M. Straxov fikricha temir, marganes, alyuminiy ma'danlari dengiz qirg'oqlariga yaqin fatsiyalarga bog'liqdir. Ular uchun iqlim mezonni katta va muhim rol o'ynaydi.

Vulqonogen formatsiya foydali qazilma konlarini ma'dani joylashuvida fatsial nazorat o'ziga xos joy o'rin tutadi. Ya'ni, ma'danlar tanalarining ma'lum fatsial sharoit bilan bog'liqligi (vulqon harakati), jumladan fatsiyalarning tarkibi, fizik va mexanik xususiyatlaridan iborat bo'ladi.

Magmatik genezisga tegishli foydali qazilma konlari ham ma'lum fatsial sharoitlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ular intruziv massivlarning apikal (chet) yoki tub (chuqur) qismlarida yuzaga keladi.

Demak, foydali qazilma konlarining ma'lum tegishli ma'dan formatsiyalar bilan bog'liqligini aniqlashda va bashorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ya'ni, tadqiqot ishlari olib boradigan hududda ma'lum ma'danli formatsiya joy egallaganligini aniqlash, shu formatsiya bilan bog'liq foydali qazilma konlarining borligiga va ularni izlash natijasida topishga taxmin paydo qilishi mumkin. Masalan, granodiorit komplekslar joylashgan hududda skarn (volfram) va gidrotermal (oltin) konlari borligi bo'yicha dastlabki ma'lumot beradi.

Gabbro-piroksen-dunitli formatsiyaga tegishli komplekslar bor joyda esa - xromitli magmatik, mis va nikel sulfidli foydali qazilma konlari, platinoid va titan-magnetit qatorlaridagi element birikmalari mavjudligi izlash ishlarini boshlashga asos bo'ladi. Ya'ni, izlash mezonlari, jumladan formatsionli ham, yuz yoki ming kvadrat kilometrga teng shu ma'danli formatsiya doirasi me'yoriga tegishli

hududda izlash dala ishlari natijasiga asoslangan va ma'dan vujudga keltirilgan qulay holatlar borligini bildiradigan – shu joyni aniq umumli sanoatni qiziqtiruvchi qismini (uchastkani) ajratish uchun zamin bo'ladi.

Ushbu formatsion mezon tarkibidan strukturaviy (konlar tektonik yoriqlar bilan bog'liqligi), stratigrafik (ma'dan stratigrafik qirqimlarning ma'lum joyida joylashuvi), litologik (jinslarning tarkibi) va geokimyoy (kimyoy elementlaridan tashkil topgan ma'danli minerallar) mezonlar kelib chiqadi. Bu borada o'z hududimizdan misollar keltirishimiz mumkin:

3.1.1.1. Stratigrafik mezon

Yuqorida ta'kidlanganidek, cho'kindi foydali qazilma konlarining ba'zi turlari qirqimlarning ma'lum stratigrafik gorizontlarida (geoxronologik jadval bo'yicha) uchraydi, ya'ni ma'danli minerallar (kimyoy birikmalari) hosil bo'lishiga va joylashishiga qulay sharoitni aynan shu davrning qismi (Yarus) yaratadi.

Yer qobig'i rivojlanish tarzida yettita katta va to'qqizta mayda cho'kindi temir konlarining vujudga kelish davri ajratilgan (N.M. Straxov). Umuman olganda, ushbu tashkil topish davrlari bilan marganes va boksit foydali qazilmalari ham bog'liq.

Ko'mir, yonuvchi slanes, fosforit va misli qumtoşlar ham o'ziga tegishli stratigrafik gorizontlar bilan bog'liqdir.

O'tgan asrning o'ttizinchi yillarida boshlangan sobiq ittifoq hududida olib borilgan dala-tadqiqot ishlari tajribasi, olingan ma'lumotlar tahlili ham izlash ishlarida ularni aniqlash uchun bashoratga ishonchli zamin bo'lib qoldi.

Qizilqum ma'danli rayonining janubiy qismida oltin minerallari asosan (S_2 -?) RR_3 ? bs (besapan svitasi), shimol qismida esa S_2 -? Kr (kokpatas svitasi) bilan bog'liqdir.

Olmalik ma'danli rayonida asosiy (bosh) elementlar bo'lmish qo'rg'oshin, mis va ruxning birikmalari (ma'danli minerallar), o'ziga xos yoshli tarkibi yuqorida keltirilgan intruziv va vulqonogen massivlarda uchraydi.

3.1.1.2. Strukturaviy mezon

Foydali qazilmaning tanalari ma'lum strukturalarga bog'liqligi bilan ajralib turadi. Masshtabni inobatga olgan holda strukturalar turlari quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

Metallogenik viloyatlar (provinsiya) region (hudud) miqyosida esa poyas va basseynlar. Foydali qazilma konlarini izlash jarayonida asosiy e'tibor lokal

(mahalliy) strukturalarga beriladi.

Shu yoʻnalishda dala - tadqiqot ishlari natijasida olingan maʼlumotlar ham kelajakda oʻxshash turli sanoat foydali qazilma konlarini bashorat qilishda qoʻllanishi mumkin.

Koʻpincha strukturaviy mezonlar deb, avvalambor yoriq va qatlamli strukturalarni hamda maʼdan tanalari joylashgan intruziv tarkibli togʻ jinslarining kontakti keltiriladi.

Tadqiqotchilar fikri boʻyicha har-xil darajali (IV-I gacha) qatlamlar (antiklinal) hamda yoʻnalishlari uzoq masofaga boradigan va ancha chuqirlikda qirqimning geologik tuzilishiga taʼsirini oʻtkazgan yoriqliklar mavjudligi va fizik-mexanik xususiyatlari boʻyicha farq qiladigan togʻ jinslari borligi izlash ishlari bashorati uchun qulay sharoit yaratadi.

Vulqonogen-choʻkindi maʼdanli formatsiyalar bilan bogʻliq mis, qoʻrgʻoshin, rux konlari paleovulqon (qadimgi) strukturalarda joy olgan stratovulqonlarning ekstruziv qumtoshlari yonbagʻrida shakllangan.

Strukturaviy mezonlarni ikki guruhga ajratish mumkin: tektonik - turli yoriqliklar, qatlamlar (anti, sin va monoklinallar kabi): paleovulkanogenik qadimgi nisbatan yosh terrigenli togʻ jinslari ostida qolib ketgan stratovulqonlar, subvulqonlar va depressiyalardan iborat boʻladi.

Demak, shu strukturalarni izlash jarayonida maʼdanga boʻlgan qulay joylarni aniqlashda, avvalambor vulqonogen qatlamdagi maʼdanli togʻ jinslarining ichki tizimini oʻrganish zarur, yaʼni maxsus paleovulkanogen xarita tuzish maqsadida ish olib borilishi kerak.

Hududimizda joylashgan qoʻrgʻoshin va rux foydali qazilma konlarining turli qismlari (uchastkalari) maʼdan tanalari qatlamlarini yorib oʻtadigan yoriqliklarga yondashgan (Xondiza), dizyunktiv yoriqliklar (Uchquloq): volfram konlarida ham yorib oʻtadigan (Qoʻytosh). Markaziy Qizilqum oltin viloyati obektlarini shu nuqtai nazardan koʻrib chiqsak minerallashtirilgan va tomirsimon zonalar tektonik harakati natijasida terrogen va vulkonogen-choʻkindi jinslar tarkibida vujudga kelgan yoriqliklar koʻzi joy egallaydi (Kokpatas, Davgiz, Amantay).

3.1.1.3. Geomorfologik mezon

Foydali qazilmani izlash dala tadqiqot ishlarida hududlarning relyef xususiyatlari ham nazarga olinadi, chunki maʼdan uyumlari oʻzlashtiruvchi atrof jinslarga qaraganda nurash kuchlari mustahkamlik darajasi bilan ajralib turadi: agar nurash jarayoniga maʼdan tanalari fizik va kimyoviy xossalari orqali qarshilik koʻrsatsa, relyefning ijobiy elementi (balandlik, ayvonchalar) sifatida yuzaga

keladi va aks holatda chuqurlik, korset, depressiya shaklida bo‘ladi.

Demak, umuman qaraganda, o‘simlik turlari, jinslarning tabiiy ranglari, ularning tekstura va strukturasi, turli tog‘ jinslarini tashkil etuvchi va ma‘danli minerallar olingan namuna va shlixlarda borligi va shu kabi izlash alomatlarining asoslari sifatida keng qo‘llanishi mumkin.

3.1.2. IZLASH ALOMATLARI (BELGILARI)

Foydali qazilma konlari mavjudligining bevosita ko‘rsatkichlari izlash alomatlari deb qabul qilinadi. Ma‘dan tashkil topishiga, so‘ngra uning tarkibidagi o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan o‘tmish geologik jarayonlarni izlash tushuniladi.

Foydali qazilma konlarini va ularning o‘zlashtiruvchi tog‘ jinslarini maxsus fizik, kimyoviy va mineralogik xususiyatlari qadim zamondagi insonlarning foydali qazilmalarni qayta ishlash natijalari bilan belgilanadi (Oltintopgan, Kumishkon va h.k.).

Tadqiqotchi-geologlar izlash alomatlarini shartli belgida bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) va bilvosita (foydali qazilma borligiga tahlil qilish anomaliya, ya‘ni turli elementlarning miqdori keskin o‘zgarishlari) belgilarga ajratadi.

Bevosita alomatlar foydali qazilmalarni yer yuzasiga chiqish (ma‘danli minerallarni izlash, xaritalashda marshrutlarda (yo‘nalish) uchratish va namuna sifatida o‘rganish, tarqalish (yoyilish) natijasidagi hududda elementlarning ma‘lum doirasi (oreollari) mavjudligi, qadimgi (IX-XII-XIX asrlardagi) kon lahimlarining qoldiqlaridan iborat bo‘ladi.

Bilvosita alomatlari tarkibida esa foydali qazilmani o‘zlashtiruvchi tog‘ jinslardagi o‘zgarishlar: ma‘dan tashkil topish jarayonining atrofdagi jinslarga ta‘sir qiluvchi belgilari mavjudligi (kvars ko‘payishi, yashil rangli tog‘ jinslarini tashkil etuvchi minerallarning mavjudligi), geomorfologik belgilar borligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

3.1.2.1. Geofizik alomatlar (anomaliya)

Bu izlash alomati foydali qazilmalar tanalari o‘z fizik xususiyati bilan o‘zlashtiruvchi tog‘ jinslaridan keskin farq qilishiga asoslangan va natijada geofizik maydonlarda anomaliyalar (miqdoriy o‘zgarishlar) paydo bo‘lishiga hamda ularni turli izlash usullari orqali aniqlashga olib keladi. Demak, geofizik anomaliyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydali qazilma konlarni izlash alomatlari deb qabul qilinishi mumkin.

Gravitatsion anomaliyalar – yer qobig‘i tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan

gravitatsiya (og'irlik kuchi o'zgarishi) uchastkalar paydo bo'lishidir. Katta zichlikka ega tog' jinslari ijobiy anomaliyalar vujudga kelishiga sabab bo'ladi va ularning manbai temirli ma'danlar, xromitlar, sulfid uyumlari ostida joylashadi.

Magnitli anomaliyalar - turli magnit xususiyatiga ega jinslar magnitli ma'dan maydonlariga olib keladi va ular o'zgaruvchanligi bilan anomaliyalarga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha foydali qazilmalar tanalari o'zlashtiruvchi jinslarga ko'ra yuqori miqdordagi minerallar mavjudligi va kuchli ma'danlar turi va hajmiga bog'liq bo'lgan ijobiy anomaliyalar borligi bilan ajraladi. (Kursk, Rossiya magnitli anomaliyasi).

Elektr anomaliyalar – elektromagnit ma'danli maydonlar normal holatli ko'rsatkichlarining ijobiy (ko'p tomonga) o'zgarishidir va ular o'z yo'lida ma'danli tanalarda elektr o'tkazishning kuchayishi, elektr qarshiligining kamayishi izlash jarayonida foydalanuvchi belgiga aylanadi.

Foydali qazilma konlarini izlash elektr usullari yordamida tabiiy va sun'iy elektr maydonlar parametrlarini o'lchash mumkin va natijada umumiy elektr fonida mazkur dala ishlari maqsadiga muvofiq kerakli obyektlarni aniqlash mumkin.

Qabul qilingan parametr (o'lchov)ga asoslanib, elektr anomaliyalar elektr qarshiligi (1), elektr maydoni (2) va polyarizatsiya (3) turlariga bo'linadi.

Radioaktiv anomaliya – radioaktiv (nurlanish) xomashyoni izlash jarayonida bu anomaliya mavjudligi ishonchli izlash alomati hisoblanadi. Chunki ma'dan tarkibida radioaktiv elementlarning mavjudligi va ular miqdorining balandligi yuqorida aytilgan anomaliyaning vujudga kelishiga asos bo'ladi.

Yuqori migratsion (aktiv, faol) xususiyatga ega bo'lgan elementlar hatto ma'dan atrofidagi tog' jinslariga radioaktiv parchalanish natijasida ta'sir etadi va gazzimon bug'lari esa yoriqli tog' jinslarining g'ovaklariga ham kirib qoladi.

Seysmik anomaliya - tog' jinslarining yo'nalishi va ko'ndalang to'lqinlarning o'tish xususiyatiga asoslangan.

To'lqinlarning o'tish vaqti tog' jinslarining tarkibiga bog'liq va turlariga qarab har xil bo'ladi. Natijada hududga va tog' jinsiga qarab maxsus jadvallar tuziladi (ohaktosh, qumtosh, terrigen va turli ma'dan qamrovchi tog' jinslarida). To'lqinlarning o'tish vaqti koeffitsiyenti (albatta ko'p tajribalar asosida olingan) ko'rsatiladi. Portlatish burg'ilangan quduqlarda olib boriladi va olingan ma'lumotlar dala ishlarida izlashda inobatga olinadi.

Anomaliyalarga asoslangan geofizik izlash usullaridan foydalaniladi. Aniqlangan anomaliya-asosiy geofizik alomatlarini ko'rsatadi. Foydali qazilma konlariga bog'liq bo'lgan anomaliyalar nafaqat ma'dan borligini, balki uning ko'rsatkichlari, ya'ni rivojlanish toifasi (uchastkalarining ajratilishi va ularning


shakli), chuqurligi to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish kerak.

Geofizik materiallarni (ma'lumotlarni) interpretatsiya (aniqlashtirish) orqali muayyan uchastkaning geologik tuzilishi, ma'dan tanalari bilan bog'liq bo'lgan va "nazorat" qiluvchi yoriqlarning turi, yo'nalishi va yotishi bo'yicha kerakli xulosalarga kelish mumkin.

3.1.2.2. Geokimyoviy alomatlar

Bu mezon magmatik hamda cho'kindi ma'danli kompleks va formatsiyalarning geokimyoviy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq, ularni o'rganish natijasida turli birikmalar (minerallar) elementlarining tabiiy aloqasini, jumladan komplekslar ma'dani vujudga kelishini va borligini ko'rsatadigan indikatorlarni tahliliy xulosalar bilan aniqlash uchun olingan ma'lumotlar izlash maqsadida foydalanish mumkin.

Magmatik tarkibli tog' jinslarning geokimyoviy xususiyatlari turli holatdagi muhim faktorlar bilan bog'liq, jumladan magma kimyoviy tarkibi, kristallanish va differensiyalanish sharoiti, ma'dan o'zlashtiruvchi tog' jinslari tarkibi hamda magma harorati ma'lum haroratga sovigandan so'ng uning kimyo nazoratda o'zgarishlarini chuqur va batafsil o'rganib chiqish kerak.



14-rasm. Ikkilamchi tarqoq oreollarning blok diagrammasi

(V.I. Biryukov bo'yicha)

1-elyuviy-delyuviy; 2-allyuviy; 3-ma'dan tanasi; 4-qamrab oluvchi jinslar; 5-elementlar miqdorining anomal chegarasi (kontur).

Cho'kindi formatsiyalarda geokimyoviy xususiyati tog' jinslarining kimyoviy tarkibi bilan bog'liq shu turli jinslarning tarkibiy farqlari, migratsiya (kimyo elementlari tarqalishi), eritilgan moddalarning bo'linishi (differensiatsiya), sidementatsion (cho'kindi jarayoniga qulay holat) viloyatlarda tektonik va iqlim sharoiti, fizik va kimyoviy hamda biologik (organizmlar harakati) xarakteri va nihoyat cho'kindilarning diagenetik (birlamchi tarkibiga nisbatan) o'zgarishlari o'ziga xos muhim joy olgan.

Geologik komplekslarning geokimyoviy ixtisosligi (farq qiluvchi ko'rsatma) regional (keng miqdorda) va mahalliy (lokal) ahamiyatga ega.

Regional ixtisosligiga Olmaliq va MKK (Au, V) ma'danli rayonlarni keltirish mumkin (Cu, Pb, Zu, Aq).

Mahalliy ixtisosligi regional tarkibida bo'lib, turli ma'danli komplekslarning maxsus, shu joyga xos bo'lgan ma'dan topilgan va rivojlangan sharoitlari bilan (kimyoviy elementlar soni bilan) ajralib turadi.


Foydali qazilmalarning yer yuzasida uchrashi. Bu holat bir tomondan, eng ishonchli foydali qazilmalar, ya'ni ma'dan, aniqrog'i, ma'danli minerallar (markaziy Qizilqum ma'danli maydonida pirit, arsenopirit); Olmaliqda esa kuprit, bornit, sfalerit, xalkazin, serussit va shu kabi minerallar ishonchli izlash alomati hisoblanadi.

Ikkinchi tomondan, yer yuzasida ming yillardan buyon mavjud bo'lgan kimyoviy birikmalar atrof-muhit (iqlim) ta'siri natijasida murakkab o'zgarishlarga uchrashi mumkin, jumladan geotektonik harakatlar kimyoviy jarayonlar ma'danli minerallarga nisbatan salbiy ta'sir o'tkazishini nazoratga olib, foydali qazilmalarni har tomonlama chamalab chiqish kerak, ma'dan sifati va tuzilishi (hudud bo'yicha foydali elementlarning tarqalishi) sanoat tomonidan talablarga javob bermasligi mumkin, ya'ni zamon talabiga ko'ra modernizatsiya va deversifikatsiya ishlarini rivojlantirish, texnologiya talablarini yanada oshirish kerak. Jumladan konchilik sanoati talabalari yangi texnika va texnologiya bilan qondirilmaganda, ma'lum vaqtga shu obyektни konservatsiya (vaqtinchalik olib borilayotgan geologik ishlarni to'xtatish)ga olib kelishi mumkin.

Tarqalish oreollari (doirasi). Foydali qazilma konlarining atrofidagi maxsus ma'dan turiga muvofiq bo'lish elementlar va minerallarning yuqori darajadagi miqdori mavjudligi bor hudud qismlarining tarqalish oreollari mazmuniga kiradi.

Oreollar odatda II guruhga bo'linadi: ma'dan tashkil topish jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lganlarga (birlamchi) va foydali qazilma konlariga endogen (yer osti) jarayonlari ta'siri natijasida vujudga kelganlarga (ikkilamchi)

oreollar tarqalish maydonining kengligi nazarda tutilgan. U holda izlash dala ishlarida ularga asoslanib olingan ma'lumotlar ishonchli bo'lishiga asos paydo bo'ladi, chunki ularni topish va aniqlash foydali qazilma konlarga nisbatan qulayroqdir.



15-rasm. Mis- kolchedanli ma'dan tanasini va uning birlamchi tarqoq oreolining joylashish sxemasi
(V.M.Kreyter bo'yicha)
1-porfiritlar; 2-albitofirlar;
3-birlamchi tarqoqli oreoli;
4-ma'dan tanasi.

Birlamchi tarqalish oreollari - foydali qazilma konlari atrofidagi ma'dan o'zlashtiruvchi tog' jinslarining bosh va ikkinchi darajali elementlarga boy qismlaridir.

Birlamchi oreollar singenetik va epigenetik turlarga ajratiladi (foydali qazilma konlarining genezisiga asoslanib).

Singenetik tur birlamchi oreollar cho'kindi va vulkonogen-cho'kindi (stratiform) genezisli konlar bilan bog'liq. Ular foydali qazilma va o'zlashtiruvchi tog' jinslari bir jarayon natijasida va yaqin vaqtda vujudga kelishi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning bilan oreollarda kimyoviy elementlar tarqalishi va yig'ilishi ma'dan tanalariga yaqinlashgan sari ko'payadi (zichlanadi).

Epigenetik oreollar ilgari vujudga kelgan ma'dan o'zlashtiruvchi jinslardagi turli jarayonlar natijasida hosil bo'ladi va ular tanalarning davomi sifatida qabul qilinadi. Epigenetik oreollar diffuzion va infiltratsion turlarga bo'linadi.

Epigenetik birlamchi oreollar ma'dan tanalari bilan bir strukturada bog'liq bo'ladi, ya'ni o'zlashtiruvchi jinslarga yoriqliklar bo'yicha kesib o'tgan holda vujudga keladi.

Komponentlar migratsiyasi tashkil topgan ma'danli tanalarni chetiga yondashganligini, ya'ni bu jarayon o'tishiga ko'ra faktor (sabablar) larga elementlarni tarqalish xususiyati (tezligi), qorishma (suyuqliklar) tarkibini, atrof muhit (o'zlashtiruvchi tog' jinslar)ning filtratsion holatini, fizik-kimyoviy sharoitlariga e'tibor berilgan holda oreollar tuzilishining murakkabligi, elementlar munosabatining keskinligini tushunish mumkin.

Umuman olganda, oreollardagi elementlarning miqdori ma'dan tanalari bilan

solishtirganda foizi kamroq bo‘ladi. Yuqorida tasdiqlanganidek, birlamchi oreollar tanalarni o‘rab olgandek, birlamchi oreollar tanalarning davomi hisoblanib, ularning chegarasi anchagina sun‘iy, chunki chegara (miqdoriga va boshqa ma‘dan xususiyatiga asoslanib) o‘tkazish, avvalombor sanoat talablariga, dunyo bozoridagi turli metallarning narxiga (ma‘lum vaqtda) va shu elementlarga davlatning muhtojligiga asoslangan. Birlamchi oreollarda elementlar vujudga (birikma sifatida) kelishi shakli turlicha bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha oreollardagi elementlar ma‘dandagi birikmalar tarkibida bo‘ladi. Ba‘zan o‘zlashtiruvchi tog‘ jinslar minerallarida izometrik qo‘shimcha tarzida uchrashi mumkin. Undan tashqari, oreol tashkil etuvchi elementlar ma‘dan tanasi atrofidagi jinslarning g‘ovakdagi suyuqliklar tarkibida ham uchrashi mumkin. Birlamchi oreollarning tarkibiga kiradigan elementlarning miqdori chuqurlikka yer yuzasiga nisbatan va maydon bo‘yicha o‘zgaradi, ya‘ni ma‘danli hududning har xil qismlari sifati tarqalish doirasi bo‘yicha foydali qazilmaning ko‘rsatmalari (miqdori, tanalarning qalinligi, qazib olish holati) asosida ajralishi mumkin.

Ikkilamchi oreollar va ularning tarqalish oqimi. Foydali qazilmalar vujudga kelgandan (ma‘dan sodir bo‘lish jarayoni to‘xtagandan) so‘ng, turli tabiiy sabablarga ko‘ra, uning atrofidagi tog‘ jinslarida (o‘zlashtiruvchi) yangi ikkilamchi kimyo jarayoni natijasida element va minerallar bilan boyitilishi mumkin (ikkilamchi oreollar). Bular yer yuzasidagi jinslarda, jumladan tuproqlar, argillit, alevrolit (lyosslar), ya‘ni nisbatan yosh (PN) jinslarda, o‘simliklar yer osti va yer usti suvlari, jinslar g‘ovaklar havosida va atmosferada paydo bo‘ladi.

Oreollar shakli doirasimon bo‘ladi (izometrik-izlar). Mexanik oqimlar shakli esa yuqorida aytilganidek, mexanik o‘zgarish natijasida (seller, yer o‘pirilishi, yomg‘ir ta‘sirida) uzunchoq, soy shaklida bo‘ladi (yuqoridan pastga).

Ikkilamchi oreollar va tarqalish oqimi o‘zgaruvchanlik xarakteriga (turiga) ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- mexanik oreollar less jinslardan (eleviy), glyasiol (muzlar harakati), orogen (tog‘li) zonalargacha kimyoviy mustahkam foydali qazilmalar maydalanishi, so‘ngra iqlim faoliyati natijasida tashkil topadi. Ular maydalanish qismlari va agregat tarkibiga ma‘danli minerallar (birlamchi) miqdori yuqori bo‘lgan holati bo‘yicha - yirik qismi (katta toshlar, shag‘al), shlix (qumtosh va mayda shag‘al) va loyqalarga ajratiladi. (Magadan oltin ma‘dan rayoni).

- tuzli oreollar, ma‘danli moddalar, kimyoviy birikmalar bo‘linishi, eritilishi va qayta tashkil bo‘lish jarayoni ta‘sirida yer yuzasiga yaqin qismida joylashgan jinslarda element va tuzlar topilishi hudud iqlimi - yomg‘ir, qor va bug‘lanish bilan chambarchas bog‘liqdir.

- gidrogeokimyoviy oreollar yer osti va ustidagi suv sistemasi bilan bog‘liq:

Foydali qazilmalar, birlamchi va ikkilamchi oreollar bilan munosabati natijasida (ma‘danli birikmalarni o‘qar suvlar yuvib o‘tishi) sodir bo‘ladi va qon tarkibidagi elementlar hisobidan oreollarda foydali komponentlar miqdori ancha yuqoridir.

Gidrogeokimyoviy oreollar doimiy (chuqur suvli qatlamlar) va vaqtinchalik (yer yuzasiga yaqin va iqlim ta‘sirini o‘tkazadigan yomg‘ir o‘tadigan suv gorizontlari)ga bo‘linadi.

Xaydarkon simob obyektida yer osti suvlarida va ular bilan bog‘liq chashma - buloqlarida shu element mavjudligi aholi sog‘lig‘iga salbiy ta‘sirini o‘tkazadi, jumladan boshqa tomirsimon bilan yonma-yon uchraydigan element - margimush ichimlik o‘qar suvni zaharlashi mumkin.

Fazoviy sistemalar ishlab chiqaruvchilarining raqobati natijasida hozirgi paytda Yerni kuzatish fazoviy sistemalarining ma'lumot imkoniyatlari va texnik ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilangan, bunga birinchi navbatda fazoviy tasvirlashning aniqligi 1 m gacha va undan kamga yetkazish, ko'p zonali va giperspektral asboblari va barcha ob-havo sharoitlarida qo'llaniladigan radiolokatsion vositalarni qo'llash hisobiga erishilgan.

Bajaradigan vazifasiga ko'ra, Yerni kuzatuvchi sun'iy yo'ldoshlar quyidagilarga bo'linadi:

Meteorologik sun'iy yo'ldoshlar. Orbitaning turiga ko'ra meteorologik sun'iy yo'ldoshlar geliosinxron va geostatsionarga bo'linadi.

- Geliosinxron sun'iy yo'ldoshlar 1962 yildan beri mavjud. TIROS, ITOS, NOAA seriyalaridagi geliosinxron sun'iy yo'ldoshlar mavjud. Geliosinxronlik - orbitalarning xossasi bo'lib, unda Yerning Quyosh atrofida aylanishining yillik ta'sirini aniqlik kompensatsiyalaydi va buning natijasida sun'iy yo'ldosh har doim bir vaqtda bir joyning ustidan o'tadi (SPOT har doim universal vaqt bo'yicha soat 11 da Fransiya ustidan o'tadi).

- Geostatsionar sun'iy yo'ldoshlar 1977 yildan beri mavjud. GOES, GMS, METEOSAT seriyalaridagi geostatsionar sun'iy yo'ldoshlar mavjud. Geostatsionarlik - bu orbitalarning xossasi bo'lib, unda sun'iy yo'ldoshlar 36000 km balandlikda ekvatorial tekislikda aylanadi va ularning aylanish tezligi Yer aylanishining burchak tezligiga teng bo'ladi, bundan ular osmonning bir joyida joylashishi kelib chiqadi.

Suratga oluvchi va kartografiya qiluvchi sun'iy yo'ldoshlar.

Bunday sun'iy yo'ldoshlar 1972 yildan beri mavjud. Ular geliosinxron orbitaga ega. Bunday sun'iy yo'ldoshlar qatoriga LANDSAT, SPOT, METEOP, PECURS va boshqalar kiradi.

5.1.4. Geologik vazifalarni bajarishda distansion usullarini qo'llash

Tayanch so'z va iboralar: masofaviy zondlash, sun'iy yo'ldoshlar, jarayonlar,

kon mahsulotlari, spektral kanallar, piksel, tasvirlash, orbita, aerokosmogeologiya, aerokosmogeologiya, aerokosmofoto syomka, cho'kindilar, landshaft zonalari, struktura, konlar morfologiyasi, suratga olish asboblari.

Masofaviy zondlash ma'lumotlarining qo'llanish sohalari. TM1: qirg'oq bo'yi zonalarni va shelflarni xaritalash, tuproqni va o'simliklarni ajratish hamda daraxtlarning ignali va bargli navlarini ajratish.

TM2: o'simlik qoplami holatini aniqlash uchun yashil diapazondagi qaytgan nurlanishni o'lchash.

TM3: xlorofillning yutishini aniqlash asosida o'simlik turlarini ajratish.

TM4: suv obyektlarini qirg'oq chiziqlarini aniqlash, suratga olish.

TM5: bulut va qor qatlamlarini ajratish, o'simliklardagi suv miqdorini va tuproq namligini o'lchash.

TM6: issiq infraqizil diapazonda xaritalash, qurg'oqchiliklar haqida, termal geologik ma'lumotlar olish.

TM7: gidrotermal xaritalash, foydali qazilmalarni qidirishda geologiyada tog' jinslarining turlarini aniqlash.

Landsat sun'iy yo'ldoshlaridan olingan masofaviy zondirlash ma'lumotlarining qo'llanish sohalari:

Landsat-7 sun'iy yo'ldoshi (25 - rasm) 15 aprel 1999 yilda Vandenberg (AQSh) aviabazasidan uchirilgan. Sun'iy yo'ldosh uchta yirik Amerika davlat tashkilotlarining: NASA, NOAA va USGS loyihasi hisoblanadi va mahalliy hamda chet ellik iste'molchilarni yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari bilan ta'minlashga mo'ljallangan.

Sun'iy yo'ldosh 705 km balandlikda quyosh-sinxron orbitaga chiqarilgan. Landsat-7 sun'iy yo'ldoshiga o'rnatilgan suratga olish asbobi Enhanced Thematic Mapper Plus (ETMQ) - mukammallashtirilgan mavzuli xaritachi ko'rish kengligi hamma kanallar uchun 185 km, tasvirlashning aniqligi 30 m li oltita kanalda, tasvirlashning aniqligi 60 m li bitta IQ kanalda va shu bilan bir vaqtning o'zida tasvirlashning aniqligi 15 m li panxromatik yer yuzasining suratini olish imkonini beradi. Orbitada joylashish muddati taxminan 7 yilni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligida masofaviy zondlash ma'lumotlarining qo'llash. Landsat sun'iy yo'ldoshlaridan olingan suratlar doimiy ravishda yangilanib turadigan ma'lumot manbai hisoblanadi. Landsat sun'iy yo'ldoshidan olingan YEMZ ma'lumotlari quyidagi sohalarda samarali qo'llanilib kelinmoqda:


Qishloq xo'jaligi;

O'rmon xo'jaligi;

Ekologiya;

Yerdan foydalanish;

Geologiya.



25 - rasm. Landsat-7 sun'iy yo'ldoshining tashqi ko'rinishi.

Resurs-DK sun'iy yo'ldoshi 15 iyun 2006 yilda «Soyuz-U» raketa tashuvchisi yordamida Baykonur kosmodromidan uchirilgan. Sun'iy yo'ldosh «SSKB-Progress» Davlat ilmiy-ishlab chiqarish raketa-fazoviy markazi tomonidan yaratilayotgan, yer yuzasini optik-elektron kuzatish operativ fazoviy kompleksi tarkibiga kiradi. Qo'llanish maqsadiga bog'liq ravishda sun'iy yo'ldosh $64,8^{\circ}$; $64,9^{\circ}$; $70,0^{\circ}$; $70,4^{\circ}$ og'ish burchagidagi aylanasimon yoki elliptik ishchi orbitalarda ishlatilishi mumkin. Aylanasimon ishchi orbitalarning o'rtacha balandligi 450 dan 610 km gacha. Elliptik ishchi orbitalarning qiymatlari 350-400 km dan 450-610 km gacha bo'lgan oraliqda. YEMZ asbobidan tashqari, Resurs-DK sun'iy yo'ldoshida fazoviy tadqiqotlar uchun mo'ljallangan "Pamela" (Italiya) ilmiy jihozi va yuqori energiyali elektronlar va protonlarni aniqlashni, yuqori energiyali zarrachalar-zilzilalar xabarchilarining qo'zg'alishini aniqlashni ta'minlovchi «Ariana» (Rossiya) ilmiy asbobi o'rnatilgan.

Sun'iy yo'ldosh panxromatik usulda (bitta kanal) tasvirlarning aniqligi 1 m gacha bo'lgan va multispektral usulda (uchtakanal) 3 m gacha bo'lgan yer yuzasining raqamli suratlarini olish imkonini beradi. Orbitada joylashish muddati taxminan 3 yilni tashkil etadi.

Resurs-DK sun'iy yo'ldoshidan olingan masofaviy zondirlash

ma'lumotlarining qo'llanish sohalari (26 - rasm).

1: 5 000 masshtabdagi xaritalarni va planlarni tuzish va yangilash;

Atmosfera, suv va tuproq holatini nazorat qilish, ifloslanish manbalarini aniqlash;

Texnogen va tabiiy ko'rinishdagi favqulodda holatlarni nazorat qilish;


Qishloq va o'rmon xo'jaligi;

Yerdan foydalanish masalalari;

Tabiiy resurslar kadastrini tuzish;

Hudud monitoringi;

Amaliy masalalarni yechish.



26 - rasm. Resurs-DK sun'iy yo'ldoshining tashqi ko'rinishi.

Monitor-E fazoviy sun'iy yo'ldoshi 26 avgust 2005 yilda yengil klassdagi «Rokot» raketa-fazoviy kompleksi yordamida Plesetsk kosmodromidan uchirilgan. Sun'iy yo'ldosh M.V. Xrunichev nomli Davlat fazoviy ilmiy-ishlab chiqarish markazi tomonidan yaratilgan. Monitor-E fazoviy sun'iy yo'ldoshi 540 km balandlikdagi quyosh-sinxron orbitaga chiqarildi va u har 4-6 sutkada yer yuzasining bir nuqtasi ustidan o'tadi. Sun'iy yo'ldoshning maxsus moslamasi yer yuzasining panxromatik hamda multispektral suratini olishga va ma'lumotni haqiqiy vaqtga yaqin vaqt masshtabida uzatishga imkoniyat beradi. Sun'iy yo'ldosh panxromatik usulda (bitta kanal) tasvir aniqligi 8 m bilan va multispektral usulda (uchta kanal) 20 m bilan yer yuzasining raqamli suratlarini olishga

imkoniyat beradi.

Suratga olish ikki variantda amalga oshiriladi: trassali suratga olish - bunda kamera yer yuzasini sun'iy yo'ldoshning harakati vaqtida suratga oladi, va yo'nalishli suratga olish - bu holda sun'iy yo'ldosh o'z harakati yo'nalishidan chetga chiqishi va iste'molchining talabiga ko'ra hududning alohida qismlarini suratga olishi mumkin. Monitor-E sun'iy yo'ldoshining maxsus optik-elektron moslamasi bir vaqtning o'zida barcha to'rtta kanalda suratga oladi (uchta diapazonda ko'p spektrli moslama yordamida va bitta diapazonda panxromatik moslama yordamida) (27 – rasm). Orbitada joylashish muddati taxminan 5 yilni tashkil qiladi.



27 - rasm. Monitor-E sun'iy yo'ldoshining tashqi ko'rinishi

Monitor-E sun'iy yo'ldoshidan olingan masofaviy zondlash ma'lumotlarining qo'llanilish sohalari.

1: 50 000 masshtabdagi xaritalarni va planlarni tuzish va yangilash;

Yerdan foydalanish, yer resurslari kadastrlarini tuzish;

O'rmonlar, qishloq xo'jaligi ekinlarining holatini nazorat qilish, hosildorlikni bashorat qilish;

Geologik xaritalar tuzish va foydali qazilmalarni qidirish;

Melioratsiyani va suq'orishni nazorat qilish;
Ekologik monitoring;
Favqulodda holatlarni nazorat qilish;
Amaliy masalalarni yechish.

5.1.5. Asosiy texnik ko'rsatkichlar. SPOT- 2, 4, 5 sun'iy yo'ldoshidan olingan masofaviy zondirlash ma'lumotlari

Yer yuzasini kuzatish sun'iy yo'ldosh sistemasi SPOT (Satellite Pour L'Observation de la Terre) Fransiya Milliy fazo agentligi tomonidan Belgiya va Shvetsiya bilan birgalikda loyihalashtirgan. SPOT sistemasi sun'iy yo'ldoshni boshqarish, ma'lumotlarni yig'ishni dasturlash, ma'lumotlarni qabul qilish va suratlarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan bir qator fazoviy va yerdagi vositalarni o'z ichiga oladi. SPOT fransuz fazoviy kuzatish sistemasi 1986 yildan beri faoliyat ko'rsatib keladi. Bu vaqt mobaynida har xil ko'rsatkichli 5 ta sun'iy yo'ldoshlar uchirildi.

SPOT 2 sun'iy yo'ldoshi 21 yanvar 1990 yilda uchirilgan. 24 mart 1998 yildan beri ishlab kelayotgan SPOT 4 sun'iy yo'ldoshi yer yuzasining har xil ko'rinishlarini aniqlash uchun qo'shimcha qisqa to'lqinli infraqizil diapazonga ega bo'lishi bilan SPOT sistemasidagi boshqa sun'iy yo'ldoshlardan farq qiladi. Bu sun'iy yo'ldosh shuningdek Yevropa Ittifoqi, Belgiya, Italiya va Shvetsiya bilan birgalikda ishlab chiqilgan VEGETATION asbobi bilan jihozlangan.

SPOT 5 sun'iy yo'ldoshi 3 may 2002 yilda «Arian-42R» raketa tashuvchisi bilan Kuru kosmodromidan 822 km balandlikdagi quyosh-sinxron orbitaga chiqarilgan. Sun'iy yo'ldosh topografik maqsadlar va relyefning modellarini tuzish uchun stereofufliklar olish imkoniyatini beruvchi yuqori aniqlikdagi stereoskopik detektor, hamda tasvirlarning aniqligi 5 m (SuperMode usulda - 2,5 metrgacha) bo'lgan oq-qora suratlar va tasvirlashning eng kichik o'lchami 10 m bo'lgan rangli suratlar olish imkoniyatini beruvchi tasvirlashning eng kichik o'lchami yuqori bo'lgan ikkita kamera bilan jihozlangan. Bundan tashqari SPOT 5 sun'iy yo'ldoshiga tasvirlashning eng kichik o'lchami 1 km bo'lgan butun Yer yuzasining suratlarini deyarli har kuni olish imkoniyatini beruvchi VEGETATION 2 kamerasi o'rnatilgan. Orbitada joylashish muddati 5 yildan ortiq.

Spot 5 sun'iy yo'ldoshidan olingan masofaviy zondirlash ma'lumotlarining qo'llanilish sohalari.

1: 25 000 - 1: 50 000 masshtabgacha bo'lgan geologik xaritalarni va planlarni tuzish va yangilash;

3 m aniqlikdagi stereofufliklar asosida relyefning raqamli modelini tuzish;

O‘simliklar holatini o‘rganish;
Ekologik monitoring.
Spot 5 ning asosiy texnik ko‘rsatkichlari

5.2. DISTANSION ZONDLASHDA RAQAMLI MATERIALLARGA ISHLOV BERISH

5.2.1. Yerni masofaviy zondlash ma’lumotlarini birlamchi qayta ishlashning bosqichlari

Suratlarni birlamchi qayta ishlashning bosqichiga bog‘liq ravishda masofaviy zondlash mahsulotlarining har xil turlari mavjud. Har xil sun‘iy yo‘ldoshlar uchun suratlarni birlamchi qayta ishlashning bosqichlari va turlari har xil.

Landsat 7 sun‘iy yo‘ldoshidan olingan ma’lumotlarini birlamchi qayta ishlash bosqichlari.

0R bosqich - bu qayta formatlangan, «xom» ma’lumotlar. Qayta formatlash quyidagi maqsadda suratning piksellerini butun songa siljitishdan iborat:

- YETM datchiki bilan to‘g‘ri va teskari yo‘nalishda skanerlash imkoniyatini ta’minlash;

- har bir diapazon chegarasida juft va tog‘ skanerlovchi detektorlar bilan boshqarish;

- matritsaning fokal tekisligiga nisbatan datchikni siljitish.

LANDSAT 7 mahsulotlarining bu turida geometrik to‘g‘rilash bajarilmaydi va suratning piksellari skanerlash chizig‘i bo‘yicha to‘g‘rilanmagan bo‘ladi. Shunday qilib Landsat mahsulotlarining bu turida radiometrik kamchiliklar bo‘ladi, ular 0R qayta ishlashining algoritmi impulsli shovqinlar, kogerent shovqinlar, xotira effekti va boshqalar kabi asbob yustirovkasining xatoliklarini to‘g‘rilashni nazarda tutmaganligidan kelib chiqadi.

1R bosqich - ma’lumotlar radiometrik to‘g‘rilangan. Qayta ishlashlar quyidagilardan iborat:

- asbob yustirovkasi uchun ma’lumotlarni to‘g‘rilash, sistematik shovqinlarni, yo‘l-yo‘llik effektlarini, «urilgan» chiziqlarni yoki piksellarni yo‘qotish;

- butun suratning ranglari to‘plamiga mos ravishda bir xil piksellarning ranglarini to‘g‘rilash;

- ma’lumotlarni 16 bitli ko‘rinishga keltirish.

LANDSAT 7 ma’lumotlarini qayta ishlashning bu turi geometrik to‘g‘rilashni bajarmaydi, suratlarda shuningdek skanerlash yo‘nalishi bo‘yicha piksellar siljigan bo‘ladi.

1G bosqich - radiometrik va geometrik to'g'rilangan ma'lumotlar 1G ma'lumotlar qayta ishlashning eng yuqori darajasiga ega.

Landsat 7 suratlarini qayta ishlashning 1G bosqichi radiometrik va sistematik geometrik to'g'rilashni, standart kartografik proyeksiyaga va koordinatalar sistemasiga (UTM/WGS-84) keltirishni o'z ichiga oladi.

Qayta ishlashning 1G bosqichidan o'tgan Landsat 7 tayyor mahsulotida sensor (tebranish, suratga olish burchagi effekti), sun'iy yo'ldosh (sun'iy yo'ldosh holatining mo'ljaldagidan chetga chiqishi) va Yer (Yer egriligi, aylanish) distorsiyalari natijasida vujudga kelgan kamchiliklar yo'qotiladi. 1G bosqichidagi Landsat 7 mahsulotining yakuniy siljishi taxminan 250 metrni tashkil etadi (tekis maydonlar uchun).

Sistematik 1G to'g'rilash jarayoni yerdagi nazorat o'lchovlaridan yoki relyefning raqamli modellaridan foydalanishni o'z ichiga olmaydi.

5.2.2. Sun'iy yo'ldoshidan olingan ma'lumotlarini birlamchi qayta ishlash bosqichlari

SPOT sun'iy yo'ldoshidan olingan ma'lumotlar boshlang'ich qayta ishlashdan o'tadi va iste'molchining talabiga ko'ra suratlarning geometriyasini va radiometriyasini yaxshilash imkoniyatini beruvchi qo'shimcha qayta ishlashlardan o'tishi mumkin.

SPOT panxromatik yoki multispektral suratni boshlang'ich qayta ishlashning bosqichlari quyidagilardan iborat:

0 bosqich - boshlang'ich qayta ishlanmagan ma'lumotlar.

1A bosqich - bu boshlang'ich bosqich yoki har bir spektral kanalda detektorlarni to'g'rilash (kalibrovka) amalga oshiriladi. Bu to'g'rilashlar muntazam ravishda bajariladi. Boshlang'ich qayta ishlashning bu bosqichidan aniq radiometrik tadqiqotlar vaqtida foydalaniladi. Boshqacha aytganda, boshlang'ich qayta ishlashning 1A bosqichida suratlar radiometrik to'g'rilanadi.

1AR bosqich - 1A bosqich Q filtratsiya.

1V bosqich - surat Yer aylanishi, ko'rinish effekti, yomon chiziq effekti, ko'rinish burchagi sistemasidan hosil bo'lgan sistematik deformatsiyalardan to'g'rilanadi. Bu to'g'rilashlar bir o'lchamlidir (sun'iy yo'ldoshning trayektoriyasiga perpendikulyar). To'g'rilashlar geometrik va radiometrik xarakterga ega. (re-echantillonage). Absolyut lokal aniqlik vertikal ko'rinishda 800 metrni va ichki aniqlik 10-3 dan kichik kattalikni tashkil qiladi. Bu fotointerpretatsiya uchun asosiy bosqich hisoblanadi.

2 bosqich - 2 bosqichning 1V bosqichdan asosiy farqli tomoni shundaki, u

geometriyaga va ichki hamda tashqi ma'lumotlardan foydalangan yaxshilangan lokalizatsiyaga ega.

Hisobga olinadigan ichki ma'lumotlar quyidagilar:

- orbitada qayta tiklangan ma'lumotlar
- suratga olish geometriyasi
- yordamchi ma'lumotlar, sun'iy yo'ldosh holatini qayta tiklash

Hisobga olinadigan tashqi ma'lumotlar quyidagilar:

- tanlab olingan planda ko'rilayotgan sistemaning ko'rsatkichlari

- to'g'rilash uchun o'rtacha balandlik; bu shunday balandlikda joylashgan nuqtalar uchun, bunda mahsulotning aniqligi eng yaxshi bo'ladi; umuman bu foydalanuvchi tanlab olgan maydonning o'rtacha balandligi.

- ba'zan Yerdagi bir xil nuqtalarning xaritalarda, yerda o'lchangan yoki foydalanuvchidan olingan koordinatalari (yoki tayanch nuqtalari).

2A bosqich - Lambert, ko'ndalang Merkator, og'ma Ekvatorial, qutbiy stereografiya kabi xaritaviy sistema ko'rinishlarida aniqlangan sahnalarni qayta tiklash uchun ikki o'lchamli tuzatishlar amalga oshiriladi.

Bu tuzatishlar faqat sun'iy yo'ldoshning holati va tayanch nuqtalarsiz suratga olishning geometriyasi haqidagi ma'lumotlardan foydalanib bajariladi (demak topografik xarita bo'lishi shart emas).

Suratning ichki aniqligi $0,5 \cdot 10^{-3}$ gacha ortadi, ammo absolyut lokalizatsiyaning aniqligi 1V darajada qoladi (800 metr atrofida). Shunga qaramasdan ma'lum nuqtaga nisbatan X va U ga oddiy o'tish lokalizatsiyani aniq to'g'rilash imkoniyatini beradi.

2V bosqich - bu aniqlikning boshlang'ich qayta ishlash bosqichi, bunda ikki o'lchamli tuzatishlar tayanch nuqtalari yordamida amalga oshiriladi. Surat xaritalar proyeksiyasida tuzatiladi. Bu mahsulotda 1V bosqichi kabi relyef bilan bog'liq deformatsiyalar hisobga olinmaydi va demak vertikal ko'rinish qanchalik katta bo'lib, relyef qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik aniq bo'ladi.

2 bosqich tasvirlari bir nechta tasvirlar bo'lagi bilan qayta ishlanishi mumkin; ular piksel bo'yicha aniq bir-biriga to'g'ri keladi.

3 bosqich - 2V bosqichdagi to'g'rilashlarga qo'shimcha ravishda 3 bosqichdagi to'g'rilash relyef bilan boq'liq deformatsiyalarni hisobga oladi. U yer yuzasining raqamli modeli natijalari ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Absolyut lokalizatsiya aniqligi 0,5 piksel atrofida. Tayyor mahsulot orto-surat bo'ladi.

S bosqich - S bosqichdagi boshlang'ich qayta ishlash natijasida boshqa tasvirlar bilan superpozitsiya qilish mumkin bo'lgan tasvirlar olinadi.

Quyidagi operatsiyalar bajariladi:

- impulslı shovqinlarni filtratsiya qilish;

- buzilgan va o'tkazib yuborilgan qatorlarni to'g'rilash va qaytadan tiklash;
- matnli annotatsiyani shakllantirish.

1 - qayta ishlash bosqichi

- 0 qayta ishlash bosqichini o'z ichiga olib, qo'shimcha quyidagi ishlar bajariladi:

- statistik usul bilan fotometrik to'g'rilash;
- orbital va telemetrik ma'lumotlar bo'yicha geografik bog'lanish;
- rastr ko'rinishida annotatsiyani shakllantirish.

2 - qayta ishlash bosqichi

- 1 qayta ishlash bosqichini o'z ichiga olib, qo'shimcha quyidagi ishlar bajariladi:

- qo'shchiziqli yorqinlik interpolatsiyasi yordamida geometrik kamchiliklarni yo'qotish;

- kartografik proyeksiyaga o'tkazish uchun shakl o'zgartirish;
- yuqori aniqlikdagi MSU-E spektral kanallarini geometrik birlashtirish.

3 - qayta ishlash bosqichi

- 1 yoki 2 qayta ishlash bosqichlarini o'z ichiga olib, qo'shimcha geografik bog'lanish va (yoki) maydonning tayanch nuqtalaridan foydalanib geometrik to'g'rilash bajariladi.

Qayta ishlangan ma'lumotlar quyidagicha chiqariladi:

- qog'oz tashuvchilarda (aniqligi 1440 dpi gacha bo'lgan rangli oqimli printer):
- A4 formatdagi qog'oz;
- A3 super formatdagi qog'oz;
- standart optik va magnit tashuvchilarda:
- CD ROM-650 Mb; DLT-35 Gb; Iomega ZIP-100 Mb.

Birlamchi qayta ishlangan ma'lumot quyidagi formatlarda bo'ladi:

0, 1 bosqich: - BRS, BMP, PCX, TIFF (5.0)

2, 3 bosqich: - BRS, BMP, PCX, TIFF (5.0), LAN, ERS, BIL, IDRISI.

4 va undan yuqori bosqichdagi ma'lumot mahsulotlarini yaratish, bu nostandart ma'lumot mahsulotlarining turi va formati iste'molchilar bilan kelishilgan holda aniqlanadi.

5.3. DISTANSION USULLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI

5.3.1. Surat materiallarini qo'llash sohalari

Uzoqdan zond etish, uning kechganini turdosh fanlari (fotogrametri, GPS, GIS) bilan birga, o'tgan besh yil davomida bir dinamik o'sish ega bo'ldi. U qishloq

xo'jaligi, tabiiy ofatlar boshqarish, atrof-muxit monitoringi, o'rmon xo'jaligi, tog'-kon, transport, yoki kommunal tarqatish bilan bog'liq texnologiyalar bog'lik bo'lsa, u ko'p tadqiqotlar beradi. Uzoqdan farq etish dasturlar ma'lumotlar olish xizmatlar qo'llaniladigan sanoat ilmiy yo'nalishlari:

Qishloq xo'jaligi, mudofaa, atrof-muhit, o'rmonchilik, geografik axborot tizimlari, xaritalash, tadqiqot, yer usti masofaviy zondlash, o'rmon, lazer xaritalash.

Ko'pchilik zamonaviy xaritalash texnologlar birgalikda uzoqdan Sensor sifatida tanilgan vositalarini turli ma'lumot to'plash. Bu tizimlar mexanik turli xil yo'llar bilan raqamli fazoviy ma'lumotlarni to'plash bo'lsa-da, qo'lga informatsion barcha elektromagnit spektr bilan bog'liq. Landsat sun'iy yo'ldoshlaridan olingan suratlar doimiy ravishda yangilanib turadigan ma'lumot manbai hisoblanadi. Landsat sun'iy yo'ldoshidan olingan YEMZ ma'lumotlari quyidagi sohalarda samarali qo'llanilib kelinmoqda.

Qishloq xo'jaligi

- yer yuzasining har xil turlarini ajratish va aniqlash, tuproqlarning turiga bog'liq ravishda o'simliklarni o'stirishning optimal sharoitlarini yaratish uchun shudgor ishlarini rejalashtirishda foydalanish;

- hosildorlikni bashorat qilish;

- tabiiy ofatlar natijasida qishloq xo'jaligi hududlariga yetkazilgan zararni baholash.

O'rmon ho'jaligi

- daraxtlarning har xil navlarini ajratish va aniqlash;

- o'rmonning qurg'oqchil qismlarini ajratish va xaritalash;

- o'rmon massivlarining zarar ko'rganligini aniqlash, zarar ko'rish manbalarini aniqlash;

- o'rmon yong'inlarini oldini olish bo'yicha profilaktik choralar o'tkazish uchun zonalarini aniqlash;

- milliy parklarni nazorat va optimizatsiya qilish;

- o'rmonlarni kesish natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zararni tahlil qilish;

- o'rmon materiallarini tashish va kesish zonalariga borish yo'llarini logistik rejalashtirish bilan bog'liq ishlar.

Ekologiya

- suv toshqini va boshqa tabiiy ofatlar hududlarini hamda bu faktorlarning tuproq eroziyasi jarayoniga ta'sirini modellashtirish;

- o'rmon yonq'inlari vujudga kelishining ehtimolini aniqlash va yong'inlar natijasida zarar yetishi mumkin bo'lgan hududlarni ajratish;

- o'rmonlarni noqonuniy kesish natijasida ko'riladigan zararni aniqlash;

- yer va suvning ifloslanishini keltirib chiqaradigan faktorlarni tahlil qilish;
- sanoat chiqindilari bilan ifloslangan hududlarni va bu bilan bog‘liq muammolarni aniqlash;
- hayvonot va o‘simlik dunyosining biologik xilma xilligini himoya qilish;
- ekologik loyihalarni amalga oshirish.

Yerdan foydalanish

- Yer maydonlaridan foydalanuvchilarning ma‘lumotlar bazalarini olib borishi uchun zarur xaritalarni tuzish va yangilash;
- yer maydonlarini baholash;
- shahar infratuzilmasi monitoringi;
- regional planlashtirish;
- transport infratuzilmasi xaritalarini tuzish;
- optimal transport yo‘nalishlarini aniqlash;
- qirg‘oq zonalarni xaritalash.

Geologiya

- o‘rganilayotgan hududda tabiiy resurslar zaxiralarini aniqlash uchun jinslar tuzilishi, litologiyasi va o‘zgarishini (metamorfik siqib chiqarish) ko‘rsatuvchi xaritalar tuzish;
- geologik xaritalarni yangilash;
- jinslar turlarini ajratish va aniqlash;
- g‘ovak jinslarni va tuproqlarni aniqlash;
- geologik tuzilishni aniqlash.

5.3.2. Foydali qazilmalarni izlashda tog‘ jinslarining turlarini aniqlash

Tabiiy resurslarni tadqiqot qilishga mo‘ljallangan birinchi sun‘iy yo‘ldosh LANDSAT-1 AQSh da aeronavtika va fazoni tadqiqot qilish Milliy boshqarmasi (NASA) tomonidan 1972 yilda uchirilgan edi. O‘shandan beri LANDSAT seriyasidagi 4 ta sun‘iy yo‘ldosh (2, 3, 4 va 5) va atrof-muhitni va okeanni o‘rganishga mo‘ljallangan Nimbus-7 va Siat kabi bir qator eksperimental sun‘iy yo‘ldoshlar uchirildi. Landsats 1-3 sun‘iy yo‘ldoshlari Return Beam Vidicon (RBV) kamerasi va ko‘p spektral skaner (MSS) yordamida ma‘lumotlar to‘plashni amalga oshiradi. Landsat sun‘iy yo‘ldoshlarining ikkinchi avlodida, ko‘p spektral skanerga qo‘shimcha ravishda mavzuli xaritachi (TM) o‘rnatilgan. Landsat 1-5 sun‘iy yo‘ldoshlarining asosiy ko‘rsatkichlari 5.1.2.1 - jadvalda va suratga olish asbobining ko‘rsatkichlari 5.1.2.2 va 5.1.2.3 - jadvallarda keltirilgan.

Landsat 4 va 5 sun‘iy yo‘ldoshlariga o‘rnatilgan TM (mavzuli xaritachi) suratga olish asbobining asosiy ko‘rsatkichlari 5.1.2.3 - jadvalda keltirilgan. 16

iyun 1982 yilda uchirilgan Landsat 4 suratlarni 1983 yil fevralgacha uzatgan edi. 1984 yil 1 martda Landsat 5 sun'iy yo'ldoshi uchirildi. Landsat ma'lumotlari Yevropada Fuchino (Italiya) va Kiruna (Shvetsiya) stansiyalarda qabul qilinadi.

TM1: qirg'oq bo'yi zonalarni va shelflarni xaritalash, tuproqni va o'simliklarni ajratish, hamda daraxtlarning ignali va bargli navlarini ajratish.

TM2: o'simlik qoplami holatini aniqlash uchun yashil diapazondagi qaytgan nurlanishni o'lchash.

TM3: xlorofillning yutishini aniqlash asosida o'simlik turlarini ajratish.

TM4: suv obyektlarining qirg'oq chiziqlarini aniqlash, suratga olish.

TM5: bulut va qor qatlamlarini ajratish, o'simliklardagi suv miqdorini va tuproq namligini o'lchash.

TM6: issiq infraqizil diapazonda xaritalash, qurq'oqchiliklar haqida, termal geologik ma'lumotlar olish.

TM7: gidrotermal xaritalash, foydali qazilmalarni qidirishda geologiyada tog' jinslarining turlarini aniqlash.

5.4. GEOLOGIK MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHDA GIS TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Mamlakatimiz iqtisodiyotining ildam rivojlanib borayotgan sohalarining turli xomashyo mahsulotlariga, jumladan foydali qazilmalarga bo'lgan ehtiyoji tobora oshib borayotgan hozirgi sharoitda respublika mineral xomashyo bazasini mustahkamlash zarurati muhim hisoblanadi.

Ushbu yo'nalishda hozirgi kunda ba'zi muammolar va ularni hal etish yo'lida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar so'ngi yillarda matbuotda e'lon qilingan hukumatning bir qator qarorlarida o'z aksini topgan.

Ushbu muhim hujjatlarda mineral xomashyo bazaning holati, uni rivojlantirishdagi dolzarb vazifalar va ularni yechishning ustuvor yo'llari aniq belgilab berilgan. Eng muhim o'zgarishlardan biri "chuqur ilmiy tahlil" asosida geologik ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish va geologiya qidiruv ishlab chiqarish ishlarida zamonaviy texnologiyalar va geologiya va konchilik yo'nalishlarida ilq'or zamonaviy dasturlardan keng foydalangan holda mavjud muammolarni hal qilish vazifalari qo'yilgan.

Ushbu dolzarb vazifalarni yechish yo'lida bashoratlash va qidirish usullarini izchillik bilan geologiya fani, texnikasi va turdosh ilm yo'nalishlari bo'yicha mavjud zamonaviy tajriba va yangiliklarga tayangan holda takomillashtira borish lozim.

Hozirgi kunda Respublikamiz geologiya va konchilik sanoati vakillari

tomonidan MICROMINE, ARCGIS, MAPINFO PROFESSIONAL, GLOBAL MAPPER, SURPAC kabi ko‘plab zamonaviy dasturlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

Hozirgi kunda kompyuter universal mehnat quroliga aylangan. Bu qurol mehnat samaradorligini oshiruvchi vositadir. Geologik masalalarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida yechish ishlarini tezlashtiradi, ko‘p o‘lchamli solishtirishlar imkoniyatini beradi. Ushbu ma‘ruzalar ana shu masalalarni yoritadi.

Modul bo‘yicha tayyorlangan ma'ruzalarda geologiyada matematik uslublar va kompyuter texnologiyalardan foydalanishning metodologik va amaliy masalalarni o‘rganish, geologik vazifalarni kompyuter texnologiyalarida yechishning amaliy yo‘llari, uning imkoniyatlari va ustunliklari ochib berilgan.

Geologiya sohasida geografik axborot texnologiyalari va tizimlarini o‘rganishda qator muhim savollar yuzaga keladi. Bulardan eng birinchisi geografiya axborot nima? Geografik axborotni yer yuzasidagi joylar to‘g‘risidagi axborot deb tushunish kerak. Ushbu axborot qayerda? va nima? bor degan savollarga javob beradi. Va bu axborot juda batafsil bo‘lib, u mutaxassislarni shahar ichidagi hamma bor binolar joylashishi to‘g‘risidagi ma‘lumot bilan ta‘minlashi mumkin. Boshqa tomondan ular juda ham umumlashtirilgan bo‘lib, faqat umumiy ma‘lumot bilan ta‘minlaydi, aytaylik, O‘zbekistonda aholining hududiy joylashuvini bildiradigan umumiy ko‘rsatkichi o‘rtacha aholi zichligidir. Yuqorida ko‘rsatilgan misollarda turli xil geografik axborotning yechimi to‘g‘risida gap ketmoqda va bu ko‘rsatkich asosiylardan biri. Geografik axborot boshqacha ham ta‘riflanadi va u vaqt mobaynida o‘zgarish sur‘atini va ayrim holatdagi hodisa va obyektlarni xaritagga tushurish imkoniyatlarini bildiradi. Joy to‘g‘risida ma‘lumotlar ko‘pligi tufayli geografik axborot juda yuqori hajmli bo‘lib, bir necha terrabaytlarga barobar bo‘lishi mumkin.

Kompyuter texnologiyalar rivojlangan sari geografik axborot unda saqlanib kelmoqda va bu raqamli geografik axborot qanday xususiyatlarga ega? Boshqa axborotdan farq qiladimi, yo‘qmi? Geografik axborotni raqamli tarzga aylantirib va uni saqlab, idora qilsak ma‘lumotlar yangi raqamli qiyofasiga ega bo‘ladi. Ular boshqa axborot kabi zamonaviy texnologiyalar yordamida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi. Kompyuter harflarni, so‘zlarni, raqamlarni, tasvirlarni, xaritalarni saqlab turadi va ularni Internet orqali tarqatadi. Kompyuter xotirasida turlicha ma‘lumotlar saqlanadi va ular raqamli ko‘rinishda bo‘lib, kompyuter ularni qo‘shishi va ayirishi, ko‘paytirishi va bo‘lishi mumkin.

Kompyuter harflardan matn tuzib, uni tahrir qilib beradi, matnni elektron pochta orqali qabul qiladi yoki yuboradi. Kompyuter tasvirlarni yaratishi va turli

xil jadvallarni tuzib berishi mumkin.

5.4.1. GIS texnologiyalarining umumiy tavsifi

Yana bir muhim savol: geografik axborot texnologiyalari nima? Geografik axborotni to'playdigan va u bilan ishlaydigan texnologiyalardir. Ishlatiladigan vositalarga ko'ra ularni asosiy 3 ta guruhga ajratish mumkin:

1. Global pozitsiyali tizim (Global Positioning System GPS). Yer atrofida aylanib turgan sun'iy yo'ldoshlardan iborat bo'lgan tizimdan yuqori aniqlikdagi signallarni tarqatib turadi. Ular maxsus qabul qiluvchi vositalar yordamida yerda qabul qilinadi va joyning koordinatalarini o'lchashga yordam beradi.

2. Masofadan turib ma'lumot to'plash tizimi. Yer atrofida aylanib turgan sun'iy yo'ldoshlardan atmosfera va yer yuzasi to'g'risida ma'lumotlar to'planadi. Bunday yo'ldoshlar xilma xil va ularda o'rnatilgan asboblarning turli spektrlarini qayd etib, ko'p foydali ma'lumot olish imkoniyatga ega. Yerga ushbu signallar yetib borgach, ular raqamli ko'rinishga keltirilib saqlanadi va turli tashkilotlarga tarqatiladi.

3. Geografik axborot tizimlari (Geographic information system GIS). Geografik axborotni kiritish, saqlash, qayta ishlash, chiqarish va tarqatish uchun mo'ljallangan maxsus axborot tizimidir. Maxsus dasturlash turi deb hisoblanadi. Geografik axborot tizimlari foydalanuvchiga kompyuter va boshqa texnikaviy vositalardan, bir – biriga bog'liq ushbu tizim ma'lumotlaridan turli xil masalalarni yechishga, qarorlar qabul qilishga va turli islohotlarni amalga oshirishga yordam beradi. Geografiya axborot tizimlari axborot tizimlarining maxsus turi va boshqa axborot tizimlar kabi ma'lumotlar bazasida saqlanib turgan axborotni qo'shish, ayirish, topib berish, tahlil qilish ishlarini bajaradi. Lekin ulardan farq qiladigan tomoni u yer yuzasida nima va qayerda bor degan ma'lumotni idora qiladi. Faqat Geografik axborot tizimlari xarita va yer to'g'risidagi tasvirlar bilan ishlay oladi.

Demak geografik axborot tizimlarining asosiy xususiyatlari:

1. Geografiya axborotni tahlil qilish yo'li.
2. Axborot tizimlarining maxsus turi.
3. Fazoviy va hududiy axborotlarni tahlil qilish usuli.
4. Ma'lumotlarni saqlash va tarqatish usuli.
5. Geografik axborot esa:
 - xarita va joy to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami;
 - ular orasidagi aloqalardan iborat.

Kompyuter texnologiyalar o'zlashtirilgach, kartografiya va geologiya fanlarida hamda amaliyotida katta qulaylik yaratildi va bunday o'zlashtirishning ijobiy

tomoni yangi imkoniyatlarni ochishdadir. Ular quyidagilar:

1. Raqamli axborotni bir xil tarzda saqlash.
2. Raqamli axborotni bir xil tarzda qayta ishlash.
3. Raqamli ma'lumotlarni yaratish.
4. Internetda kerakli ma'lumotlarni izlash va tarqatish.
5. Raqamli axborotni tasvirga aylantirish.
6. Qayta ishlash tezligini va samaradorligini oshirish.

Geografik axborot tizimlarining asosiy xususiyatlari:

Kompyuterdan foydalanishning afzalligi shundan iboratki, ularda ma'lumotlarni saqlash, topib olish, ular bilan ishlash, yuborish, qabul qilish, ekranda ko'rsatish osonroq va tezroqdir.

Geografik axborot tizimlarni ta'riflaydigan bo'lsak, bunda albatta uning ikkita tomoniga e'tibor beramiz:

1. Kompyuter tizimini kompyuter, turli texnikaviy vositalar, ma'lumotlar, dastur va ular bilan ishlaydigan mutaxassislar tashkil etadi. Boshqa sohalarda boshqacha kompyuterlardan foydalaniladi. Farqi shundaki, geografik axborot tizimida xarita va chizmalardan olingan ma'lumotlarni kompyuter xotirasiga kiritish uchun maxsus skaner, digitayzer va chiqarish uchun maxsus printer, plotterlardan foydalanishga to'g'ri keladi.

2. Geografik axborotni boshqa axborotdan farq qiladigan tomoni shundaki, u birorta koordinata tizimiga bog'liq holda saqlanadi va qayta ishlanadi. Shunga qarab xaritadan, aerosuratdan olingan ma'lumot albatta koordinata tizimi bilan birgalikda kompyuterga kiritiladi va saqlanadi.

Maxsus dasturlash turi hisoblanadi va Geografik axborot tizimining hududiy tahlil qilish funksiyalari dasturning muhim qismini tashkil etadi.

Bunday qimmatbaho texnologiyalar va ma'lumotlar kimga va nima uchun kerak degan savol ham paydo bo'lishi mumkin. Hududiy jarayon va xodisalarni o'rganadigan fanlarda "qayerda va nima bor?" savol oddiy bo'lib qolgan. Bundan tashqari gaz, telefon, elektr, suv tarmoqlari, kabelli televideniya bilan ishlaydigan tashkilotlarga ham ushbu ma'lumot kerak.

Shunday tashkilotlarda ko'p mijozlarga hizmat ko'rsatish uchun turli axborotdan foydalaniladi, ya'ni hamma bor texnikaviy vositalar, quvurlar, infratizimning boshqa elementlari, tizimlar kattaligi va uzunligi to'g'risida to'liq va yangi ma'lumotlarga muhtoj bo'lib, shu ma'lumotlar asosida ular ishni boshqarish va takomillashtirish yo'llarini topishga harakat qilmoqda. Ushbu ma'lumotlar boshqalarga ham kerak bo'lib qolishi mumkin, masalan, telefon tizimi qayerdan o'tganligini o'rganib, suv bilan ta'minlash tarmoqlarini qazish ishlarini unumli va bezarar olib borish mumkin.

Transport tashkilotlari yo‘l holatini, svetofor va yo‘l harakati belgilarni nazorat qilishda, ko‘ngilsiz avtomobil hodisalarining oldini olishda shunday ma‘lumotlarga tayangani maqsadga muvofiqdir. Eng qulay va qisqa yo‘lni, tranzit joylarni aniqlashda geografik axborot tizimining o‘rni beqiyosdir. Geopozitsion tizimlar va geografik axborot tizimlari rivojlangan sari ulardan foydalanish yo‘llari ko‘payib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligida geografik axborot tizimlaridan foydalanish misollari ham juda ko‘p va daladagi ishlarni idora qilishda va rejalashtirishda, o‘g‘it va kultivatsiya ishlarini olib borishda ularning qulayligi yaxshi ma‘lum. Shunday usullar aniq qishloq xo‘jalik texnologiyasi deb nomlanadi. Bu ro‘yxatni davom ettirish mumkin va keyingi boblarda ulardan ayrimlarni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Demak, geografik axborot tizim bilan ishlashda quyidagi jarayonlarni bajarish lozim:

1. Muammoni geografik axborot tizimda yechiladigan holda aniqlash;
2. Maxsus dasturdan va kompyuterdan foydalanish;
3. Raqamli ma‘lumotni yaratish yoki topib olish;
4. Ma‘lumotlar bazasini barpo etish;
5. Geografik axborotni tahlil qilish;
6. Natijalarni ta‘riflash va ularni ko‘rsatib berish.

Tayyor bo‘lgan geografiya axborot tizimlardagi imkoniyatlardan foydalanish qatori ularni kengaytirishni, yangilarini qo‘shish va tekshirishni ham nazarda tutmoq lozimdir. Shu sohaga o‘z faoliyatini bag‘ishlagan mutaxassis Geografik axborot fanini va qabul qilingan yoki izlanib turgan nazariyalarni va g‘oyalarni batafsil va chuqur o‘rganishi kerak. Geografik axborot asosida turli izlanishlarning huquqiy asoslarini, iqtisodiyotini va axborot himoyasini ham o‘rganish foydalidir.

5.5. MA‘LUMOTLAR BAZASINI KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA YARATISH

Soha mutaxassislarining ta‘kidlashicha asos, dalil, alomat, belgi, axborot, xabar, fakt kabilar informatsiyaning tashkil etuvchilaridir. Ma‘lumotlar avtomatlashtirilgan geoinformatsion tizim (GIS) tarkibida va undan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin.

GIS tarkibida muhitdagi ma‘lumotlar deganda o‘lchash va kuzatish natijalari tushuniladi. Ularning uchta tashkil etuvchisi mavjud: obyektни tasvirlovchi, ta‘riflovchi yoki izohlovchi atributlari (belgilari), predmetning fazoviy o‘rnini belgilovchi geografik ma‘lumotlar; vaqt va zamoni bildiruvchi axborotlar.

Shunday qilib, ma‘lumotlar - bu informatsiyani shakllantiruvchi va uni keltirib

chiqaruvchi “xomashyo” bo‘ladi. Ular informatsiyaning atributlari (tashkil etuvchilari) hisoblanib, fakt, dalil va tushunchalarni aks ettiradi. Boshqacha aytganda ma’lumotlar bu inson ishtirokidagi avtomatik vositalar yordamida ishlab chiqarish uchun yaraydigan (qo‘l keladigan) tarzga keltirilgan informatsiya.

Informatsiya -amaliy ma’lumotlar va ular orasidagi munosabatlar to‘g‘risidagi bilimlar majmui.

Informatika - insoniyat, jamiyatning ma’daniy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatida topish, tanlash, saqlash, uzatish, o‘zgartirish va qo‘llash qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan. U inson tomonidan ishlab chiqarishda va ijtimoiy hayotda foydalaniladigan resurs turlaridan biri hisoblanadi.

Informatsiya uch xil bo‘ladi: qo‘shimcha (yordamchi), vizual (ko‘zga ko‘rinadigan) va aprior (nazariy, tajribada sinalgan).

Birlamchi informatsiya bevosita o‘lchash, tasvirga olish va kuzatish natijasida olinadi. Masalan, havoning harorati, bosimi, namligi, ifloslanganligi to‘g‘risida olingan ma’lumotlar birlamchi informatsiya bo‘ladi. Qayta matematik ishlab chiqilgan informatsiya (suv balansi, issiqlik balansi) ikkilamchi hisoblanadi.

Informatsiya geologik yoki kartografik usullarda aniq bir hudud, joy, landshaftga tirkalgan (bog‘langan) bo‘lishi kerak. Informatsiya to‘planish usuliga qarab nazariy va tajribaviy, nazorat yoki o‘lchash joyiga qarab, joyida o‘lchangan yoki hisoblab topilgan, qo‘llanilgan texnik vositaga qarab - asbob vositasida o‘lchangan, ko‘rib kuzatilgan, tavsifi bo‘yicha, miqdorga va sifatga tegishli bo‘ladi.

5.6. DISTANSION KUZATISH USULLARI

Kuzatish usullarini quyidagicha farqlash qabul qilingan:

1) Bevosita (kontaktli), ya'ni, bu holatda tadqiqotchi bevosita kuzatuv va o‘lchash ishlarini olib boradi.

2) Bilvosita (vositali) - masalan, maxsus datchiklar yordamida fizik ma’lumotlarni olish.

3) Distansion (kontaktsiz) - ayero, kosmik foto-tasvirlar, pozitsion o‘lchovlar.

Kosmosuratlarning xossalari: Kosmosuratlar koinotda uchayotgan kosmik apparatlar orqali olinadigan hujjatdir. Bu apparatlar yer yuzining har xil landshaft sharoitlarini ifodalab beradi.

Kosmosuratlarning hozirgi vaqtda quyidagi xossalarini, ya’ni obyektivligini, obzorligini, integratsiyalanishini, generalizatsiyalanishini, istiqbolliligini, diskretliligini va o‘zgaruvchanligini kiritish mumkin.

Obyektivlik – obyekt tasvirlarining geometrik jihatdan turliligini isbotlovchi

kosmosurat xossasidir.

Bu xossalar fotosuratlarning ko‘rinish qobiliyatiga yuqori darajada o‘xshashligiga, fotosurat spektrallarining to‘g‘ri tanlanganligiga, fotoplyonkalarining sezgirligiga, atmosferaning optik xossasiga, suratlarning masshtabiga va rejimiga, harakatdagi kosmik kemalarning quyoshga nisbatan aylanish sharoitiga bog‘liq.

Obyektivlik – birinchidan kosmosuratlardagi tabiiy obyekt va geologik jarayon tasvirlarning to‘g‘riligini tekshirish, ikkinchidan kelajakda ularni taqqoslash uchun geologik ma’lumotlar hajmlari va xillari bilan to‘liq ta’minlashdir.

Obzornost – (oydinlik) – bir xil tabiiy sharoitda va sistemada suratga tushirish imkoniyati bo‘lgan katta maydonlarning tasvirini bir vaqtning o‘zida analiz qilishni ta’minlovchi kosmosuratlarning asosiy xossasidir. Kosmosuratlarning obzorligi tasvirlarning masshtabiga, tasvir maydoniga, kadrlarning katta-kichikligiga, insonning ko‘ra bilish qobiliyatiga bog‘liq. Baland orbitadan 2000-60000-100000 km dan yomqa qilinganda suratga olish obyektlari - yer yuzasining ko‘ringan hamma qismini o‘z ichiga oladi. O‘rta orbitada 600-2000 km da o‘tkazilgan tasvirning kenglik polosasi ming kvadrat kilometr ga yetadi. Obzorlikning kattalashishiga katta struktura elementlarini (razlomlar, global va regeonal strukturalar va ularning fazodagi o‘zaro munosabatlarining, har xil va bir xil geologik obyektlarini o‘rganishga yordam beradi. Keng obzorlilik fotosuratlarning har xil qismlarining har xil masshtabda ekanligini ko‘rsatadi.

Integratsiya – (bir shaklga keltirish) tasvir balandligining oshishi bilan har xil ikkinchi darajali elementlarni birlashtiruvchi va yagona sistemaga keltiruvchi fotosuratlarning xossasidir.

Integratsiya past balandlikda o‘tkazilganda tasvirlarda aniqlanishi mumkin bo‘lmagan obyektlarning geologik strukturasini mustaqil tabiiy obyektlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarini oydinlashtirish va boshqa geologik jarayonlarni o‘rganadi. Integratsiya darajasi tasvir masshtabiga, fotosuratlarning hal qila bilish darajasiga boq‘liq.

Kichik - kichik obyektlarni bir butun qilib integratsiya qilingan joylardagi elementlarning hal qilish qobiliyati oshadi. Natijada ularda nur va soyalar yangidan taqsimlanadi, obyektlarning optik maydonlari o‘zgaradi.

Natijada katta geologik strukturalarni (plikativ va dizyunktiv) litologik va petrografik tog‘ jinsi birlashmalarini (assotsialarini) tahlil (deshifirovka) qilish sifatini oshiradi. Tajribalar kichik, o‘rta va yirik masshtabli kosmik suratlar shu masshtabli geologik va boshqa xaritalarga nisbatan ko‘proq ma’lumotlar berishini ko‘rsatadi.

Generalizatsiyalanish - obyekt tasvirlarining asosiy mazmunini ifodalovchi

kosmik suratlarning o'ziga xos xossalari.

Obyektlarning generalizatsiyalanishiga tasvirning proyeksiya xossalari masshtab, atmosfera - optik sharoitlari ta'sir qiladi.

Har xil geologik obyekt va landshaft elementlari ma'lum kattalikka va ravshanlikka ega. Kosmik surat masshtabining kichiklashishi va parvozda kema balandligininng oshishi bilan katta - katta geologik obyektlar yaxshi ko'rinib, kichiklari ko'rinmasa, surat masshtabini kattalashtirish kerak.

Generalizatsiyalanish bilan bir vaqtda har xil obyekt tasvirlari orasida yaqqol ko'ringan farqlar ko'payadi.

Istiqbollilik - nurlar tasvirda suvli qatlam va bo'shoq jins qatlamlari tagidagi geologik elementlarni ifodalovchi kosmosuratlarning xossalari. Tajribalar kosmik suratlarning masshtabi va hal qilish qobiliyati qanchalik kichik bo'lsa, spektral va geometrik generalizatsiyasi shuncha yuqori bo'ladi. Natijada chuqurlikdagi strukturalar yaxshi tahlil qilinadi.

Diskretlilik - tabiiy obyektlarni tahlil (deshifirovka) qilishni ta'minlovchi kosmosuratlarning muhim xossasidir.

Obyektlarni bir - biri bilan taqqoslash vaqtincha, spektral va fazoviy diskretlilik imkoniyati bilan aniqlanadi. Vaqtincha diskretlilik vaqti - vaqti bilan o'tkaziladigan takroriy syomkalar vazifasiga kiradi. Bunda o'rganish vositasi asosini televizion sistemalar tashkil qiladi. Spektral diskretlilik esa obyektlarni aniqlashga asoslangan. Yuqori diskretlilikda yomon ifodalanuvchi ma'lumotlar olinadi. Kichik diskretlilikda esa ularning aniqligi kamayadi va spektral belgilar bo'yicha aniqlash imkoni juda pasayadi. Fazoviy diskretlilik joylardagi elementlar miqdorini aniqlashga yordam beradi. Diskretlilik xossalari (fotografiya, televizion, skaner) tasvir sistemasining juda kichik geologik obyektlarni suratga olish qobiliyati bilan aniqlanadi. Kosmosuratlarning hal qilish qobiliyati qo'ydagicha ifodalanadi: fotoapparatlar uchun 10-250 m, skaner sistemalar uchun 80-27000 m, televizion optik sistemalar uchun 80-35000 m atrofida bo'ladi.

O'zgaruvchanlik - o'rganiladigan obyektlarning xarakter va o'zgarish darajasini tasvirlovchi kosmik suratlarning xossasidir. Bu vazifalar obyektlarning kichik zona spektrida ko'p zonali tasvirlarni o'rganish natijasida hal qilinadi. Shu yo'l bilan obyektlarning fizik xususiyatlari aniqlanadi. Bir xil tasvir sistemasida har xil vaqtda tushirilgan kosmik suratlar kompleksi obyektlarning erozin, denudatsin, gravitatsion sel ko'chish, yer qimirlash, mexanik va antropogen jarayonlar o'zgarishini tasvirlaydi. Bu suratlarda landshaftlarning o'zgaruvchanligi elementlarni, havo massalarining harakatini, qor va muz qoplamlarining dinamikasi, vulqonlar faoliyatini, atmosfera va okeanlarning ifloslanishi, yong'in va suv toshqinlarini, buronlarni aniqlash mumkin.

O'zgaruvchanlikni o'rganish hozirgi zamon geologik jarayonlarni va ularning yo'nalishini aniqlashga yordam beradi.

Yer usti usullariga: geologik xaritalash, geokimyoviy, geofizik, mineralogik qidirish usullariga bo'linadi.

O'rganilishi rejalashtirilayotgan maydonlardagi foydali qazilmalar chegaralari va anomalialarini tarqalish qonuniyatlariga qarab qidirish usullari quyidagi usullarga bo'linadi; geologik xaritalash, mineralogik, kimyoviy, geofizik, distansion qidirish usullariga bo'linadi.

Informatsiyaning keng qamrovliligi, aniqligi va ishonchliligi nihoyatda muhim.

Ba'zi bir hollarda birlamchi ma'lumotlar ziddiyatli, ortiqcha bo'ladi va shu sababli noto'g'ri xulosa chiqarishga olib keladi. Hosil bo'lgan ziddiyatlarni yechish va tushuntirish murakkab va ko'p hollarda yechimi yo'q muammo bo'lib qoladi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalar ba'zi bir muammolarning yechimini topish imkonini yaratdi. Unutmaslik kerakki, bu shunchaki bir vosita. Informatsiyadan malakasizlik yoki bilimsizlik tufayli foydalanish jiddiy, ba'zida tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Geografiya fani va uning alohida tarmoqlarining asosiy vazifasi mavjud to'plangan informatsiyani tushunib yetib, turli masalalar yechimini topishda foydalanishdir.

Xilma-xil tematik xarita, ma'lumotnomalar to'plami va atlaslarni yaratish uchun informatsiyani to'plash, ularga berish, tasniflash zarur. Buning uchun zamonaviy informatsion tizimlarni tashkil etuvchi barcha kompyuterlar, informatsiyani kiritish va chiqarishni ta'minlovchi zamonaviy avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Raqamli kartografiya, informatikaning usul va vositalarini, kompyuter grafikasi, distansion aerokosmik vositalar, global sputnikli (yo'ldoshli) navigatsiya tizimlarining rivojlanishi zamonaviy geografik informatsiya tizimlarini yaratish imkonini beradi.

5.7. MICROMINE, GEOSOFT, SURPAC DASTURLARIDA GEOLOGIK MODELLARNI YARATISHNING ASOSIY TURLARI

5.7.1. Geologiyada modellashtirishning turlari

“Model” atamasidan geoinformatikada har xil yo'sinlarda foydalaniladi. Geotizimlarning mavjud obyektlari ularning raqamli va grafikaviy ma'lumotlarni

tahlil qilish va fayllarning formatlari modellar bilan bog'liq masalalar hisoblanadi.

Model ma'lum bir tilda (tabiiy, matematik, algoritmik) yozilgan muayyan bir obyekt yoki voqea haqidagi gipoteza yoki faraz to'g'risidagi insonda shakllangan bilimlar majmuidir. Bu bilimlar hech qachon mutloq bo'lmasligi va farazlar ba'zi bir holatlarni inobatga olmay qolishi sababli borliqdagi model tuzimini taxminan ifodalash mumkin bo'ladi. Ana shu sabablar bartaraf etilsa, model shunchalik o'xshash va qo'yilgan maqsadga muvofiq bo'ladi.

Quyidagi maqsadlarda modellar ishlari amalga oshiriladi:

- tizimning bo'lajak holati yoki o'zgarishini bashoratlash;
- ideal ustida tadqiqot olib borib, olingan natijalarni modellar;
- tizimga qo'llashni talqin etish;
- mutaxassislarni o'qitish va mashq qildirish.

Jamiyat rivojida modellar alohida o'rin tutadi. Kezi kelganda har qanday ilmiy texnik hisoblar (ustuvorlik, mustahkamlik, ishonchlik, xavfsizlik, aniqlik hisoblari) muayyan modellar turlari hisoblanadi.

Modellar tashkil etish sxemasi keltirilgan. Uzluksiz chiziqlar bilan ajratilgan konturdagi unsurlar yoki dasturiy ta'minotni tashkil etuvchilari yoki informatikani o'rganish obyektlari hisoblanadi.

5.7.2. Matematik modellar turlari

Modellar quyidagi afzalliklari tan olingan:

- tejamkorlik (mavjud tizim resurslaridan oqilona foydalanish);
 - gipotezik, ya'ni amalda hali tatbiq etilmagan obyektlarni modellar imkoniyatlari mavjudligi;
 - joyida tiklanmagan xavfli rejimda ishlaydigan obyektlarni ifodalash;
 - vaqt o'lchamini o'zgartirish imkoniyati borligi;
 - umumiy qonuniyatlarni aniqlash tufayli prognoz qilish darajasining kattaligi;
- Tuzilgan modeldan amalda foydalanish uchun u oldin ma'lum bir mezonlar asosida sinovdan o'tkaziladi.

Matematikada modellar quyidagicha tasniflanadi;

- statistik va dinamik;
- diskret va uzluksiz;
- determinatsiyali, stoxastik va noaniq;
- chiziqli va nochiziqli;
- turg'un va noturg'un;

Statistik modellar o'tish jarayonlari tez so'navchi tizimlarga mos bo'lsa, dinamik modellar murakkab matematik formulalarda ifodalanadi. Diskret tizimlar

chekli to'plamlar holatida bo'lishi mumkin va ular diskret vaqt mobaynida o'zgarib boradi.

Uzluksiz tizimlar trayektoriyasiga differensial tenglamalarda o'z ifodasini topadi.

Determinatsiyalashgan tizimlarning yakuniy mahsuli ma'lumotlarni tizimga kiritilish holati bilan belgilanadi.

Sifati unchalik yaxshi aniqlanmagan tizimlar uchun noaniq to'plamlar nazariyasi usullaridan foydalaniladi.

GIS ni ishlab chiqish uchun ma'lumotlar modelini tanlash muammosini yechishga to'g'ri keladi.

Modellashning asosiy turlaridan biri matematik modellar (MM) dir. Obyektning matematik modeli matematik ko'rsatkichlar va ular orasidagi munosabatlarning majmui bolib, obyektning xossa va xususiyatlarini o'ziga o'xshash darajada ifodalaydi. Modellarga qo'yilgan talablarning xilma-xilligi va murakkabligi ularni qoniqtirish uchun kelishtirilgan holda modelni tanlash orqali amalga oshiriladi. Bu holat qo'llaniladigan modellar turini ko'paytirib, adaptiv modellashni rivojlantirishga olib keladi. Masalan, funksional va strukturaviy modellar.

Loyihalash jarayonlarida obyektning ishlatish qonuniyatlarini ifodalovchi modellardan foydalaniladi va bunday modellar funksional modellar deyiladi.

5.7.3. Geologiya sohasida modellashning afzalliklari

Namunaviy funksional model informatsiyani o'zgartirish jarayonini ifodalovchi tenglamalar tizimi hisoblanadi.

Obyektning geometrik shakli, o'lchami va unsurlarning fazoviy joylashishini ifodalovchi modellar strukturaviy modellar deyiladi va ular grafiklar, matritsalar, ro'yxatlar shaklida keltiriladi.

Modellar quyidagicha taqdim etiladi: invariantli, algoritmik, analitik va grafikaviy.

Analitik va algoritmik shakldagi modellarda topilgan yechimining sknli usullari tenglamalarga yoki ularning algoritmlariga oid bo'ladi. Algoritmik modellar ichida imitatsion modellar asosiy o'rin tutadi. Ular informatsion jarayonlarini imitatsiya qilishda eng qulay vosita hisoblanadi. Modellarga, odatda, adekvatlik, universallilik va samaradorlik talablari qo'yiladi.

Model ma'lum bir ma'qul aniqlik bilan obyektning mavjud xossalarini akslantira olsa, adekvat bo'ladi. Obyekt va modelning ko'rsatkichlarining o'xshashlik darajasi uning aniqligini baholaydi.

Modelning universalligi uning tarkibiga kiritilgan informatsiyaning tashqi va ichki parametrlari soni bilan baholanadi. Modelning samaradorligi esa uni amalga oshirish uchun sarf bo'ladigan hisoblash resurslari va EHM xotirasi hajmi bilan aniqlanadi.

Obyektni modellashtirish uchun avval uni unsurlarining modeli qabul qilinadi. Bu jarayon umuman olganda, formatlashmagan jarayon.

Shuning uchun ham unsurlarni modellashtirish mutaxassislar tomonidan eksperimental tadqiqotlar va vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Unsurlarning funksional modellarini tuzish usullari nazariy va eksperimental (tajribaviy) ga bo'linadi. Ko'pincha operatsiyalar evristik tavsifga ega bo'lganligiga qaramay, xilma-xil obyektlarning modellarini yaratishning umumiy tartib va qoidalari mavjud. Shunga binoan modellashtirish usullari quyidagi bosqichlarni nazarda tutadi.

1. Obyektning modelida akslanadigan xossalarni tanlash, ya'ni bo'lajak modelning universallik darajasiga bo'lgan talablar belgilab olinadi.

2. Modellanadigan obyektning xossalari to'g'risidagi aprior informatsiyalar to'planadi.

3. Modelning umumiy ko'rinishdagi matematik tenglamasi aniqlanadi.

4. Model parametrlarining son qiymatlari hisoblanadi.

5. Qabul qilingan modelning aniqligi va adekvatlik chegarasi baholanadi.

6. Modellar bibliotekasidan foydalanish uchun qabul qilingan shaklda model taqdim etiladi.

GIS masalalarini yechish uchun modellashtirish jarayonlari va o'lchamining turlarini tanlash qabul qilingan tartibda amalga oshiriladi.

GISning asosiy funksiyalaridan biri modellashtirishdir. Nazariy tadqiqot usullari aynan modellashtirishga asoslangan.

Geologiyada modellashtirishning quyidagi turlari mavjud:

- kartografiyaga tegishli bo'lmagan modellar. Ular uchun ma'lumotlarni fazoviy tayantirilishi muhim emas;

- obyektlar yoki voqelikning fazoviy holatidan foydalaniladigan modellar.

Birinchi guruh modellarga statistik hisobotlar, fazoviy ma'lumotlar tahlili (variatsion qatorning statistik ko'rsatkichlarini hisoblash). Dispersion va diskriminant tahlil va boshqalar kiradi.

Geologik o'lchash natijalarini korrelyatsion va spektral tahlillari modellashtirish jarayonida keng qo'llanilmoqda.

Murakkab tizimlarni ifodalash uchun imitatsion modellashtirish usullaridan foydalanish yaxshi natija bermoqda. Bunda birinchi bosqichda geoinformatsion tizimning ma'lum holatlari imitatsiyalanadi. Mazkur modellardan ham global

darajada, ham regional maqsadda foydalanilsa bo‘ladi. Masalan, imitatsion model suv havzasining trofik darajasi o‘zgargandagi unga bo‘lgan kritik eng katta yuklamani aniqlashda qo‘l keladi.

Bunday modellar uchun obyektning fazoviy tavsiflari asos qilib olinadi. Lekin bu ma’lumotlarni koordinatalar sistemasi va proyeksiyaga tayantirish shart emas. Ba’zi bir masalalar borki gidroelektrostansiya qurilishi tufayli suv bosgan zonalarning modelini yaratishda qo‘llaniladi, unda model joyga fazoviy tayantirilgan va uning relyefi inobatga olinishi muhim bo‘lib qoladi.

GIS modellarining bloki tarkibida muammo yo‘naltirilgan dasturlar to‘planishi ham mumkin.

Ko‘pincha amaliy masalalarni yechish uchun ma'lum bo‘lgan usullar va modellar tanlab olinadi. Ular bilan ishlashda foydalanuvchi tomonidan ilovalar yaratiladi. Mavjud dasturlar “Inventarizatsiya tahlil-boshqarish” masalalarini yechish imkoniyatini beradi. Lekin, masalalar va ularga mos keladigan modellar ko‘lami shu darajada kattaki, birorta GIS ham ularning barchasini qamrab ololmaydi. Shu sabab zamonaviy GIS larda “boshqa dasturiy muhitga” o‘tish operatsiyasi ko‘zda tutulgan bo‘lib, hisoblash ishlari bitgandan keyin birlamchi dasturga qaytiladi. Matematik kartografik modellar modellashtirishning maxsus sinfini tashkil qiladi.

Xaritalarning tematik mazmunini tuzish va tahlil qilish uchun xaritalarni tuzish foydalanish tizimida matematik va kartografik modellar majmui modellashtirishning maxsus sinfiga kiritilgan.

Ma'lumki, kartografik modellashtirish orqali GIS da ma’lumotlar tahlili qat-qatsimon tarzda olib boriladi. Umuman olganda, ma’lumotlar tahlili GIS modellaridan biri hisoblanib, GIS texnologiyalarning o‘zagini tashkil etadi.

Modellashtirish tufayli GIS da avtomatlashgan tizimlarda ko‘pgina analitik operatsiyalar bajariladi. Jumladan:

- ma’lumotlarni formatdan formatga o‘tkazish, vektorli shakldan rastrali shaklga o‘tkazish;
- proyeksiyalarni transformatsiyalash va boshqa koordinatalar sistemasiga o‘tkazish uchun hisoblar bajarish;
- hisoblash geometriyasi usullarini qo‘llash;
- ustma-ust keltirish;
- analitik va grafoanalitik modellar yaratish;

Ushbu analitik operatsiyalarni bajarish tufayli geoinformatsion tizimlarning muhim vazifasi hisoblangan ijro uchun qarorlar qabul qilish, prognozlash va rejalashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Geoinformatsion tizimlarda joyni raqamli modellashtirish va uning relyefini

tahlil etish ko'zda tutilgan. Bunday vazifa IDRISI geoinformatsion tizimlarda mavjud.

Umuman olganda, GIS da fazoviy ma'lumotlarni tashkil etish modellariga e'tibor oshib bormoqda. Geoinformatika deganda geotizimlarning raqamli informatsion modellarini tuzish va tadqiq etish tushuniladi.

Geoinformatsion usullar esa tadqiqot predmeti vositasi sifatida qaralayotgan modellar, ma'lumot modellari va muayyan obyekt modellarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Muayyan fazoviy obyektlarning xossalari va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan fazoviy informatsion modellarning tasnifini quyidagi iyerarxik tuzilma (struktura) ko'rinishida taqdim etish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- voqelikni ifodalovchi konseptual modellar;
- fazoviy obyektlar modellari;
- fazoviy ma'lumotlar modellari;
- ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining modeli;
- geofazoviy modellar.

Voqelikning xilma-xil xossalari asoslangan va uni interpretatsiya va tahlili uchun zarur bo'lgan fazoviy informatsiyani taqdim etishning 3 ta konseptual modeli iyerarxik tasnifning eng yuqori bosqichini belgilab beradi:

Fazoviy informatsiyalarning konseptual modellari.

- obyektning oriyentatsiyalangan modeli;
- chiziqlar va tugun nuqtalar yoki to'r ko'rinishidagi modellar;
- geografik maydon ko'rinishidagi modellar.

Bu modellar geotizimlarni tadqiq etish va geografik informatsiyani vizuallashtirishda qo'llaniladigan geografik modellar bilan yaxshi chiqishadi. Obyektning oriyentatsiyalangan modeli voqelikni modellashtirish uchun juda mos keladi va hodisaning individualligini ko'rsatadi. Obyektning shakli va o'lchamlari ularning tematik interpretatsiyasi va qabul qilingan masshtab bilan belgilanadi. Obyektlarning chegaralari ularni semantik tavsiflarining almashuvini belgilaydi, ammo o'rnini aniqlashda muammo paydo bo'lishi mumkin.

To'r shaklidagi modellar transport suv oqimlarini taqdim etish va o'rganish hamda ularni optimallashtirishda qo'l keladi. Model fazoviy obyektlar va jarayonlarni geometrik o'zaro bog'langan to'rlar shaklida ko'rsatadi va ularning tahlili uchun topologik aloqalar yanada aniqroq tasvirlanishi talab etiladi.

Geografik maydonlar modeli mavjud va uzluksiz geografik taqsimotlarni tadqiq etish va ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Darhaqiqat, ba'zi bir geografik ma'lumotlar uzluksiz o'zgarib boradi (yer yuzasining balandligi, havoning bosimi, harorati). Bunday modellar yaxlit tutash tarzida tarqalgan obyektlar va hodisalarni

taqdim etish imkoniyatini beradi. Lekin, ular olingan o'lchovlarning diskrepligi va semantik ko'rsatkichlarini interpolyatsiyalash usulini tanlashga bog'liq bo'ladi.

O'zgaruvchanlikning uzluksizligini ko'rsatish uchun har xil usullardan foydalaniladi.

Masalan:

- alohida nuqtalarda o'lchangan parametrlarni interpolyatsiyalash;
- profil chiziqlari va izochiziqlarni chizish;
- to'r shaklidagi raqamli modellarni qurish.

Xulosa qilib aytganda, fazoviy informatsiyalarning konseptual modellarini tanlash obyektining tasnifi bilan bog'liq. Masalan, transport masalasi bilan bog'liq tabiiy resurslarni ifodalashda har xil modellarga murojaat qilinadi.

5.8. MICROMINE, GEOSOFT, SURPAC DASTURLARIDA GEOLOGIK UCH O'LCHOVLI (3D) MODELLAR YARATISH

5.8.1. Uch (3D) o'lchovli modellar haqida umumiy ma'lumotlar

Geoinformatsion tizimlarning ko'rilgan modellarida, asosan ikki o'lchamli ma'lumotlar qo'llanildi. Ma'lumotlarga qaraganda ba'zi bir GIS lar 2,5 o'lchamli fazoda faoliyat yuritadi. Bunda Z belgisi relyefning raqamli modeli orqali nuqtaga (X, Y) atributiv (aniq bir belgi) sifatida tayantirilgan holda uchinchi o'lcham sifatida qo'llanilgan.

Hozirgi kunda integratsiyalashgan mavjud informatsion muhit uchun to'liq uch o'lchovli ma'lumotlarga o'tish amalga oshirilmoqda. Hatto vaqt parametrlarini hisobga olgan holda ko'p o'lchovli operatsiyalarni bajarish ham mumkin bo'lib qoldi. Atrof borliqni o'ziday qilib tasvirlashga bo'lgan zarurat uch o'lchovli modellashga o'tishni taqozo etmoqda.

Sirtlarning hajmiy-fazoviy modelini yaratishda ikkita bir-biriga prinsip jihatdan o'xshash bo'lmagan yondashuv mavjud.

Relyefning qiymati berilgan nuqtalar orasida rastralanmagan uchburchaklar tarmog'i asosida (TIN-modellar) sirtning hajmli tasviri yaratiladi. Bu asosan geodezik triangulyatsiya tarmog'ini eslatadi. Ana shu prinsiplikka asosan 3D Analyst dasturi yaratilgan TIN uchburchaklarning rostlanmagan (tartibga keltirilmagan) tarmog'i.

Model yaratilishi kerak bo'lgan topografik sirtning o'lchami to'g'ri burchakli gridlar to'rlarga bo'linib, to'rning har bir ko'zi- yacheykalarga balandlik qiymati beriladi. Bu qiymat interpolyatsiyalashning biror-bir usulidan foydalangan holda aniqlanadi. Ana shu prinsiplikka asosida dasturlar ishlab chiqilgan.

Dasturlar bilan ishlaganda vizuallash - EHM protsessori ekranida tasvirni ko‘rish va nazorat qilish uchun dasturlardan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Ko‘rinib turibdiki, ko‘pgina GISlar uchun 3D modellar moslashmagan. Shu sababli Yer sirti va unda joylashgan uch o‘lchovli obyektlar modellari alohida shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Xaritalar tuzish uchun qo‘llaniladigan talaygina matematik kartografik modellar usullari ishlab chiqilgan. Ammo keng tarqalgan GIS paketlarning ko‘pchiligida murakkab geografik masalalarning fazoviy-analitik vositalari to‘plami yetarlicha emas. Faqat ularning ba’zi birlariga maxsus qo‘shimcha modullar kiritilgan bo‘lib, ular asosiy GIS paketlardan alohida qo‘llaniladi.

3D xaritalar uch o‘lchovli modellarining yaqqol namunasi. Bunday xaritalar GIS natijalarini fazoviy-hajmiy shaklda taqdim etishda juda samarali hisoblanadi. Xaritaning sifati birinchi navbatda relyefning raqamli modelining siyraksizlanish darajasiga bog‘liq, chunki uch o‘lchovli modellarini amalga oshirish uchun yer relyefi sirtining va undagi obyektlarning modellari yaratiladi. Faqat modellarini bu tartibda bajarishda ikkita muhim masalaning yechimini topish kerak bo‘ladi:

1. Obyektlar geometriyasini konstruksiyalash;
2. Obyektlar teksturasini (tarkibiy qismlarining joylashgan tartibini) modellashtirish.

Joy modelining geometriyasini yer sirti raqamli modeli tuzilgan koordinatalar sistemasini belgilab beradi. Mahalliy to‘g‘ri burchakli koordinatalar sistemasini tanlash joy va undagi obyektlar modellari (tasvirlarini) ustma-ust keltirish (moslashtirish)ni osonlashtiradi. Joy obyektlari ustma-ust joylashtirilgan yer sirti modelini kosmik va aerofotosuratlardan tayyorlangan ortofoto - tasvir asosida yaratish mumkin. Buning uchun relyefning raqamli modeli tuzilgan sirtga ortofototasvir “kiydirilishi” kerak.

Bu jarayon relyefning raqamli modelini joyning ortofototasviri bilan teksturalash deyiladi.

Aero va kosmik suratlarni mahalliy koordinatalar sistemasiga o‘tkazish relyefni raqamli modeli va joy elektron xaritasi negizida ularni ortofototransformatsiyalash jarayonida amalga oshiriladi. Shuningdek, suratdagi belgili nuqtalarning (pozitsion zondlash) o‘lchovlarini qo‘llab, aniqlangan koordinatalaridan ham foydalanish mumkin.

Bunday uch o‘lchovli modellar quyidagi imkoniyatlarga ega:

- Hududning fotorealistik tasvirini yaratish va model bo‘ylab virtual harakatlanishi (virtual qo‘yilgan informatsiya yaratish).

- Shahar landshafti ma’lumotlarini tahlil qilish va modellarini imkoniyatini baholash, binolar va boshqa obyektlarning modellariga o‘zgartirishlar kiritish, uch

o'lovli ma'lumotlarni jalb qilish orqali tematik xarita qatlamlari bilan xilma-xil kombinatsiyalarni amalga oshirish.

Istiqbolli uch o'lovli topologik GIS ma'lumotlar va modellarni taqdim etish usullarini tadqiq etish hamda ularni loyihalashning avtomatik tizimlari loyihalari bilan moslash.

Shahar fotorealistik modelining tashkil etuvchilaridan biri joy obyektlarining 3D modellarini geometrik obyektlari to'g'risidagi informatsiyalar 2D modeli xaritalar, aero va fotogrammetrik suratlar hamda joylardagi o'lchashlar natijalari bo'yicha shakllantiriladi. Shaharlarning 3D modelini yaratishda fotorealistik teksturalardan foydalanish samarali omil hisoblanadi. Ularni qo'llashning quyidagi ikkita afzalligi bor:

1. 3D modellarda qo'llaniladigan fotorealistik teksturalash atrof muhitni mavjud borliqqa o'xshash bo'lgan tasvirini yaratish imkonini beradi.

2. Teksturalash geometrik modelda mavjud bo'lmagan informatsiyani o'zida mujassamlab, tasvirlanayotgan sirtlarning detallari va yaratilgan materiallari haqidagi ma'lumotlarni bera oladi.

Ko'rilgan usul nafaqat rekonstruksiya qilingan sirt, balki har bir sirti mavjud bo'lgan obyekt bilan aniq amallar (o'zgartirish, tahrir qilish, o'chirish, atributiv informatsiyani tirkab qo'yish) bajarishni ta'minlaydi.

5.8.2. Fazoviy obyektlarning modellari

Tahlil natijalarini yaxshi o'ylangan interpretatsiyalash (talqin etish) uchun zarur bo'lgan geografik informatsiyani to'plash va aniqlashda fazoviy obyektlar modellari mavjud obyektlarni ifodalash uchun asosiy abstraksiya (fikran tasavvurda) deb tushuniladi.

Borliqdagi obyektlarning modellarini qurish (raqamlar vositasida ifodalash) bu mavjud geografik har xillikni diskret obyektlar to'plamiga aylantirish (diskreptizatsiyalash) hisoblanadi.

Diskreptizatsiyalash usullari va fazoviy ma'lumotlarni ifodalash xaritalarda obyektlarning fazoviy lokalizatsiyasini tasvirlash uchun qabul qilingan.

Fazoviy obyektlarni raqamlar vositasida ifodalash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- obyektning nomlanishi (identifikatsiyalash);
- obyektning joyini ko'rsatish va ta'riflash (lokalizatsiya);
- xossalarning miqdor ko'rsatkichi va sifat ko'rsatkichlarini belgilab chiqish;
- obyektning atrofdagi boshqa obyektlar bilan fazoviy joylashishini baholash.

GIS da mavjud borliqdagi obyekt turlarini raqamlar vositasida ifodalash bu

fazodagi obyekt va jarayonlarning joylashishini identifikatsiyalashning formal konstruksiyalari bo'lib, ularga mos keladiganlarini aniqlashni tanlaydi, ya'ni ma'lumotlar bazasida ifodalanadigan obyekt bu informatsion modellash uchun unsurlarni tanlashda hodisalar qatoridagi eng oxirgi unsur bo'ladi. Demak, ma'lumotlar bazasidagi obyekt mavjud yoki uning biror-bir qismini raqamlardagi ifodasidir. Asosiy formal modellar fazoviy kabi tushunchalarga asoslangan: nuqta, chiziq, poligon, hajmli shakl, yacheyka (to'rt ko'zi).

Yuqorida qayd etilgan modellash usullari taqribiy hisoblanadi, chunki ularda mavjud holat va o'zgarishlar o'zining aniq ifodasini topmaydi. Shunga qaramasdan, tuzilgan model fazoviy obyektlar bilan xuddi raqamli informatsiyalar to'plami kabi ishlashni davom ettirish imkoniyatini beradi.

5.8.3. Fazoviy ma'lumotlar modellari

Har qanday GIS ning ma'lumotlar bazasi fazoviy ma'lumotlar modeli deb nomlanuvchi fazoviy ma'lumotlarning raqamlar ifodasidan iborat. Shunday modellar mavjud obyektlarni raqamlar tarzidagi formallashgan ifodasining mantiqiy qoidalarini akslantiradi.

An'ana bo'yicha fazoviy ma'lumotlarning tayanch modellarini alohida ajratiladi:

- vektorli modellar. Ular topologik vektorli va notopologik vektorli modellarga bo'linadi; - rastrali modellar;

- regulyar - yacheykali modellar (rastrli modellarga o'xshash modellar);

- kvadratmik modellar.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari modellari. Fazoviy obyektlarning format modellarini ma'lumotlar bazasining tarkibiy tuzilishini va uni kompyuterda boshqarishning dasturiy modelini belgilab beradi, qabul qilingan qoidalarga binoan GIS faylda ma'lumotlar bazasini boshqarishning mavjud kompyuterlashtirilgan tizimlari asosida quriladi.

Iofazalar modellari har bir tuzilayotgan GIS yoki xarita uchun asos hisoblanadi va yerdagi obyektlar va jarayonlarning o'zaro aloqasi, o'zaro harakati va fazoviy joylashishini tushuntirish. Tahlil qilish va ifodalash uchun qo'llaniladi GISning asosiy maqsadi bo'lmish fazoviy tahlil va fazoviy modellash har hil usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Odatda, GISni qo'llash natijasining mahsuli bo'lmish xarita geotizimini modellashtirish va tasvirlash vositasi hisoblanadi. Biroq kartalardagi qatlamlar bilan kompyuterda interaktiv ishlanganda xaritada yaqqol mavjud bo'lmagan yangi informatsiya yaratilishi mumkin.

GIS ma'lumotlar bazasida taqdim etilgan ma'lumotlarni jamlab, matematik qonuniyatlar yordamida hududdagi ba'zi bir jarayonlari modellashtirishni bajarish imkoniyatini beradi. Giperfazoviy modellashtirish usullari ko'p parametrlilikni tasniflash, abstrakt yuzalari tasvirlash, ma'lumotlari interpolatsiya va ekstrapolyatsiyalash, jarayonlarni eksperimental, prognoz va yechimlar qabul qilish modellarini yaratish ishlarini o'zida mujassam etgan. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari interpolatsiyani noan'anaviy usullarda taqdim etishdan foydalangan holda (virtual va multimedialik ko'rinishlarda) dinamik modellarini tuzish imkoniyatini beradi. Ularning obyektlari, hodisalar, belgilari o'rtasidagi boq'liqlik har hil vositalar bilan ifodalangan (matn, mavzu, grafika yoki video ketma-ketliklar) o'xshash aloqa turlarini birlashtirishga sharoit yaratadi. Shunday qilib, uch o'lchovli modellashtirish jarayonining tahlilidan ma'lum bo'ldiki, sifatli va ishonchli ma'lumotlarni 3D modellashtirish uchun to'plash, qayta ishlash va qo'llashning texnik jihatlari ham uzoq vaqtlar muammoli masala bo'lib qolaveradi 3D modellashtirish uchun zarur bo'lgan apparaturalar ishlab chiqilgan va ular kun sayin takomillashmoqda. Hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy dolzarb masala bu xilma-xil ma'lumotlar 3D modellarini tuzishning avtomatlashtirilgan texnologiyalarini ishlab chiqishdir.

6-BO'LIM

6.1. GEOLOGIYA QIDIRUV ISHLARIDA QUDUQLARNI BURG'ILASH TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALARI

Burg'ilash qudug'i deb yer ostidagi silindrik shakldagi ko'ndalang kesimi o'lchoviga nisbatan katta uzunlikka ega bo'lgan tog' lahimiga aytiladi. Quduqning ustki qismi - ustye, tubi - zaboy va uning yon tomonlari - devorlari deb ataladi. (28 - rasm). Quduqlarni xarakterlovchi asosiy elementlar - uning diametri, chuqurligi va yo'nalishi. Quduqning diametri jinslarni parchalovchi asbob diametri bilan aniqlanadi. Zaboydan quduq ustiga bo'lgan masofa - uning chuqurligi deyiladi. Burg'ilash quduqlarining chuqurligi bir necha metrdan bir necha kilometrgacha o'zgaradi. Burg'ilash quduqlarining diametrlari 26 dan 1000 mm. gacha o'zgaradi.

Kichik diametrdagi 26-15 mm. quduqlar qattiq foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish uchun burg'ilanadi.

Qattiq foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilishdagi quduqlarning chuqurligi mamlakatimizda 3000 - 3500 metrni (AO -1 va AO-2) tashkil etadi.

Quduqning joylashish o'rni yer ustida daryo, ko'l, dengiz ustida va yerosti tog' lahmlarida bo'lishi mumkin.


6.1.1. Quduqlarning yer ostidagi holati

Quduqlar turli yo'nalishda burg'ilanishi mumkin: vertikal, gorizontal, og'ma va yerosti lahimlaridan - vosstayushiy, ya'ni pastdan yuqori tomon. Quduqning yerostidagi holati zenit Θ va azimut α burchaklari bilan aniqlanadi (29 - rasm).

Zenit burchagi deb vertikal tekislik bilan quduq o'qidagi nuqtadan o'tkazilgan urinma orasidagi burchakka aytiladi va Θ harfi bilan belgilanadi. Amaliyotda ko'proq quduqlarning og'ish burchagi ishlatiladi.


Og'ish burchagi deb gorizontal tekislik bilan quduq o'qidagi nuqtadan o'tkazilgan urinma orasidagi burchakka aytiladi va η harfi bilan belgilanadi.

Azimut burchagi deb quduq o'qidagi istalgan nuqtaning gorizontal tekislikdagi proyeksiyasi bilan shu nuqtadan o'tkazilgan biror yo'nalish (shimol yo'nalishi) orasidagi soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha o'lchanadigan burchakka aytiladi va α harfi bilan belgilanadi.



28 - rasm. Burg'lash quduq'i elementlari:

a va b - kernsiz va kolonkaviy burg'lash; v- quduq elementlari: 1- ustye; 2 - quduq devori; 3-zaboy; 4-kern; 5-obsadka quvuri bilan mustahkamlangan quduq devori; L- quduq uzunligi; D, D1, D2, D3, - quduq stvoli diametrlari.



29 - rasm. Yer ostidagi quduqning holati:

1- ustye; 2 - quduq; 3 - zaboy.

Burg'lash quduqlari ishlatilish maqsadiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

1) geologiya qidiruv - foydali qazilmalarni qidirish uchun, ular qatoriga qidiruv - suratga oluvchi, razvedkaviy, strukturaviy, tayanchli, kartirovkali, injener - geologik, gidrogeologik va namunaviy quduqlar kiradi;

2) ekspluatatsion - suyuq, gazsimon foydali qazilmalar va mineral tuzlarni ochish va yuqoriga chiqarish uchun;

3) texnik - turli injener - texnik maqsadlar uchun burg'ilanadi, misol uchun - portlatish quduqlarini burg'ilash uchun.

Quduqlarni burg'ilash quyidagi asosiy ishchi jarayonlar va yordamchi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

- 1) quduq zaboyida tog' jinslarini parchalash;
- 2) zaboydan parchalangan jinslarni olib tashlash va ularni yuqoriga chiqarish;
- 3) mustahkam bo'lmagan quduq devorlarini mahkamlash;
- 4) ishdan chiqqan jinslarni parchalovchi asboblarni almashtirish va jinslar namunasini olish uchun ko'tarib - tushirish operatsiyasini bajarish.

Burg'ilashda tog' jinslarini mexanik va fizik usullar bilan parchalash mumkin. Hozirgi paytda turli jinslarni parchalovchi asboblarni yordamida quduqlar burg'ilanmoqda.

Parchalangan jinslarni zaboydan olib tashlash va uni yuqoriga ko'tarib - burg'ilash uchun zaruriy jarayon hisoblanadi.

Parchalangan jinslarni zaboydan olib tashlashning quyidagi usullari mavjud:

1) gidravlik usul - bunda jinslar zarrachasi yuvish suyuqligi oqimi bilan chiqarib tashlanadi (suv, gil eritmasi, neft asosidagi mahsus yuvish suyuqligi, polimer eritmalar va boshqalar);

2) pnevmatik usul - bunda parchalangan jinslar qisilgan havo yoki gaz oqimi bilan chiqarib tashlanadi;

3) mexanik usul - parchalangan jinslar burg'ilash yoki maxsus asboblarni (burg'i stakani, qoshiqli yoki spiralli burg'i, shnek, jelyonka) yordamida yuqoriga chiqarib tashlanadi.

Mustahkam bo'lmagan jinslarni burg'ilashda quduq devorlari qulab tushishining oldini olishning quyidagi yo'llari mavjud:

- 1) quduqqa to'ldirilgan yuvish suyuqligining gidrostatik bosimi hisobiga;
- 2) gil eritmasi bilan burg'ilashda quduq devorlarida zich gil qatlamini hosil qilish;
- 3) quduq ichiga obsadka quvurlari kolonnasini tushirish.

Quduqlar kompleks burg'ilash va energetik uskunalarni hamda yerusti inshootlariga ega bo'lgan quduqlarni burg'ilash uchun ko'zda tutilgan burg'ilash qurilmalari bilan burg'ilanadi.

Burg'ilash qurilmalari tarkibiga burg'ilash agregati, burg'ilash binosi ichiga joylashtiriladigan va burg'ilash vishkasi kiradi. Burg'ilash agregati tarkibiga esa burg'ilash stanogi, burg'ilash nasosi va ularning kuch uzatmalari hamda burg'ilash jarayonini nazorat va idora qilish uchun apparaturalar kiradi.

Transportabelligi bo'yicha burg'ilash urilmalari statsionar, ko'chma o'ziyurar va olib yuriladiganlarga bo'linadi.

Geologiya - qidiruv quduqlarini bunyod etish deganda quyidagi kompleks ishlar nazarda tutiladi:

- 1) burg'ilashga tayyorgarlik ishlari;
- 2) burg'ilashning o'zi;
- 3) quduq stvolining mustahkamligini ta'minlash, unda zarur bo'ladigan tadqiqotlarni o'tkazish va quduqlarni yopish.

6.1.2. Burg'ilash quduqlarining klassifikatsiyasi

Regional tadqiqot, qidiruv, razvedka va konlarni izlash, injener texnik masalalarni yechish va yordamchi maqsadlarni hal qilish uchun burg'ilanadigan barcha quduqlar quyidagi kategoriya va guruhlarga bo'linadi.

Geologo-qidiruv quduqlari tayanchli, parametrik, struktura kartirovkali, qidiruv va razvedkaviy quduqlarga bo'linadi.

Tayanchli quduqlar yirik geostrukturali regionlarning geologik tuzilishini va gidrogeologik shartlarini o'rganish uchun burg'ilanadi. Shu quduq natijalariga ko'ra geologo - qidiruv ishlarining yirik istiqbolli yo'nalishlari tanlanadi.

Parametrik quduqlar tog' jinslarining tabiiy yotish sharoitlaridagi geofizik xususiyatlari parametrlarini va haroratini o'lchash uchun burg'ilanadi.

Struktura - kartirovkali quduqlar geologik strukturalarni, tog' jinslari qatlamlari yotish elementlarini o'rganish va aniqlash uchun hamda geologik va geofizik suratga tushirish ma'lumotlarini tekshirish va ularga aniqlik kiritish uchun burg'ilanadi.

Qidiruv quduqlari foydali qazilma konlarini ochish uchun burg'ilanadi.

Razvedkaviy quduqlar foydali qazilma konlarini chegaralash va foydali qazilmalar zaxiralarini aniqlash, tog' - texnik sharoitlarini tiklash va ularni ekspluatatsiya qilish uslubini tanlash uchun burg'ilanadi.

Ekspluatatsion quduqlar - neft va gazlarni, yer osti suvlari, tarkibida brom, yod tuzlari va komponentlari bor sho'r suvlarni olish uchun; ko'mirlarni yer ostida gazga aylantirish, oltingugurt va ozakeritlarni eritib chiqarish uchun; temir, margenes, fosforit, mis va uran tuzlarini ishqorlash yo'li bilan olish, oltingugurtni yer ostida kuydirish, ko'mir va fosforlarni quduq orqali suyuqliklar yordamida chiqarish (gidrodobicha), yer osti haroratidan foydalanish uchun burg'ilanadi. Olinayotgan foydali qazilma turiga qarab ekspluatatsion quduqlar neft, gaz, gidrogeologik, geotexnologik kabi quduqlarga bo'linadi.

Texnik quduqlar turli texnik maqsadlardagi masalalarni hal qilish uchun burg‘ilanadi. Texnik quduqlarga quyidagilar kiradi:

- portlash quduqlari - tog‘ jinslari va foydali qazilmalarni massivdan ajratish maqsadida portlovchi moddalar zaryadini joylash uchun burg‘ilanadi.

- seysmik quduqlar - seysmorazvedkada yer osti portlashi hosil qilish uchun burg‘ilanadi.

- burg‘ilash yo‘li bilan hosil qilinadigan shurf va shaxta stvollari;

- qurilishlarda darzlangan tog‘ jinslariga sement eritmasini, turli smolalar, suyuq shisha va boshqa mahkamlovchi moddalarni haydash yo‘li bilan gruntlarni mustahkamlovchi quduqlar;

- tog‘ lahimlarini qazishda suvli jinslarni muzlatishga mo‘ljallangan quduqlar;

- yordamchi quduqlar sanoat chiqindi suvlarini chiqarib tashlash, shamollatish (ventilyatsiya), elektr shaxobchalarini o‘tkazish, qisilgan havolarni keltirish, mahkamlash ashyolarini tushirish, ochiq gaz fontanlarini bartaraf etish, yer osti yong‘inlarini o‘chirish va boshqalar uchun burg‘ilanadi;

- qatlamlardagi neftlarni to‘la chiqarish uchun unga suv, havo yoki neft gazlarini haydovchi quduqlar;

- suv sathini pasaytiruvchi quduqlar - drenaj, ya'ni karyerlar, konlar va shudgor qilinadigan yerlarni yer osti suvi sathini pasaytirish yo‘li bilan quritadigan quduqlar;

- kuzatuv quduqlari suv sathining o‘zgarishini sistematik nazorat qilish yoki neft qatlamlarini ekspluatatsiya qilishda suyuqlik yoki gazlarning bosimi o‘zgarishini nazorat qilish uchun xizmat qiladi;

- qatlam ichki quduqlarni degazatsiya qilish va ko‘mir changini bosish uchun burg‘ilanadi.

6.1.3. Quduqlarni burg‘ilash jarayoni sxemasi va mohiyati

“Burg‘ilash” va “quduqlarni bunyod etish” kabi tushunchalar mavjud. Burg‘ilash deganda quyidagi kompleks operatsiyalarga aytiladi, ularni bajarish natijasida burg‘ilash qudug‘i hosil qilinadi. Burg‘ilash jarayoni quyidagi jarayonlardan tashkil topadi:

1. Zaboyda tog‘ jinslarini parchalash;

2. Parchalangan tog‘ jinslari (shlam)ni zaboydan tashqariga chiqarish;

3. Mustahkam bo‘lmagan tog‘ jinslarida quduq devorlarini mustahkamlash. Tog‘ jinslarini mexanik, elektrik, termik, portlash, kimyoviy va boshqa usullar bilan parchalash mumkin. Odatda burg‘ilashning mexanik usulida turli tog‘ jinslarini parchalovchi asboblardan foydalaniladi. Bunda statik va dinamik kuchlar

ta'sirida tog' jinslarini parchalovchi asbob jinslarni siqadi, bosadi, kesadi, maydalaydi, sindiradi, ishqalaydi va zichlaydi.

Parchalangan tog' jinslarini tashqariga chiqarishning quyidagi usullari mavjud:

1. Gidravlik usulda tog' jinslari zarrachalari suyuqlik oqimi yordamida yer yuzasiga ko'tariladi. (suv, gil eritmasi neft asosida tayyorlangan maxsus yuvish suyuqliklari, polimer va boshqalar);

2. Pnevmatik - usulda parchalangan mahsulot qisilgan havo yoki gaz yordamida tashqariga chiqariladi.

3. Mexanik - bunda burg'ilash usuliga qarab, burg'ilash yoki maxsus asboblardan (burg'ilash stakani, qoshiqli yoki burama burg'i, shnek, kolonka) yordamida parchalangan jinslar tashqariga chiqariladi.

4. Kombinatsiyali - bu usulda yuqorida keltirilgan usullardan ikki yoki uchta bir vaqtning o'zida yoki navbatma - navbat ishlatiladi.

Mustahkam bo'lmagan tog' jinslarida quduq devorlari aksariyat hollarda suvovchi suyuqliklar bilan (gil, polimer eritmalari) hamda sement va tarkibida sementi bor ashyolar, sun'iy smolalar va boshqalar bilan mustahkamlanadi. Quduq devorlari uzoq muddatga mustahkamlash uchun asosan obsadka quvurlari ishlatiladi. Obsadka quvurlari sifatida po'lat quvurlardan tashqari zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan, cho'yandan, asbotsementdan, plastmassa va boshqa materiallardan tayyorlangan quvurlar ishlatilishi mumkin.

Quduqlarni bunyod etish deganda quyidagi kompleks ishlar nazarda tutiladi: tayyorgarlik, burg'ilash, quduqlarning mustahkam holatini saqlash, quduqda zarur tadqiqot ishlarini o'tkazish, quduqlarni yopish yoki ularni ekspluatatsiyaga topshirish.

Quduqlarni bunyod etishda burg'ilashdan tashqari quyidagi turdagi ishlarni bajarish ko'zda tutiladi:

- burg'ilash qurilmasini montaj qilish;
- quduqlarda kuzatish va tadqiqot ishlari - karotaj;
- quduqlarning qiyalanishi va suyuqlik sathini aniqlash;
- suv namunalarini olish;
- otkachka yordamida suyuqlik miqdorini aniqlash;
- suvli va suyuqlik beriladigan qatlamlarni bir-biridan ajratish maqsadida quduqlarni tamponaj qilish;
- gidrogeologik quduqlarga filtr va suv ko'tarish inshootlarini o'rnatish;
- quduqda sodir bo'ladigan avariylarni bartaraf etish va oldini olish; obsadka quvurlarini chiqarib olish va quduqlarni yopish;
- burg'ilash uskunalari demontaj qilish va tuproqda rekultivatsiya ishlarini olib borish.

Yuqorida keltirilgan ishlar burg‘ilash, montajchilar, karotajchilar, gidrogeologik va boshqa brigadalar tomonidan bajariladi.

6.1.4. Burg‘ilash usullari klassifikatsiyasi

Quduqlarni bir - birlaridan o‘zining fizik mohiyati bilan tubdan farq qiladigan usullar bilan burg‘ilash mumkin. Ular jumlasiga burg‘ilashning mexanik, fizik va kimyoviy usullari kiradi.

Burg‘ilashning mexanik usuli keng tarqalgan bo‘lib, parchalanayotgan jinslarga bo‘lgan ta’siriga qarab bu usul quyidagilarga bo‘linadi; aylanma, zarbali va zarba - aylanma.

Bu usullardan eng keng tarqalgani aylanma burg‘ilash bo‘lib, bunda jinslarni parchalovchi asbobga aylanma harakat maxsus mexanizm - shpindel yoki rotor yordamida burg‘ilash quvurlari kolonnasi yoki zaboy dvigatellari (gidravlik yoki elektr) orqali uzatiladi. Shuning uchun ham burg‘ilashni shpindelli, rotorli va zaboy dvigatelli - turbobur va eletrobur turlarini ajratish mumkin.

Yuqorida keltirilgan burg‘ilashning barcha usullarida tog‘ jinslarining istalgan qattiqligida zaboyni yoppa yoki halqa bo‘ylab, quduq o‘rtasida yaxlit namuna - kern hosil qilgan holda burg‘ilash mumkin.

Birinchi usul kernsiz burg‘ilash deb atalib, ekspluatatsion va texnik quduqlarni burg‘ilashda keng qo‘llaniladi. Ikkinchi usul kolonkali deb ataladi va foydali qazilma konlarini izlashda va razvedka qilishda ishlatiladi.

Zaboyda hosil bo‘lgan kernni yuqoriga ko‘tarish usuliga qarab, kolonkali burg‘ilashda olinadigan kern qabul qiluvchi va suyuqlik oqimi yordamida kernni ko‘taruvchi (gidrotransport) kabilarga bo‘linadi. Birinchi holda kern ingichka po‘lat kanat bilan kern qabul qilgich ichida silliq stvolli burg‘ilash quvurlari kolonnasi ichidan yuqoriga ko‘tariladi. Ikkinchi holat esa, kern ikkilamchi kolonka quvurlari ichki quvuri ichidan suyuqlik oqimi yordamida yuqoriga ko‘tariladi. Aylanmali burg‘ilash zaboyli suyuqlik yoki siqilgan havo bilan tozalash yo‘li orqali olib boriladi.

Chuqur bo‘lmagan quduqlarni yumshoq tog‘ jinslarida burg‘ilashda burg‘ilashning aylanma shnekli va burg‘ilash qoshiqchalari va spiral burg‘ilar yordamida suyuqlisiz burg‘ilash turlari ishlatiladi.

Zarbali burg‘ilash sochma konlarni razvedka qilishda, gidrogeologik va katta diametrdagi turli maqsaddagi texnik quduqlarni burg‘ilashda ishlatiladi.

Bu usulning mohiyati quyidagicha: og‘ir - zarba snaryadi dolotosi ta’siri ostida davriy ravishda kanat yordamida ma’lum balandlikdan zaboyga tashlanadi. Natijada tog‘ jinslari maydalanadi va parchalanadi. Har bir zarbadan so‘ng snaryad

kanatning aylanishi hisobiga ma'lum bir burchakka buriladi. Parchalangan tog' jinslari jelonkalar yordamida chiqarib tashlanadi.

Burg'ilashning zarba - aylanma usulida o'zgarmas og'irlik kuchi ostidagi aylanayotgan jinslarni parchalovchi asbobning barcha turlariga tez-tez zarbalar berilib turiladi. Burg'ilashning bu usulida maxsus zaboy mexanizmlari - gidrourg'ichlar, pnevmourg'ichlar, magnitostrikatorlar va zaboy vibratorlari ishlatiladi.

Tebranma burg'ilash usuli yumshoq tog' jinslarida uncha chuqur bo'lmagan quduqlarni burg'ilash uchun ishlatiladi.

Tog' jinslarini parchalashning fizik usullaridan amalda termik, termomexanik, eletrotermik va gidravlik usullari qo'llaniladi.

Tog' jinslarini parchalashning boshqa usullari hali sinov davrlaridan chiqqanlari yo'k.

7-BO'LIM

7.1. MA'DANLI FOYDALI QAZILMA KONLARINI NAMUNALASH TURLARI VA USULLARI

Namunalash ishlari orqali hal qilinadigan vazifalar quyidagilardir: Mineral xomashyoning sifatini, ya'ni ma'danning kimyoviy va mineralogik tarkibini, uning texnik va texnologik xususiyatini hamda joylashuvining (morfologik vujudga kelishi), jumladan nisbatan boy va miqdori past uchastkalarni ifodalashda asosiy omil hisoblanadi. Ma'dan tanalarining ichki tuzilishini, ularni sifati bo'yicha turlarga (sortlarga) ajratish asoslarini o'rganib chiqishdan iboratdir.

Namunalash maqsadi odatdagidek ikki muhim masalani yechishdan iborat bo'ladi:

birinchisi- asosiy va foydali qo'shimcha elementlarning o'rtacha miqdorini topish, ikkinchisi esa- kuzatilgan tabiiy o'zgaruvchanligining tarkibiy me'yorini belgilash bilan bog'liq.

Razvedka davrida namunalash ishlari yordamida quyidagi ma'lumotlarni olish mumkin: ma'dan va metall zaxirasini hisoblash raqamini; ma'danli tanalarni me'yorli chegaralash (iqtisodiy talablarga asoslangan holda); jumladan, ularning tarkibida mineral xomashyolarni sifati bo'yicha turlarga ajratish natijalari; geologik-qidiruv va qazib olish tayyorgarlik yo'nalishlarini aniqlash, jumladan e'tiborni tortuvchi tog'jinslari bilan aniq chegarasi yo'q va shuning uchun chiziq (kontur) faqat namunalash natijalari asosida o'tkaziladigan foydali qazilmalar tanalariga ma'danni boyitish metallurgiya qayta ishlash jarayonida, qayta ishlash usullarini aniqlash; ma'danni qazib olish rejasini tuzish; ma'dan qisman qolib ketishi, bo'shliq jinslar ma'dan bilan aralashib ketishi sababli elementlarni qazib olishda miqdorining pasayishi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish ham kerak.

Namunalash jarayoni quyidagi to'rt turdan iborat bo'ladi:

Kimyoviy namunalashda ma'danning foydali va zararli komponentlari (elementlarning) miqdori va foydali qazilma konlarini, jumladan uning qismlari (uchastkalari)ni sanoat uchun qimmatli bo'lishi aniqlanadi.

Shuni tasdiqlash zarurki, komponentlar miqdori qo'shimcha usullar yordamida (spektral, neytron-aktivatsion va shu kabi tahlillar orqali) aniq ma'lumotlar olish mumkin.

Mineralogik va petrografik namunalash turi - tog' jinslarini, ma'danlarni hamda ularni boyitish jarayonida kerak bo'ladigan texnologik xususiyatlarini o'rganishda qo'llaniladi.

Texnik (konchilik-texnik) namunalash turi -bunda sanoatda qayta ishlov berish

siz qazib olinadigan mineral xomashyolarning fizik-mexanik xossalari aniqlanadi: qurilish materiallarida (siqishga, bukilishga, bosimli harakatga qarashligi); slyuda, ya'ni muskovit, flogonitlar – elektrotexnik tomonlari ham qiziqtirishi mumkin.

Texnologik namunalash turi – mineral xomashyoning texnologik (sanoat turi) xossalari o'rganib chiqiladi va qayta ishlovning unumli sxemasi topiladi. Shu maqsadda olingan namunalarning sinov ishlari laboratoriya va korxonada sharoitida o'tkaziladi. Namunalar og'irligi va tarkibidagi material ko'rinishi (maydaligi yoki bo'laksimonligi) sinovlarning maqsadi va shu maqsaddan kelib chiqadigan vazifalar bilan chambarchas bog'liq.

Kimyoviy tahlilda laboratoriyaga jo'natiladigan namuna (paket) tarkiblari mayda zarrachalar (0,05-0,07 mm.), og'irligi esa – 100-200 g., ba'zan zamonaviy uskunalarda namunalarni o'rganish uchun – 10-20 g.miqdorda bo'ladi.

Mineralogiya va petrografik tadqiqot ishlaridagi tahlilga shlif (nur o'tkazadigan) va aksi-anshlif tayyorlashga mayda shturlar (bo'lak) kerak.

Texnikaviy namunalash sinov uchun konchilik texnikasini ishlatish maqsadida shtuf yoki monolit namuna olinadi, ularning natijalari sinov raqamlari bilan bog'liq: hajmiy og'irligi va kichik shurfoldi ostonada; siqishga qarshiligini, past haroratda mustahkamligi (20 x 20 x 20 sm.li monolitda); qurilishbop toshning dekorativ (imoratlarning tashqi tomonini bezash uchun qo'llanadigan) xususiyatlarini o'rganishga – 0,1 m³.li bloklarda (shartnomalarga ko'ra namunalar og'irligi 50-100-200 kg.dan 500-1000-5000 kg. (1000 t.) gacha bo'lishi mumkin.

Gidrogeologik tadqiqotda; geologik tasviriy xaritalashda; cho'kindi, magmatik, metamorfik tog' jinslarini o'rganishda olinadi. Bundan tashqari, foydali qazilma konlari ma'danli tanalarining tarkibi va tuzilishi, ma'dan o'zlashtiruvchi tog' jinslarining xossalari to'g'risida ham yagona va unumli ma'lumot olish usulidir.

Namunalash ishlari namuna olish, ularga ishlov berish va sinovdan o'tkazishdan so'ng olingan natijalarning tahlili asosida baho berishdan iborat. Namuna deb tadqiqot dala ishlari olib boriladigan obyekt (uchastka) dan o'rganish uchun olingan ma'dan yoki tog' jinslari qismi - namuna. Namunalarning turlari moddiy hisoblanadi va biri (belgilangan) masofadan (namunalash qadami) uzilmasin yoki qabul qilingan tartib (sistema) ga qadar bir nechta masofalik namunalarni birlashtirish yo'llari bilan olinadi.

Hozirgi vaqtda maxsus uskuna (apparatura) yordamida tog' jinslarni, jumladan ma'dan qismi-xossalari o'rganishda zamonaviy geofizik usullar keng qo'llanmoqda va shu orqali namuna olish (uskuna turli miqdorining raqamini ko'rsatish) nomoddiy hisoblanadi, chunki bir joyda bir necha marta o'lchovni o'tkazish mumkin.

Demak, namuna ma'lum joydan olingan tog' jinsi yoki ma'danning qismi

(bo‘lagi) ga asoslanib turli maqsadga muvofiq natijalarini tahliliy o‘rganib, tegishli xulosaga kelish o‘lchovidir.

Namunalar olish usullari. Lahimlardan turli maqsadlarga muvofiq (ko‘proq kimyoviy tahlillarga) quyidagi keng qo‘llanadigan usullar yordamida namunalar olinadi: shtuf, ariqcha (50% ziyod), sidirish, yalpi (ko‘pincha boshqa usul bilan olingan namunalar tahlili natijasini tekshirish, ya‘ni solishtirish uchun), shpur (perferator yordamida), nuqtaviy va hovuchlilar.

Shtufnamuna olish usulining mazmuni kon lahimini zaboyda shtrek, kvershlag, ort va ular vazifasini bajaruvchi shtolnyalar o‘tish uchun portlash natijasida zaboy ostida yig‘ilgan ma‘danli, tog‘ jinslaridan shtuflar (bo‘laklar) dan iborat bo‘lagi namuna uchun olinadi (1-3-5 bo‘lak). Har bir olingan shtufning og‘irligi 0,5 kg. gacha bo‘ladi. Bu usul yordamida namunalash tezlik bilan o‘tkazilishiga qaramasdan, o‘ziga xos kamchiliklari borligini unutmash kerak.

7.1.1. Mineral tarkibi xususiyatlari bo‘yicha namunalash

Ma‘danning mineral tarkibini o‘rganish, natijasida ma‘dan sifati va taxminan uning tarkibida mavjud bo‘lgan foydali komponentlarning tarqalish xususiyati bo‘yicha ham kerakli ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Mineralogik tarkibini o‘rganishning bir necha turlari mavjud: ma‘danning turlari, shlixli minerallar, lyuminessent (sheelit, ya‘ni volframli birikmani aniqlashda) va ma‘danli minerallar maydonini baholash va aniqlashdan iboratdir.

Ma‘dan turlari bo‘yicha namunalashning maqsadi foydali komponentlar miqdoriga birlamchi baho berishdir, ya‘ni ma‘danli tanalardan namuna olingandan so‘ng o‘tgan lahimlarni zaboy yoki devorini murakkab hujjatlashtirish asosida ma‘dan turlari ajratiladi hamda har bir turiga tegishli tanalarning maydoni o‘lchanadi.

So‘ngra, oldinroq kimyoviy tahlil natijasida har xil ma‘dan turlari bo‘yicha olingan ma‘lumotlar asosida foydali komponentlar miqdori hisoblab chiqiladi. Umuman olganda, foydali qazilma konlarini qidirish jarayonida ma‘danning tarkibida komponentlarning etalon (namunaviy) kolleksiyalari tuziladi. Shlix minerallar bo‘yicha namunalashning mazmuni quyidagicha bo‘ladi: olingan namuna tarkibini maydalash (ishlov berish) va yuvish natijasida olingan shlix (qumsimon ma‘dan)ni mineralogik tahlildan o‘tkazgandan so‘ng, ma‘danli minerallardagi metallarning miqdori va hajmi qayta hisoblab chiqiladi.

Bu usul turli foydali qazilma konlarida dona - dona bo‘lib sochilgan ma‘danlarning kimyoviy tahlili o‘tkazilmasdan oldin mineral xomashyoning sifatini aniqlashda va tezkor baholashda qo‘llanadi.

- lyuminessent namunalash ultrafiolet, rentgen nurlarida tovlanadigan minerallarning (uran, olmos, volfram minerali - sheelit) sifatlarini dastlabki baholashda qo'llanadi va kon lahimlaridan (zaboyda) maxsus lampa chirog'i bilan kerakli joylarni yoritish yordamida shu mintrallar soni hisobga olinadi.

- ma'danli minerallarning maydonini baholash bo'yicha namunalash-shlif va anshlif asosida ma'dan sifatini mineralogik tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni metallar (foydali komponent) miqdoriga o'tkazishdir.

Yuqorida ko'rib chiqilgan mineralogik tarkibni o'rganish orqali ma'danni namunalash usullari mineral xomashyoni dastlabki (taxminiy) baholash taqdimotini beradi va ular keyingi tadqiqot ishlarida asos bo'lishi shubhasiz.

7.1.2. Namunalar orasidagi masofani aniqlash (namunalash qadami)

Foydali qazilma konlari tanalarining qalinligi bo'yicha (maksimal o'zgaruvchanligi) namunalash uzluksiz bo'ladi, ya'ni namunalar orasidagi masofa nolga teng bo'ladi.

Hattoki juda qalin ma'danli tanalar (kvershlag, shtolnya - ort va h.k. devorlari) bir necha seksiyalardan iborat uzunliksiz ariqcha o'tkaziladi. Ma'danli tanalarning yo'nalishi yoki yotishi bo'yicha esa namunalar bir-biridan ma'lum masofada bo'lishi mumkin. Namuna olishda oraliq masofaning belgilanishi shu ma'dan tanasida foydali komponentlarning tarqalish xususiyatiga chambarchas bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan, komponentlarning tarqalishi deyarli bir xil foydali qazilma konlarida (kon lahimlari yordamida) namunalar orasidagi masofalar uzunroq bo'ladi, namuna soni esa kamroq bo'ladi.

Foydali komponentlar (ma'danli tanalarning tarkibi) o'zgaruvchanligi ustida ko'p tadqiqotchilar tajriba ishlari olib borishgan, chunki foydali qazilma konlari sifatini o'rganish jarayonida bu masala nazarga olinmagan holda, namunalash usullari bilan ma'danning turli sifatiga tegishli ma'lumotlar ishonchli bo'lmasligi aniq.

Shuning uchun, qidiruv ishlarining bosqichlaridan qat'iy nazar, foydali komponentlarning konkret maydonda tarqalish xususiyatini o'rganish, so'ngra, yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosaga kelish va shu asosda haqiqatdan amaldagi holatga qanchalik yaqinligini aniqlashda hamda keyinchalik foydalanishda inobatga olinadi.

O'zgaruvchanlikning o'lchovi variatsiya deb ataladi va uning raqamli soni koeffitsiyenti bo'ladi (Kv). O'zgaruvchanlik ikki turli: komponentlarning o'zgarishi (miqdori) ba'zi bir tartib bo'yicha farq qiluvchi va tasodifan (betartib)li bo'ladi.

Metall tarqalish xususiyati	Metallar miqdorining variatsiya (o'zgaruvchanlik) koeffitsiyenti (raqami)	FQK.larning turi	Namuna orasidagi masofa, m
O'ta bir xil	20gacha	Marganes va temirning dengizli cho'kindi konlari	15 m atrofida
Deyarli bir xil	40 gacha	Marganes, temir, boksitlar cho'kindi konlari va temirning ma'lum metamorfik konlari	4 m atrofida
Bir xil	100 gacha	Rangli metallar va ba'zi nodir metallar konlari	2,5 m atrofida
O'ta bir xil emas	150 gacha	Asosan nodir va oltin metallar konlari	1,5 atrofida
Keskin bir xil emas	150 dan ortiq	Nodir va oltin metallarning ba'zi konlari	1 m atrofida

Foydali qazilmalarning qidiruv ish jarayonida dala tadqiqotchilari tartibli o'zgaruvchanlik turiga e'tibor qilishadi.

O'zgaruvchanlik yo'nalishlari (anizotropiya) ikki yoki uch tomonli bo'lishi mumkin va shuni inobatga olish kerakki, maksimal foydali komponentlar o'zgaruvchanligi tomoni ma'danli tanalarning qalinligi, minimali shu tanalarning yo'nalishi bo'yicha bo'ladi. Demak, ariqcha usul bilan namuna olishda, ular ma'danli tanalarni ko'ndalang kesib o'tadigan turli lahimlarni kvershlag, ort va kvershlag-shtolnya yoki yer yuzasida ko'ndalang o'tiladigan kanavalar, devorlaridan olinadi, shtrek va shtolnya-shtreklarda esa zaboydan, ya'ni tanalarning qalinligi bo'yicha olinadi.

Bu holatda, o'zgaruvchanlik to'g'risida ishonchli va to'la ma'lumotlarga hamda ma'dan sifatiga tegishli ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Namunalar orasidagi masofani (intervalni) va o'zgaruvchanlik ko'rsatkichi variatsiya koeffitsiyenti bilan bog'liqligini empirik formula orqali taqdim qilish mumkin: $L=200V$ (A.P.Prokofyev).

Albatta, belgilangan tartibda namunalar orasidagi masofa to'g'risida faqat dastlabki natijalar ma'lumotlariga ega bo'lish mumkin. Solishtiruv (nazorat) sifatida shu masofa (interval)ni tajriba, ya'ni katta masofadan boshlab kamaytirish yo'li (usuli) bilan o'tkazib, ma'lum raqamlarning unumligini ko'zdan kechirish zarur.

7.1.3. Namunalarga ishlov berish va ularni qisqartirish tamoyillari

Kimyoviy tarkibini aniqlash maqsadida turli usullar yordamida olingan namunalar boshlang'ich og'irligi (lahimlarni devor yoki zaboy (tubi) laridan va maxsus quti va qopchalarga joylashtirilgan) 0,5kg.dan 50 va undan ziyod bo'lishi mumkin.

Kimyoviy tahlil uchun (laboratoriyada), dublikatlar (har ehtimolga qarshi, namunaning qismlari ehtiyot shart saqlanishidir)ni hisobga olgan holda 10(50) grammgacha, oltin metallga esa-0,5 kg. atrofida kerak. Shu sababli, olingan namunalarning boshlang'ich og'irligini qisqartirish zaruriyati paydo bo'ladi. Faqat laboratoriyaga yuboriladigan qisqartirilgan namuna (foydali komponent) miqdori, boshlang'ich og'irligidagi miqdoriga teng bo'lish sharti bilan bajariladi.

Shu shartdan kelib chiqqan holda, namuna materialidagi metallning (komponent) joylashuvi mavjudligini sun'iy ravishda, maydalab va nihoyatda murakkab aralashtirish oshiriladi va so'ngra qisqartiriladi (2, 4, 8 va h.k. marta) ya'ni, material ma'lum diametrgacha maydalanadi (ekspeditsiyalardagi maydalash uskunalar mavjudligiga qarab) va so'ngra qisqartiriladi, qolgan namuna qismlari yana diametrini kichikroq qilib, maydalanadi va qisqartiriladi va oxirida laboratoriyaga yuboriladigan namuna vazniga bir necha bosqich orqali shu jarayon davom ettiriladi.

Qisqartirish mumkin bo'lgan namuna materialning (ma'danli jins) diametri (razmer raqami) maxsus elaklar orqali nazorat qilinadi.

Shu jarayonning oldinma-keyinligini taqdim etilgan turli foydali qazilma konlariga (FQKga) sxema bo'yicha o'tkaziladi. Sxema asosida-mashhur tadqiqotchilar Richards (ingliz) va S-Peterburg konchilik ishi instituti professori Chechotlarning prinsipi (qoidasi-olingan namunalar vazni (kg) va tarkibidagi bo'lakchalarning maksimal diametri (mm) chambarchas bog'liq bo'lishi holati yotadi va quyidagi matematik formula orqali taqdim etish mumkin: $Q = kd^2$ (Q-namuna vazni, kg; d-bo'lakchalarning maksimal diametri, mm.; K-ma'dan tarkibidagi foydali komponentlarning yoyilishi yoki tarqalish xususiyatining darajasi: 0,07 dan 0,8 (1,0) gacha o'zgaradi). Har bir maydalash va qisqartirish bosqichlari Q **ishonchili** = kd^2 bo'lishi yoki Q **ishonchli** $\geq kd^2$ tengliklarni nazarga olgan holda, keyingi bosqich (diametrni kamaytirilish maqsadida, maydalashni davom ettirishga) o'tish mumkin (30 - rasm).

Yana shuni aytib o'tish kerakki, shu jarayonga tegishli Demond va Holferdol kabi olimlarning Q **ishonchi** = kd^2 namunalarni maydalash va qisqartirishda qo'llashga tavsiya etilgan formulasi (prinsipi) mavjud. Undan komponentlarning tarqalishi o'ta keskin hamda geologik tuzilishi murakkab bo'lgan foydali qazilma

konlarida foydalaniladi (Q-1,5 dan mart va yumshoq ma'danlarga mo'ljallangan raqamdan; 2,7-qattiq ma'danlar uchun). Ya'ni, darajasi "Q" qimmatbaho komponentlarni mexanik xossalari-zarrachalarining qattiqligi, mo'rtligi, mahkamligi, darzliklari mavjudligi bilan bog'liqdir.

Ammo, shunga qaramasdan, geologiya va qidiruv jarayonida qo'llanishi oson bo'lgan va shu bilan birga $Q = kd^2$ prinsip bo'yicha qisqargan. So'ngra laboratoriyaga jo'natiladigan namunalarni tahliliy natija ma'lumotlarining unumligini hisobga olgan holda, Richards-Chegatta formulasi hozirgacha ishonchli deb hisoblanadi.

Geologiya va qidiruv tashkilotlarida quyidagi namunalarni maydalashda qo'llanadigan maxsus uskunalarning ba'zi turlarini keltirib o'tamiz:

DIQ-100x60 (sho'kovaya-jag'li)-60 mm.dan10-3 mm. ga keltiradi.

DIQ-150x80(sho'kovaya-jag'li)-80 → 10-3 gacha,

V -59T Dr-(volkovaya)- 10 → 4-0,5 gacha,

V – DV 200x150 (volkovaya)-10 → 0,5 gacha,

I – IDA -175 (disk. istiratel) -3 → 0,05 gacha,


VI-15T-M (vibratsiya orqali) -3-2 → 0,01 gacha.

Misol tariqasida, tantalit-kolumbitli ma'dan bo'lakchalarining maksimal $d=60$ mm. teng va namuna vazni 60 kg. dan iborat bo'ladi (E.O. Pogrebitskiy, 1977 y.) tantalit va kolumbitning tarqalishi (joylashuvi) bir xil emas. Shuning uchun $K = 0,4$ deb qabul qilamiz. Shu $d = 60$ mm., ishonchli $= 0,4 \times 60^2 = 1440$ kg. ($>60k$ g.). Demak, shu diametr holatida qisqartirish mumkin emas, uni maydalash (diametrini kamaytirish) kerak.

Namuna maxsus maydalash uskunasi bilan o'tgach, albatta ishonchi aralashtirilishi shart, qisqartirish uchun shu vazifani bajaruvchi "Djonsn" nomli 2 barobar namuna vaznini kamaytiruvchi quticha mavjud.

Olingan namunalarning ishonchligi va vakolatligi. Namunalarning ishonchliligi va vakolatligi namunalash jarayonini sifatini bildiruvchi asosiy tushunchalardir.

Namunaning ishonchligi tushunchasi asosida laboratoriyaga jo'natilgan namuna (10-50-100 gr.)ni tarkibidagi maydon sifati alomatlarining ko'rsatkichlari, jumladan foydali komponent miqdori, birlamchi namunadagi (lahimlardan olingan va vazni 50 kg. gacha bo'lgan) shu komponent tabiiy mavjud bo'lgan miqdorga deyarli tenglik darajasi joylashgan. Ya'ni, namuna ishonchliligi foydali komponentning o'rtacha arifmetik miqdori raqamining belgilangan aniqligi bilan ta'minlash kerak (L.I. Chetverikov). Namunaning ishonchliligi quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:



30 - **rasm.** Namunaga ishlov berish sxemasi

$L_q = L_o^2 + L_c + L_a$, jumladan:

L_q -namunaning texnikaviy xatosi;

L_o -namuna olishda sodir bo'lgan nuqsonlar;

c -namunaga ishlov berishdagi nuqson, jumladan qisqartirish nuqsoni.

L_a - tahlil o'tkazish jarayonidagi nuqsonlar.

Namunalash jarayonidagi nuqsonlar tasodifiy va sistematik bo'ladi va ular ma'dan o'zgaruvchanligi bilan bog'liqdir.

Tasodifiy nuqsonlar, kuzatishi sonlari ko'payish bilan (namuna olish soni), ularning raqamlari (miqdori) haqiqatga yaqinlashadi. Aks holatlarda salbiy ta'siri kuchayishi mumkin.

Geologiya va qidiruv jarayonida shu nuqsonlarning ikkinchi turi, ya'ni sistematik nuqsonlarga ko'proq e'tibor beriladi.

Chunki bu nuqsonlar namuna sonlar, namuna olish, ishlov berish va ularni tahlildan o'tkazish jarayonidagi qaysi bir faktor (sababni)ning harakati (ta'siri) natijasida doimiy ravishda vujudga kelishi mumkin va kuzatish nuqtalari ko'payishi (namuna sonining ko'pligi) bilan bog'liq emas.

Sistematik nuqsonlarda belgilangan (foydali qazilma turiga) va metallarga moslashtirilgan raqamlari yo'q. Shu nuqson turi qidiruv ishlarida juda xavfli hisoblanadi, shu nuqtai nazardan ularning vujudga kelishi sababini aniqlash va yo'qotish zarur.

Namuna vakolatligi- olingan namuna tarkibidagi komponent (metall) lar miqdori namuna olingan jinslarning ma'lum hajmiga ta'sirini o'tkazadigan ko'rsatkichlarga o'xshash toifasidir.

Tog' jinslar hajmining bir qismidagi haqiqiy (tabiiy) o'rta arifmetik miqdor raqamini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun L.I. Chetverikov tomonidan namunalarning taxminiy vakolatligini geologiya nuqtai nazaridan bir xil tarkibli jinslardan ajratilgan blokka bog'lashdan iboratdir.

Namunalar miqdorining tasodifiy qismini variatsiya koeffitsiyenti vakolatligini bir xil miqdorli geologik blokdan asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi:

$$L_n = t V_k$$

L_n – namuna vakolatligi;

T – analogiya (o'xshashligi) nuqsonni baholash mavjudligining toifasi;

V_k –namunadagi miqdorning belgilangan blokidagi variatsiya koeffitsienti.

Namunalash nazorati. Tasodifiy nuqsonlarning me'yorini aniqlashda va sistematik nuqsonlar mavjud emasligi to'g'risida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish

uchun namunalashga tegishli ishlar nazorat tekshiruv tartibda o'tkazilishi shart.

Namunalashning ishonchligi sistematik nuqsonlari mavjud emasligi bilan belgilanadi.

Namuna olish nazorati. Namuna olishda mavjud bo'lgan nuqsonlar quyidagi holatlarda sodir bo'ladi: olishdagi mas'uliyatsizlik (materialning ifloslanishi); to'g'ri kelmaydigan uskunadan foydalanish; ma'danni tashkil etuvchi minerallar mo'rtligini inobatga olmaslik va h.k.

Sistematik nuqsonlarda foydali minerallarni hamda tomirsimon minerallar va ma'dan o'zlashtiruvchi jinslarning fizik va mexanik xususiyatlari keskin farq qilishi.

Natijada bu mo'rt moddalar kamayib ketishi yoki aksincha ko'payishi bilan bog'liq.

Namuna olish jarayonining nuqsonlari quyidagi 3 yo'nalish bo'yicha maxsus tadbirlar orqali baholanishi mumkin:

- ❖ olingan namunalar vazni doimo nazariy vaznga (ularning belgilangan hajmiga asoslanib) og'irligi bilan solishtiriladi. Farqi- \pm (10-20) %dan oshmasligi kerak;

- ❖ namunalarning nazariy va amaliy vazni to'g'ri kelishi - kelmasligiga qaramasdan har chorakda (yarim yilda) murakkab nazorat ostida bu namunalardan joylarda 30 gacha dubl namunalar olinadi. Olingan natijalar tasodifiy nuqsonlarni oldingi raqam bilan miqdor bo'yicha solishtirib aniqlash mumkin;

- ❖ mineral xomashyoning sifatini ishonchli baholash va namuna olishda sodir bo'lgan sistematik nuqsonlarni aniqlash maqsadida namuna olishning yalpi, sidirish yoki katta kesimli (20 x 20 sm) ariqcha usullari bilan qo'llanadi.

Kernli namunalar nazorati uchun zarb berish yo'li bilan o'tadigan burg'ilash hamda maxsus o'tilgan tog' lahimlaridan namuna olinadi.

Nazorat uchun olingan namunalar soni foydali komponentlar o'zgaruvchanligi bilan bog'liq bo'ladi.

7.1.4. Namunalarga ishlov berishni nazorat qilish

Bu nazorat turi olingan namuna bilan unga ishlov berib maydalashning bir necha marta kamayishi natijasida, qisqartirilgan qismini solishtirganda tarkibida farq qilishiga asoslangan.

Shu jarayondagi nuqson ham tasodifiy va sistematik, metodik yoki texnik sabablarga ko'ra kelib chiqishi mumkin. Nuqsonlarga quyidagi uch empirik (amaliy materiallarga asoslangan) holda baho berish usullari mavjud:

Richard-Chechot sxemasi bo'yicha namuna qisqartirilgandan so'ng, 10-50-100 grammi namunalarni laboratoriyaga jo'natiladigan ishonchli qismiga ega bo'lgach, qolgan materialni birlashtirib, takroran shu jarayonni o'tkazishadi va ishonchli olingan naveska oldingisi bilan solishtiriladi. Natijada sodir bo'lgan miqdorning farqi ishlov berish nuqsoni deb qabul qilinadi;

Namunaning ishonchli qismi olingandan so'ng, qolgan materialni birlashtirib qisqartirmasdan kerakli diametrgacha (0,1-0,07 mm) maydalanadi va birdaniga djonson uskunasi yordamida kerakli og'irlikkacha qisqartiriladi. Ushbu usul bilan namunaga ishlov berishdan kelib chiqadigan nuqsonlarni yo'qotish mumkin;

Namuna materiali qisqartirilishi bilan dubl nazorat olinadi va tahlildan o'tkaziladi. Bu usul yordamida keyingi qisqartirish bosqichida nuqson vujudga kelganligini aniqlash va tegishli chora-tadbirlarni o'tkazish mumkin.

7.1.5. Namunani tahlildan o'tkazishda sifatini nazorat qilish

Tahlildan o'tkazish jarayoni ishonchliligini va nuqsonlarni aniqlash elementlarni zaxira hisoblashda qatnashishidan qat'i nazar, tegishli nazorat tadbirlari orqali har oy yoki har chorakda o'tkazilishi shart. Geologik nazorat ichki, tashqi va arbitraj turlarga bo'linadi.

Ichki nazorat turi – tahlil jarayonida sodir bo'lgan tasodifiy nuqsonlarni va geologiya ishlariga tegishli Davlat qo'mitasi ko'rsatmasiga mosligini aniqlashdan iborat.

Qabul qilingan namunaning ishonchli qismi asosida tahlil qilish uslubi bo'yicha, dublikatlar asosida nazorat qilish maqsadida boshqa laboratoriyada o'tkaziladi va olingan natijalardan tegishli xulosa chiqariladi.

Tashqi nazorat – laboratoriyada sistematik nuqsonlar bor yoki yo'qligi aniqlanadi, hamda tahlillar orqali ma'danning hamma turlariga (sifati bo'yicha ajratilgan) ma'lumot beriladi. Kerakli nazorat namunaning ichki nazoratdan o'tgan qismlari dublikatlaridan olinadi va boshqa laboratoriyaga shu nazoratni o'tkazishga tahlil usuli yetkaziladi, chunki tashqi nazoratga boshqa usul bilan tahlil qilish uchun yuborilishi kerak.

Arbitraj nazoratining mazmuni: tahlil o'tkazish jarayonida asosiy yoki nazorat ishlarini olib borgan va doimo sistematik nuqsonlar sodir bo'lishiga sababli laboratoriyalarni aniqlash; shu nuqsonlar mavjudligi sababini aniqlash va ularni yo'qotish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish; sistematik nuqsonlarning salbiy ahamiyatini tasdiqlash va ularning ta'sirini yumshatish maqsadida, haqiqatga yaqinlashtirish raqamlarni (koeffitsiyent) kiritish va h.k.lardan iborat.

Namunalarni tahlildan o'tkazish jarayoni xususiyatini ko'zdan kechirganda

quyidagilarga e'tibor berish zarur: tadqiqotchilar fikri bo'yicha, tasodifiy nuqson namuna tarkibida bo'lgan foydali komponentlarning miqdori (soni)ga bog'liq bo'ladi. Shu fikr tadqiqotdan kelib chiqqan holda, miqdorlarni konditsiyalar talabiga asoslanib toifa bo'yicha ajratish kerak: miqdoridan kam; bort miqdoridan minimum-sanoat miqdorigacha; minimum-sanoat miqdoridan baland va komponentlari yuqori miqdorli namunalar.

Sistematik nuqsonlarga kelsak, bu nuqson turi tahlil jarayonida mavjud bo'lganligi aniqlangan namunalar tahlil natijalari qidiruvda ma'danli tanalarni chegaralashda (kontur o'tkazishda) va foydali qazilma konlari zaxirasini hisoblashda qat'iy qatnashishi mumkin emas.

8-BO'LIM

8.1. RAZVEDKA ISHLARINING ASOSLARI

Yer osti boyliklarini o'rganish ta'limoti maqsadidan kelib chiqadigan vazifalarga asos bo'lgan ishonchli ilmiy metodik (uslubiy) tadqiqotlar geologiya-qidiruv jarayonlaring muvaffaqiyatli o'tishiga zamin bo'ladi.

Yer boyliklarini o'rganish ta'limotining mashhur tadqiqotchi V.M. Kreyter mustaqil geologik-iqtisod fanini o'ziga xos tarmoqqa ajratgan.

Geologiya-qidiruv jarayonining maqsadi: Foydali qazilmaning sanoatimiz talablari ahamiyatiga ega bo'lgan miqdorlarini aniqlashga va ularni geologik-iqtisodiy baholashga tegishli ilm-fan nuqtai nazaridan uslubiyatlarni ishlab chiqishdir.

Qidiruv ishlarining o'rganib chiqadigan predmeti – (joyi) foydali qazilmalarning tabiiy uyumlari va turli davlat ehtiyoji bor ma'dan xomashyosi manbai mavjud bo'lgan yer osti (usti) ma'lum (lokal) qismlaridan iborat.

Yer osti boyliklari xususiyatlarini tasvirlash va samarali o'rganishning asosiy usuli: geologik-qidiruv ishlari natijasida olingan ma'dan sifatiga tegishli ma'lumotlarga muvofiq foydali qazilma konlarining muhim xossalarini inobatga olib, modellashtirish va shu obyektlarni iqtisodiy baholashdir.

Foydali qazilmalar qidiruvini (razvedkasini)ng ilmiy - geologik asoslari Foydali qazilmani vujudga keltirgan geologik jarayonlar rivojlanishining obyektiv qonunlarini o'ziga qamrab olgan hamda ma'danning strukturalar bilan bog'liqligi qonunchiligi va komponentlar sifati (miqdori) o'zgaruvchanligini o'rganish prinsiplari bo'yicha ilmiy g'oyalar sistemalaridan iborat.

Bu ilmiy-geologik asoslarga ega bo'lish qidiruv ishlarining rivojlanishiga, mineral xomashyo uyumlarining qay darajada mavjudligini bashoratlashga, ma'lum maydon va chuqurlikdagi foydali qazilma konlar zaxirasiga konchilik texnologiyasini hisobga olgan holda to'g'ri baho berishga boy va asoslangan ma'lumot beradi.

Foydali qazilma konlarini qidirish (razvedka qilish) ishlarida va olingan natijalarga asoslanib, ularni geologik-iqtisodiy baholashda quyidagi razvedka prinsiplari qo'llaniladi:

- ❖ mineral xomashyoga bo'lgan zarruriyatini qoniqtirish. Talabga javob bermaydigan foydali qazilma konlari ularni qazib olish uchun texnik va iqtisodiy qulay sharoitlar vujudga kelgungacha rezervda saqlanishi kerak;

- ❖ konkret xomashyoga davlatning optimal muhtojligi, ya'ni shu xomashyo turidan foydalanish uchun viloyatlarda qulay sharoitlar ajratish;

❖ tabiiy resurslardan, jumladan foydali qazilmalar uyumlarining foydali komponentlaridan minimal xarajatlar bilan maksimal foydalanish foydali qazilmani baholash, uning zaxirasidan kompleks va to'la foydalanish sharti bilan o'tkaziladi.

Shuning uchun albatta bajaraladigan ikki shart qo'yiladi. Birinchisi - geologiya-qidiruv ishlarining sifat darajasidir. Foydali qazilmalar zaxirasi sifatining ishonchliligi; ikkinchisi - shu zaxira mineral xomashyoni unumli qo'llanishga kafolatning mavjudligi va atrof - muhit tegishli masalalar hisoboti (TEO) o'ziga xos o'rin egallashi shart va foydali qazilmani qazib olish, qayta ishlash hamda talabga muvofiq unumli mablag'lar kerakligini zamonaviy texnika va texnologiya asosida baholash talab qilinadi. (Shoyakubov, Toshkent sh., 2000 y.).

Foydali qazilma konlarining sanoat uchun miqdoriy qimmatligini quyidagi uch guruhga birlashgan faktorlar bilan belgilash mumkin:

- sotsial-iqtisod faktorlar - respublikamiz xalq xo'jaligi uchun foydali qazilmalarning ahamiyati, ulardan olingan mahsulotlarning qiymati hamda iqtisodiy mustaqillik va ular orqali byudjet zaxiralarini ko'paytirishdir;

- konchilik-geologik faktorlar - konchilik korxonalarining (kombinat) quvvati, foydali qazilmani o'zlashtirishning konchilik-texnik sharoitlari va mineral xomashyoni qayta ishlash hamda undan tayyor mahsulot olishning texnologik sxemalaridan iborat bo'ladi.

Shu faktorlardan iborat guruh foydali qazilma konlar to'g'risida muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'ziga qamrab olgan: Foydali qazilmalarning sifati, ularning tarkibidagi foydali va zararli komponentlarning miqdori, foydali qazilmalar uyumlarining morfologiyasi hamda tuzilishi, joylashish sharoitlari, mineral-xomashyoning texnologik xususiyatlari va, nihoyat, konlarni o'zlashtirishning (qazib olishning) konchilik-geologiya holatlaridir.

Iqtisodiy-geografik faktorlar quyidagilardir:

Foydali qazilmalar mavjud bo'lgan hududlarning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari, ya'ni-aholi, ma'danni boyitish va qayta ishlash korxonalaridan uzoq - yaqinligi, transport va energetika masalalari, ichimlik suv (buloq, daryo, ko'l) mavjudligi, qurilish (noma'dan) obyektlar mavjudligi, yerlarning baland-patsligi (relyefi) iqlim va shu kabilar to'g'risida yetarli ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Geologik tuzilishi keskin bo'lgan foydali qazilma konlarida razvedkani o'tkazish jarayoni ular uchastkalar va tarkibidagi ma'dan tanalari mablag' hamda vaqt bo'yicha ham farq qiladi. Ya'ni, bir konning morfologiyasi, joylashish sharoitlari, ichki tuzilishining o'zgaruvchanligi, ma'dan sifati va uning tarkibida qimmatli komponentlarning tarqalish xususiyatlari har xil bo'lgan ma'danli

tanalarga geologiya-iqtisodiy e'tibor ham bir xil bo'lmaydi.

Razvedkaning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan ushbu prinsipning maxsuslashtirilgan ekanligini iqtisodiy tomonidan o'rganib chiqish va geologik tuzilishining murakkabligi bo'yicha farq qiladigan darajasiga talablarning zarurligiga olib keladi.

Tushunchalar normativ hujjatlar shaklida "zaxiralar toifasi (darajasi) va geologik tuzilish bo'yicha turli foydali qazilma konlarining guruhleri" deb ataladi.

Guruhlar bo'yicha konlarni ajratish, foydali qazilma konlarini o'rganish jarayonida iqtisod nuqtai nazardan unumli darajasiga asos yaratishdir.

Bu tushunchalar "mineral xomashyoning bashoratli balans va balansdan tashqari bo'lgan resurslar; ya'ni razvedka jarayonida ma'dan zaxiralarining" xalq xo'jaligi uchun ahamiyati asosida hisobga olinadi.

Balansli ma'dan zaxirasiga hamda ular tarkibida mavjud bo'lgan foydali komponentlar va sanoatda qo'llanayotgan ma'danni qazib olish, qayta ishlashda texnika bilan birga foydalanayotgan texnologiyasini yer osti boyliklarini unumli ishlatish, atrof - muhitni muhofaza qilish darajalarini hisobga olgan holda, iqtisodiy tomondan samarali bo'lgan foydali qazilma konlari zaxiralarining qismlari kiradi.

Hozirgi ishlab chiqarish sanoati talablariga vaqtinchalik javob bermaydigan zaxiralar qismlari balansdan tashqari, deb nomlanadi.

Qidiruv (razvedka) jarayonida kon lahimi va burg'ilash quduqlari ta'siri chetida (ancha uzoq) bo'lgan foydali qazilmaning uyumlari bashoratli (hali ishonchli emas) hisoblanadi.

Tog' korxonalarini loyihalashtirishda qazib olish va qayta ishlashning asosiy obyekti (joyi) balans zaxirali tushuncha foydali qazilma konlarini talabga javob beradigan qismlarini keltirib o'tish kerak.

Balans va balansdan tashqari foydali qazilma konlarining zaxiralari iqtisodiy talablarga ko'ra, jumladan konning konchilik, geologik, texnologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda chegaralanadi va ma'danning boshqa turli qismlari ajratiladi. Ma'dan sifatiga bo'lgan iqtisodiy talablar "konditsiya" deb ataladi.

Umuman olganda, foydali qazilma konlarini geologik-iqtisodiy baholash mazmuni obyektning (konni) razvedkasi, konditsiyalarni ishlab chiqish va zaxiralarni hisoblash jarayonlarining o'zaro chambarchas bog'liqligini bildiradi.

Foydali qazilma konlarini o'rganish jarayoniga talablar va ularning zaxiralarini toifalash.

O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar qo'mitasi Davlat tomonidan 1999 yil 20 iyunda tasdiqlangan "Qattiq foydali qazilma konlarining

zaxiralari va bashoratli resurslari klassifikatsiyasi”da: yer ostida mavjud bo‘lgan mineral-xomashyo” zaxiralarning xalq xo‘jaligi uchun ahamiyati hamda ularni o‘rganish darajasi, qazib olishga (o‘zlashtirishga) tayyorgarlikning holati va bashorati foydali qazilmalar resurslarini baholashni davlat tomonidan hisobga olish, baholash qoidalarini tegishli tashkilotlar tomonidan ijro etish belgilangan.

Ushbu klassifikatsiyaga muvofiq yer ostida mavjud bo‘lgan mineral xomashyo resurslari razvedka qilingan, dastlabki baholangan va bashoratli zaxiralardan iborat bo‘ladi.

Geologiya - qidiruv jarayoni natijalari bo‘yicha (konchilik, burg‘ilash va geofizik ishlar orqali) foydali qazilma konlari zaxiralari tasdiqlangan chegara doirasida hisoblanadi.

Bashoratli resurslar zaxirasi geologik, geofizik va geokimyoviy olib borilgan dala tadqiqot ishlari asosida, lahimlardan ancha tashqari masofadagi aniq chegarasiz (kenglik va chuqurlikka) o‘zlashtiruvchi tog‘ jinslarining tarkibida baholanadi.

Foydali qazilma konlari zaxiralari, ularni o‘rganish darajasiga ko‘ra, uch toifaga (B; C₁ va C₂) bo‘linadi.

Foydali qazilmalar bashoratli resurslarining asoslanganlik darajasi bo‘yicha ikki - P₁ va P₂ toifadan iborat.

Foydali qazilma konlari zaxirasini “B” toifaga tenglash uchun quyidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish kerak: foydali qazilmalar tanalarining joylashish sharoitlari, shakli, masshtablari; ularning ichki tuzilishi va morfologiyasining o‘zgaruvchanlik xarakteri; Foydali qazilma tanalari tarkibidagi mavjud bo‘lgan ma‘dansiz va konditsiya talablariga javob bermaydigan qismlarini ajratish hamda chegaralash (kontur doirasini o‘tkazish); agar ma‘dan vujudga kelgan davrdan so‘ng tektonik harakatlar natijasida tanalar yoriqliklarga uchrasa, ular to‘g‘risida tegishli joylashish holatini aniqlash va siljish amplitudasi bo‘yicha ma‘lumotlarga ham ega bo‘lish zarur.

Foydali qazilmaning tabiiy turlari, texnologik sirlari, ular tarkibining xossalari, mineral shakllar bo‘yicha foydali va qimmatli komponentlar tarqalishlari to‘la aniqlanib, chegaralanishi kerak; hamda ma‘danning texnologik turlari konditsiyalar talablariga mos kelishi zarur bo‘ladi. Ya‘ni, mineral xomashyoning texnologik xususiyatlari ma‘danni o‘zlashtirish loyihasini tuzish (konchilik korxonasini ishga tushirish) va qayta ishlash sxemasi taqdimoti uchun kerakli muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lish shart.

“C₁” toifali foydali qazilmalar zaxirasiga: ma‘dan tanalarining shakllari, masshtabi, ichki tuzilishi va joylashish sharoitlarini aniqlash; ularning o‘zgaruvchanlik holati va tuzilishini baholash bo‘yicha ma‘lumotlarga ega

bo'lishimiz kerak. Foydali qazilmaning tabiiy va texnologik turlari joylashishining umumiy qonunchiligi o'rganiladi. Foydali va zararli komponentlar vujudga kelishining mineral shakllari, hamda texnologik turlari aniqlanadi, jumladan har bir tur ko'rsatkichlarning konditsiya talablariga mos kelishi ko'rib chiqiladi.

Mineral xomashyoning texnologik xususiyatlari razvedka jarayonida chegaralangan zaxiralarni sanoat uchun qimmatli yetarli darajada ifodalanishi kerak hamda konchilik ishlarini olib borish sharoitlarining faktorlari (ko'rsatkichlari) bo'yicha yetarli dastlabki ma'lumotlar bilan asoslanishi zarur.

“C₂” toifali foydali qazilma konlarining zaxirasi geologik, geofizik va geokimyoy, bir necha burg'ilash quduqlari yoki yer osti lahimlari orqali olingan ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Foydali qazilma tanalarining joylashish sharoitlari, tuzilishi, shakli va masshtabi yuqoridagi olingan ma'lumotlar to'plami yordamida baholanadi.

Mineral xomashyoning sifati va texnologik xususiyatlari bir necha laboratoriyada tahlildan o'tgan namunalar natijasida aniqlanadi yoki avval shu tadqiqot ishlari o'tkaziladigan xususiyati yaqin uchastkalarining o'xshashligi asosidagi ma'lumotlari, jumladan, qazib olish kon-geologik sharoitlari ham e'tiborsiz qolmasligi kerak.

Razvedka natijasida zaxiralarni chegaralash konditsiya talablari hisobga olingan holda, burg'ilash quduqlari va kon lahimlari bo'yicha o'tkaziladi.

“B” toifali zaxiralarni chegaralashda ekstrapolyatsiya (quduq va lahim tashqarisida kontur o'tkazish) qo'llanmaydi, ammo “C₁” va “C₂” toifalarni geologiya tomonidan asoslangan ekstrapolyatsiya yo'li bilan aniqlanadi.

“P₁” toifali resurslar – razvedka ishlari olib borilgan, olib borilayotgan va yangi foydali qazilma konlarining aniqlangan resurslari hisoblanadi. Ular mavjud bo'lgan konlarni “C₂”-toifali zaxiralar chegaralanish doirasini kengaytirish hisobiga yoki ularning tashqarisidagi foydali qazilmalar tanasini aniqlash va geologiya-qidiruv ishlari natijasida ko'paytirish imkonini berishi mumkin.

“P₁” toifali resurslarni baholash geologik, geofizik, geokimyoviy tadqiqot ishlari natijalari asosida o'tkaziladi va ishlar foydali qazilma konlarini ekstrapolyatsiya usuli bilan chegaralangan qismida, uning geologik sanoat turining xususiyatlarini inobatga olgan holda hisobga olib boriladi. Shu toifali resurslar ajratilgan yangi obyektlarni dastlabki va mufassal baholash uchun ishonchli geologik jihatdan rezerv bo'lishi kerak.

“P₂” toifali bashoratli resurslar bashorat qilinuvchi potensial (kelajakda) foydali qazilma konlari resurslaridir.

Foydali qazilma konlarining geologik tuzilishi murakkabligi bo'yicha razvedka o'tkazish maqsadida guruhlariga ajratish.

Amaliyotda sanoat turi bo'lgan foydali qazilma konlari ma'dan tanalari masshtabi va shakli hamda ichki tuzilishi jihatidan keskin farq qilishi mumkin. Har xil sanoat turlarida konlarni razvedka qilish usuli juda o'xshash bo'ladi.

Foydali qazilma konlarida qo'llanadigan uslubiy tushunchalar, texnik vositalar, razvedka lahimlarining turlari zichligi va geometriyasi ma'danli tanalarning strukturaviy hamda morfologik xususiyati, ularning masshtabi, murakkabligi, ya'ni foydali komponentlarning tarqalishi, tanalar qalinligi, shakli o'zgaruvchanligi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslangan. Shuning uchun foydali qazilma konlarini murakkabligi bo'yicha va geologiya-qidiruv jarayonini unumli o'tkazish uchun razvedka sistemasi, texnik vositalar hamda ishlar olib borish uslubiyatini to'g'ri tanlash, qo'llanishda obyektlarni maxsus guruhlariga birlashtirish zaruriyati o'ziga xos muhim o'rin tutadi.

Zaruriyatdan kelib chiqqan foydali qazilma konlarini guruhlariga birlashtirish - O'zbekiston Respublikasi mineral xomashyo obyektlarining zaxiralari va bashoratli resurslari hamda iqtisodiy faktorlar geologiya va qidiruv ishlaridagi foydalangan vosita, vaqt xarajatlari ham sinflanishi (klassifikatsiya)da mavjud.

Sinflanishda foydali qazilma konlarining tegishli guruhda joylashishi prinsiplari, har xil turli toifali zaxiralar ulushi tasdiqlangan.

Sinflanishning ko'rinishi quyidagicha:

I guruh - geologik tuzilishi oddiy bo'lgan, ichki tuzilishi sifati, tanalar qalinligi foydali komponentlar tarqalishi o'zgarmaydi. Shu holat "B" toifali zaxirasini umumiy resurslar tarkibida 20 % gacha razvedka jarayonida aniqlab, tayyorlash imkonini beradi. Ushbu guruh talablariga: cho'kindi temir, marganes konlari, qo'rg'oshin va rux stratifarmli qumtosh, Jesqazg'an mis obyektlari mos keladi;

II guruh - keskin geologik tuzilishli, ma'dan-tanlarining qalinligi va ichki tizimi va sifati o'zgaruvchanlikka ega, joylashish holati darzliklar mavjudligi sababli o'zgargan hamda foydali komponentlar bir xil tarqalmagan foydali qazilma konlaridan iborat. Shu guruh konlarining zaxiralari "V" (20% gacha) va "C₁" toifalari bo'yicha baholanadi. O'zbekiston Respublikasida: titan-magnetitli foydali qazilma konlari (Tebinbuloq), vulkanogen-cho'kindi genezisli Temirkon; shtokverk misli, keskin va murakkab shaklli obyektlar (Qalmaqir, Dalnee); skarn ma'danli uyumlar (Ingichka, Qoytosh, Yaxton); katta yo'nalishli 1km. dan ziyod minerallashgan va tomirsimon zonalar (Muruntau) va h.k.;

III guruhga - juda murakkab geologik tuzilishli, tanalarining ichki tuzilishi, sifati, qalinligi juda keskin o'zgaruvchanlikka ega yoki tanalar joylashishi darzliklar mavjud bo'lgani sababli keskin o'zgarishga uchragan va foydali komponentlar tarqalishi o'ta bir xil bo'lmagan, foydali qazilma konlari kiradi. Bu

guruh tarkibidagi konlarda yuqori toifali zaxiralarga asoslanish razvedka ishlari qimmatligini hisobga olganda unumli bo‘lmaydi, ya’ni asosan, “C₁” va ancha kamroq “C₂” toifalar qo‘llanadi. O‘zbekiston Respublikasida: truba va linzasimon, keskin tuzilishli, ma’dan tanalarining qalinligi hamda komponentlar (qo‘rg‘oshin, rux) tarqalishi juda bir xil bo‘lmagan Sumsar, Qansay; linzasimon skarnlar (volfram) konlari Yaxton; minerallashtirilgan va tomirsimon zonalar (yo‘nalishi bir necha yuz metrda) oltin konlari Kokpatas, Daugiz, Zarmitan, Kochbuloq;

IV guruhga - metallar va noma’dan xomashyo konlari tuzilishi o‘ta keskin, tanalar qalinligi sifati ichki tuzilishi o‘ta o‘zgaruvchanlikka ega. Foydali komponentlar tarqalishi o‘ta bir xil emas, darzliklar ko‘p bo‘lgan va razvedka jarayonida katta hajmda yer osti lahimlari o‘tishi shart bo‘lgan foydali qazilma konlari kiradi. Zaxiralar -“C₁” va “C₂” toifalari bo‘yicha belgilanadi. Bu guruhdagi obyektlarda razvedka ishlari albatta o‘zlashtirish (qazib olish) jarayoni bilan birlashtiriladi. Mustaqil sanoat turiga mansub bo‘lgan IV guruh konlari juda kam. Kobalt va sochma konlardan - oltin, platina konlari bundan mustasno.

8.1.1. Tasdiqlangan va uslubiy ko‘rsatma asosida tavsiya etilgan foydali qazilma konlarini qidirish bosqichlari va ularning qisqacha mazmuni

8.1.1.1. - jadval

Nomi	Ishlarning maqsadi	Ishlar natijasi	Bosqich ishlar rejasi
I bosqich			
O‘zbekiston Respublikasi hududini regional geologik o‘rganish.	Katta regionlarning geologik tuzilishini va shu doirada foydali qazilma vujudga kelishi qonunchiligini o‘rganish.	Davlat geologik xaritasi asosida foydali qazilmalarga qulay regional geologik holatlarni va ularni izlash mezoni hamda alomatlarini qabul qilish.	
Bosqichning qismlari			
A.Regional geologik-geofizik tadqiqotlar. M1:1000000-1:500000.	Regionning geologik tuzilishini va foydali qazilmalar joylashish umumiy qonunchiligining muhim xususiyatlarini aniqlash uchun geologik-geofizik asosni tuzish.	Geologik, geofizik va bashorat xaritalari hamda geologik regionlarning tayanch chuqurligidagi qirqimlar.	Ma’lum vaqtda doimo, foydali qazilmalar to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘ilishi sababli xaritalarga o‘zgartirish kiritish maqsadida

			bajariladi.
B.Regional geofizik, geotasvirlash gidro va muhandislik ishlari M 1:200000, M 1:100000.	Istiqbolli geologik holatlarni aniqlash uchun, regionning geologik tuzilishini o'rganish va foydali qazilmalarni izlash mezoni hamda alomatlarini asoslash.	Maxsus geologik xaritalar majmuasi: gravitatsion, magnit, radiometrik va h.k. Foydali qazilmalar xaritasini bashoratlangan maydon va strukturalarni ajratgan holda tuzish hamda ularning geologik-iqtisodiy ahamiyatini aniqlash.	Region geologik xaritalashda foydali qazilmalar mavjudligi aniqlansa, qidiruv ishlarini boshlanishiga shu holat asos bo'ladi.
II bosqich			
1:50000 (1:25000) mashtabli geologik xaritalash.	Hudud tuzilishini katta masshtabda reja bo'yicha o'rganish hamda foydali qazilmalar joylashuviga qulay sharoitlarni yangilash maqsadida, oldin tasvirlangan maydonlarni qo'shimcha o'rganish. (FQK)lari mavjud bo'lgan va konchilik korxonalarini bor hududlarda ma'danli maydonlarni foydali qazilmalarning joylashish qonunchiligini tushunish maqsadida o'rganish va istiqbolli hududlarning (yopiq) bashoratini baholash.	O'rganilgan hududlarning davlat geologik xaritasi; izlash ishlarini belgilash maqsadida foydali qazilmalar, bashoratli maydonlar ajratilgan, geologik xarita. Ular bo'yicha foydali qazilmalar bashoratli resurslarini "R ₂ " toifasi bo'yicha baholash va geologik-iqtisodiy ahamiyatini aniqlash.	Foydali qazilmalar mavjudligi aniqlanganda, geologik xaritalash yakunlanmasa ham, keyingi bosqichga o'tish ishlariga tayyorgarlik boshlanadi.
III bosqich			
Izlash ishlari.	(FQK)larni topish va kelajakda o'rganish samarasini aniqlash.	(FQK)larini topish va "P ₁ "; "P ₂ " toifa bo'yicha bashoratli resurslarni baholash.	
Bosqich qismlari			
A) Kelajakka mo'ljallangan	Ma'lum geologik holatdagi foydali	Ma'danning joylashuvi qonunchiligini ko'rsatuvchi	Salbiy natijalar mavjud bo'lsa

maxsus ishlar.	qazilmalar kompleksini aniqlash maqsadida belgilangan istiqbolli maydonlarda geokimyo, geofizik, shlix va h.k. tadqiqotlarini o'tkazish.	geokimyo, geofizik va boshqa xaritalar hamda qirqimlarni tuzish. Istiqbolli maydonlarni ajratish va ularni "P ₂ "toifa bo'yicha baholash. Ajratilgan obyektga geologik-iqtisodiy baho berish.	hisobot tuziladi. Ijobiy natijada ikkinchi (B) qism ishlarini o'tkazish loyihasi tuziladi.
B) Izlash ishlari.	Oldingi ishlar natijasida ajratilgan istiqbolli maydonlarda izlashni o'tkazish.	Foydali qazilma joylashuvining qonunchiligini ko'rsatuvchi 1:25000dan 1:1000gacha masshtabli geologik xaritalar va ularga tegishli qirqimlar.	
IV bosqich			
Baholash.	Aniqlangan (FQK)larini baholash va ularni razvedkaga tayyorlash.	Aniqlangan foydali qazilma konlarining sanoat uchun ahamiyati borligini tasdiqlash. Zaxiralarini "C ₂ ","C ₁ " toifa bo'yicha ajratish va bashoratli resurslarni "P ₁ " toifaga muvofiq baholash.	Foydali qazilma borligini aniqlagan holda, tasvirlash va izlash bosqichlaridan so'ng baholash ishlari belgilanishi mumkin.
A) (FQK) larini dastlabki baholash.	Foydali qazilmani aniqlash uchastkasida joylashuvi qonunchiligini mufasallashtirish va sanoat uchun ahamiyati borligini baholash.	(FQK)larini mufassal baholash ishlarini o'tkazishga zaruriyat borligini hal qiluvchi texnik-iqtisodiy ma'lumotni tuzish.	Salbiy natijalar sababli va TIM asosida, obyektida dastlabki baholashdan so'ng ishlar to'xtatiladi hamda hisobot tuziladi.
B) (FQK) larini mufassal baholash.	(FQK)larining sanoat uchun ahamiyatini baholash.	"S ₂ " zaxiralarini birinchi navbatda o'zlashtirish uchastkalarida esa - "S ₁ " toifalar bo'yicha aniqlash va konni qidiruv ishlarini asoslash uchun texnika-	TIA (texnik-iqtisodiy asoslash) natijasi ijobiy bo'lgan holda, yaqin vaqtda

		iqtisodiy axborot tuzish.	(FQK)larini o'zlashtiruvchi tashkilot ishtirokida qidiruv bo'yicha qaror qabul qilinadi. Istisno tarzida o'zlashtirish ishlari uchun, keyingi bosqichni o'tkazmasdan qaror qabul qilinishi mumkin.
V bosqich			
Razvedka qilish.	Konni yoki uning bir qismini sanoat tomonidan o'zlashtirishga tayyorlash.	(FQK)lari razvedkasiga bo'lgan talablarga muvofiq uning moddiy tarkibi, foydali qazilmaning texnologik xossasi, gidrogeologik, muhandislik-geologik, konchilik-geologik, hamda tabiiy sharoitlarni har tomonlama o'rganish. Zaxiralar razvedkasi "C ₁ " va "C ₂ ", I, II murakkabligi guruhiga tegishli konlarda-zaxiralar qismi "V" toifa bo'yicha o'tkaziladi; (FQK)larini o'rganish to'g'risida texnik-iqtisodiy hisobot tuziladi, konni o'zlashtirish loyixasini ta'minlaydigan zaxiralar toifalari hisoblanadi va ular O'zbekiston Respublikasi Davlat zaxira komissiyasi (DZK) tomonidan tasdiqlanadi, bashorat	O'zlashtirish loyihasi razvedka kon lahimlari inobatga olinishi kerak.

		resursini “R”toifada konning chetida va chuqurligida baholanadi.	
VI bosqich			
Razvedka ishlarini qo‘shimcha olib borish zaruriyati.	Foydali qazilmaning o‘zlashtirilgan zaxiralarini qayta qo‘shish yoki korxonaning xomashyo bazasini kengaytirish maqsadida konning chet va chuqur qismlarini qayta o‘rganish (qo‘shimcha razvedka ishlarini olib borish).	Qo‘shimcha olib borilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni birlashtirish. “C ₂ ”va”C ₁ ” toifali zaxiralarni yuqori darajaga o‘tkazish. Zarur holatda, foydali qazilmalar zaxirasini qayta hisoblash, DZKsida konditsiyalar TIX hamda zaxiralarni qayta tasdiqlash.	O‘zlashtirish ishlari olib borilayotgan (FQK)larida, oldin razvedka orqaliy hisoblangan zaxiralar doirasida; shu ishlar olib borilmaydigan foydali qazilma konlarida esa boshqa korxonaga o‘tkazilgan zaxiralar chegarasida.
VII bosqich			
Eksplutatsion razvedka (tog‘ korxonaga o‘zlashtirish ishlari olib borilayotgan holda razvedka qilish).	(FQK)lari zaxirasini o‘zlashtirishning to‘laligi va sifatligini nazorat qilish hamda qazib olishni tezkor loyihalash maqsadida razvedka qilish davrida qazib olishga tayyorlangan (FQK) tanalarining sifati (miqdori), joylashuv holati va h.k. to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlab chiqish.	Qazib olishga tayyorlangan bloklar zaxirasini tezkor hisoblab chiqish. (FQK)lar hajmini qazib olishga tayyorlaydigan va tozalash lahimlarini aniqlashtiradigan materiallar. Konni to‘la qazib olish nazoratiga asos bo‘luvchi ma’lumotlar hamda foydali qazilmani yer ostida qoldirish va chaykalashtirish (miqdori kamayishi)ni aniqlash.	Konchilik otvod doirasida o‘tkaziladi.

8.1.2. Razvedka ishlarining tizimlari va texnik vositalari

Geologiya - qidiruv ishlarining samaradorligi asosan tadqiqot maydonida qo‘llanadigan va foydali qazilmalar konlarini geologik jihatdan tuzilish xususiyati bilan bog‘liq, razvedkaning texnik vositalarini tanlashdan iborat bo‘ladi (burg‘ilash

quduqlari, kon lahimlari, geofizik usullari). Shu vositalar qatorida, ish zaruriyatidan kelib chiqadigan maqsadga muvofiq, birlashtirish (birga qo'llanish)dan razvedka sistema turi vujudga keladi: burg'ilash, tog' lahimlarini burg'ilash ishlari bilan, kon lahimlari orqali ish olib boriladi.

Foydali qazilmalar konlari razvedkasi o'tkazilganda qabul qilingan sistema turining geologik ma'lumotlari to'la va unumli bo'lishi kerak. Sistema turi tanlovida qo'shimcha geologik ma'lumotlar olishga muvofiq bo'lgan zamonaviy geofizik tadqiqot usullari o'z ta'sirini o'tkazadi, chunki ularni qo'llanish natijasida burg'ilash ishlari hajmini ancha kengaytirish mumkin bo'ladi va qimmatbaho kon lahimlari sonini foydali qazilmalar konlarini geologik-iqtisodiy baholashning ishonchligini pasaytirmasdan kamaytirish mumkin.

Texnik vositalar turlaridan foydalanishda ularning yutuq va kamchiliklariga asos bo'luvchi moddiy xarajatlar hamda razvedka ishlariga ketgan vaqtga olingan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligiga e'tibor beriladi (31 - rasm).

Foydali qazilmalar mavjud bo'lgan maydonlarda katta chuqurlikdan kam tannarxda va nisbatan tezlik bilan ma'lumot olish mumkinligi, Burg'ilash turini tanlash tushuniladi. Ayniqsa, oddiy geologik tuzilishga ega konlar razvedkasida burg'ilash ishonchli ma'lumot berishi mumkin.

Geologik tuzilishi murakkabligi bo'yicha I va II guruhga kiradigan temir, margenes, xrom, nikel, mis, qo'rg'oshin, rux, boksit konlari razvedkasida burg'ilash sistemasi ayniqsa keng qo'llanadi.

Bu foydali qazilmalar tanalarining ancha qalinligi va yo'nalishli qatlam, plita, linzasimon hamda shtokverk shaklda bo'ldi. Foydali komponentlar o'zgaruvchanligi unchalik yuqori bo'lmaydi.

Yer osti kon lahimlari bu turdagi ma'danli tanalarni o'rganish maqsadida o'ta kam hajmda qo'llanadi, katta og'irlikdagi texnologik namunalarni olishda va kern namunalashni tekshirish uchun o'tkazilishi mumkin.

Shu bilan birga, burg'ilash sistemasini qo'llash, razvedka natijalarining ishonchligini pasaytiradigan, kern chiqimi qoniqarsizligi, kernga asoslanib, ma'danli tanalarni yoritish elementlarini ishonchli aniqlash mumkin emasligi, burg'ilash quduqlarining zenit hamda azimut o'zgarishi, kern ishqalanish natijasida vazni kamayishi qator kamchiliklarga ega.

Aylanma burg'ilash holatda ichi bo'sh bir uskuna yordamida tog' jinslarining bir qismi (kern) olinadi va shu asosda foydali qazilma konlariga tegishli geologik kolonkalar (qirqimlar) tuziladi. Kern butun ma'dan o'zlashtiruvchi va qisman ularga nisbatan tog' jinslaridan olinadi. Quduqlarning o'qi yo'nalishi: tik, qiyasimon va gorizontal bo'ladi.

Tik burg'ilashda (ancho chuqurlikda) ma'dan tanasi bilan quduqning kesib


o'tish burchagi 30° dan kam bo'lmasligi kerak.

Kolonka (kernli) burg'ilash - "ZIF-300M", "ZIF-650M", "ZIF-1200MR", "SBA-500", "SBA-800", "UKB-7" va h.k. Sochma konlarda, shtokverk va 20-250 gacha yotiq burchakli ma'danli tanalar razvedkasida hamda tog'-kon korxonalarida tushgan davrda karyer ayvonlarida (ustuplarida) portlatish maqsadida zarba berish usuli (zarba-arqonli) yordamida (max chuqurligi 150 m. va max quduq tubi diametri-600 mm. gacha) o'tiladi.

Bu burg'ilash turiga tegishli uskunalari: "UKS-22", "UKS-30", "UKS-50M" va h.k.

Tog' sistemasi (kon lahimlardan iborat) guruhida razvedka ishlari olib boriladigan foydali qazilmalar konlarining geologik xususiyatlari o'zgaruvchanligi to'g'risida to'la va nisbatan ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi. Ayniqsa geologik tuzilishi murakkab bo'lgan hamda foydali komponentlar tarqalishi o'ta bir xil bo'lmagan holatdagi foydali qazilmalar konlarida shu sistema qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guruh tarkibiga: kanava, shurf, shtolnya, turli maqsad ravishda o'tiladigan (kvershlag, shtrek) lahimlar kiradi (32 - rasm).



31 – rasm. Magistral kanavalar yordamida tomirsimon tanalarni razvedka qilish (V.M. Kreyter bo'yicha):


1-ma'dan tomirlari; 2-magistral kanavalar; 3-turli tomirlarga bog'liq kanavalar

Tog' - burg'ilash guruhlarida sistemasi tarkibida zarba-arqonli va kolonkaviy (kernli) burg'ilash, shurf yoki shaxta yordamida nazorat hamda texnologik namuna olish ishlarini olib borishga turli razvedka shtolnyalardan yer osti burg'ilash


usullaridan foydalanish qulaydir.

Guruhlar sistemasi tanlovida uning geologik talablarga mos kelishiga, ya'ni foydali qazilmalar konlarining strukturaviy hamda morfologik xususiyatlariga, tanalarning shakli, tuzilishi, moddiy tarkibi, o'zgaruvchanlik darajasi va shu kabilarga e'tibor beriladi.


Turli guruhlardan iborat bo'lgan razvedka ishlari olib boriladigan sistema yordamida yo'nalish bo'yicha: ma'danli tanalarning yo'nalishga ko'ndalang (qalinligi bo'yicha) va yo'nalishga parallel tomon bo'yicha kerakli ma'lumot olish mumkin (33 - rasm).



32 – rasm. Ma'dan tanasini shaxta va kvershlag orqali o'zlashtirish (V.I. Biryukov bo'yicha):
1-mezo-kaynozoy qatlam;
2-foydali qazilmalar tanasi;
3-qamrab oluvchi jinslar.



33 - rasm. Razvedka gorizontining (shtrek) plani.
1-diorit; 2-o'zgaruvchi jinslar zonasi; 3-ma'dan uyumi



34 - rasm. Semiz – bug‘z koni razvedkasida qo‘llangan rassechkali shurflar sistemasi (P.M. Tatarinov bo‘yicha):

1-ikkilamchi kvarsit; 2-andaluzitli jinslar; 3-korundli uyumlar; 4-delyuviy.

Texnik vositalarga geofizik usullar ham kiradi: kon lahimlarida seysmik magnetometrik yadroviy va h.k. burg‘ilash quduqlarida tegishli va har xil tadqiqot ishlari o‘tkaziladi.

Faqat kon lahimlari yordamida razvedka ishlari III va IV guruhlariga tegishli oltin, simon, surma, volfram, molibden va qalay konlarini o‘rganishda qo‘llanishi mumkin. Ular orqali olingan ma‘lumotlar “B” toifali zaxiralarni (II guruh konlarida) va “C” toifali (III, IV guruh konlarida) zaxiralarni hisoblashda (burg‘ilash natijalari yordamida) foydalaniladi.

Razvedka samaradorligini oshirish uchun ko‘p tubli burg‘ilash usuli va yer osti lahimlardan bir nuqtadan ko‘p tomonga (va yer) burg‘ilash usuli qo‘llanadi.

Foydali qazilma konlari geologik tuzilishining murakkabligi va razvedka ishlari borgan sari chuqurlashishi geologiya-qidiruv ishlarining iqtisod jihatidan unumligini doimo oshirishni talab qiladi. Bu muhim masalani geologik tadqiqot, geofizik va geokimyoviy ishlar bilan birlashtirib, kompleks asosda yechish mumkin. Geokimyoviy usul yordamida yangi ma‘danli tanalarni topish yoki razvedka ishlari olib borilayotgan tanalarni chuqur davom etishini baholash imkonini beradi va qulayligi razvedka sistemasini tanlashga o‘zi ta‘sir qilmaydi. Geofizik tadqiqot usullari esa, yer ustidagi hamda quduqda va tog‘-kon korxonalar holatida, ma‘danli tanalar chegaralarini tasdiqlash amaliyotida ancha ishonchli ma‘lumotlar berishi mumkin. Bundan tashqari, geofizik usullarning qo‘llanishi II, ba‘zan III guruhga kiradigan foydali qazilma konlarida lahimlarsiz razvedka olib


borishga va razvedka turini kengaytirish imkonini berishi mumkin. Turli geofizik asosda namunalash natijalari asosida foydali qazilma konlarida zaxiralari hisoblangan, misol “Agatachibergata” konida qo‘llanadi.

Sulfidli ma‘dan maydonlarida quduqlar elektrorazvedkasi hamda yadroviy geofizik usullari kvars-tomirsimon foydali qazilma konlarida esa - pyezoelektr gamma-karotajlar qo‘llanadi.

Hozirgi vaqtda ma‘danli konlar razvedkasida 15 dan ziyod quduqda geofizik usullardan foydalaniladi va ushbu tadqiqot ishlariga mos maxsus uskunarlar ishlab chiqarilgan.

8.1.3. Razvedka ishlarini o‘tkazish usullari

Usullar quyidagilardan iborat: geologik, topografik va marksheyderlik asosida (1:10000 dan 1:500 gacha yer yuzasida va 1:1000 dan 1:500 gacha yer ostida) razvedka lahimlar hamda Burg‘ilash quduqlarini kuzatish punktlarini (nuqtalar) (yer ostida) tasvirlash ishlariga bog‘lab va birlashtirib - belgilangan talabga muvofiq masshtab bo‘yicha katta masshtabli, razvedka maqsadiga to‘g‘ri keladigan, geologik xaritaga asos yoritiladi (35 – rasm).




35 - rasm. Gorizontal razvedka qirqimlar sxemasi

Razvedka jarayonida lahimlar yoki burg'ilash quduqlarini o'lchash natijasida olingan ma'lumotlar ayniqsa qimmatli hisoblanadi.

Ishchi geologik xarita va razvedka o'tkazish profillar bo'yicha lahimlar va quduqlardan iborat bo'lgan qirqimlarning dastlabki varianti mufassal baholashda, to'lasiga esa - razvedka bosqichida tuziladi.

Bu ishchi geologik xaritada tog' jinslarini ma'danni o'zlashtiruvchi formatsiyalar, ma'danlarning chegarasini belgilaydigan gorizontlar (qatlamlar), tanalar doirasi, vujudga kelgan tektonik harakat elementlari, metasomatik o'zgargan tog' jinslari belgilanadi.



36 – rasm. Kanavalarni hujjatlashtirish. (V.I. Biryukov bo'yicha):


1 - kaynozoy qatlam; 2-delyuviyil qatlam; 3-gneys va slanetslar; 4-aplit; 5-pegmatit; 6-ma'dan.

Kon lahimlari va burg'ilash quduqlarida geofizik tadqiqotlar o'tkazish usullari. Hal qilinuvchi masalalar kompleksi bo'yicha universal (juda unumli) va yuqori samarali hisoblanadi.

Ular quyidagi holatlarda keng qo'llanadi: lahimlar va burg'ilash quduqlari ma'danni kesib o'tgan joylarni aniqlashtirish, jumladan interpretatsiya hamda ekstrapolyatsiya o'tkazishda, foydali qazilma konlari bo'yicha, xullas, zaxira hisoblash sifati uchun ko'rsatkichlarni belgilashda qo'shimcha ma'lumot beradi.

Burg'ilash quduqlarida geofizik tadqiqotlar (karotaj ishlari) keng rivojlangan.

Karotajni o‘tkazish mazmuni: quduqlar ichida tabiiy va sun‘iy ta’sir orqali vujudga kelgan fizik maydonlarni qo‘zg‘atish, maxsus uskuna - zondga o‘z ta’sirini o‘tkazish hamda ularni raqamlar sifatida hisobga olish yoki ishlov berish, boshqa qabul qiluvchi uskunalar yordamida registratsiya qilishdir.



37 - rasm. Shurfni hujjatlashtirish (V.I. Biryukov bo‘yicha):

1-kaynozoy qatlam; 2-biotitli gneyslar; 3-amfibolli gneyslar; 4-aplitning daykasi; 5-pegmatitlar; 6-pegmatitlar(anografik strukturali); 7-kvars-muskovit; 8-biotit; 9-yoriqliklar.

Jumladan, shu qo‘zg‘atish natijasida: fizik maydonlarning qarshiligi (mq), radiografik nurlanishi (gamma- karotaj), magnit- karotaj (mk) va boshqa ma’dan va uni o‘zlashtiruvchi tog‘ jinrlarining xususiyatlari aniqlanadi.

Kon lahimlarida geofizik tadqiqotlardan radiometrik usullari keng qo‘llanadi. Uran, sheelit, olmos foydali qazilma konlarni razvedka qilishda lyuminessent usuli yordamida samarali ma’lumot olish mumkin. Lahimlar orasini hamda rassechkalar o‘rtasida ma’danli tanalarning “soyasi” orqali qiyofasini aniqlash uchun radio to‘lqinli rentgen usulidan foydalanish ham rivojlangan.

Foydali qazilma koni razvedkasida geokimyoviy tadqiqotlari eroziya

chuqurligi, ma'danli tanalarni interpolyatsiya va ekstrapolyatsiya qilishda, ma'dan mavjud bo'lgan chuqur gorizontlarni baholashda kon lahimlar hamda quduqlardan geokimyoviy namuna olish orqali qo'llanadi. Namunalar ishlov berishdan so'ng laboratoriyaga (tajriba o'tkazish uchun) spektr tahlil bo'yicha ma'lumot olish uchun yuboriladi, so'ngra shunga asoslanib, tarqalish birlamchi oreollar doirasi tuziladi.

Tarqalish birlamchi oreollarni razvedka davrida chuqurlikka bo'lgan o'zgaruvchanligini (zonalnost) o'rganish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mineralogik tadqiqot ishlari quyidagi vazifalarni yechishga yo'naltirilgan:

Ma'danlarning to'liq mineral tarkibini, ma'dan atrofidagi metasomatitlarni, minerallar vujudga kelishi shakllarini, asosiy va qo'shimcha foydali komponentlar hamda foydali, zararli elementlarning joylashuvini aniqlash;

Ma'danlarning mineral tarkibi, tekstura va strukturalari bo'yicha tabiiy turlarni ajratish;

Minerallarning kesimlarga asoslanib, yer yuzasidan chuqurlikkacha joylashuvini (zonalnost) o'rganish;

- razvedka profillari bo'yicha samarali ma'lumotlarga ega bo'lgan holda kesimlarni tuzish.

- razvedka maqsadiga muvofiq namunalash ishlarini olib borish.

8.1.4. Razvedka to'rlarining shakli, zichligi va yo'nalishi

Razvedka sistemasiga kiradigan burg'ilash quduqlari va kon lahimlari ma'lum yo'nalishli chiziqlarda (profillarda) joylashadi.

Shu quduq va lahimlar ma'dan tanalarini kesib o'tgan joylar nuqta yoki interval tarzida bo'ladi, ular adabiyotlarda "kuzatuv nuqtalari" deb ataladi.

Ularga asoslanib, turli qirqimlar, gorizont planlar (lahimlar bo'yicha) tuziladi.

Razvedka sistemasini tashkil qilgan quduqlar va tog' lahimlar joylashuviga aniq va ishonchli ma'lumot olish maqsadida, o'zgaruvchanlik yo'nalishi (ma'dan qalinligi bo'yicha), nazorat (kuzatish) nuqtalari orasidagi masofa, ya'ni razvedka chiziqlarini minerallashuv zonasi yo'nalishiga ko'ndalang o'tkazgan holda bu profillar oraliq masofasiga nisbatan ancha kam bo'ladi. Shu holatda uzun to'rtburchakli razvedka turi mavjud bo'ladi.

Agar razvedka ishlari olib borilayotgan ma'dan maydoni izometrik shakli (aylanma) bo'lsa, kuzatuv nuqtalari orasi teng qabul qilinadi va to'r shakli kvadratsimon bo'ladi.

Razvedka to'rining shaklini tanlashda razvedka prinsiplari inobatga olinadi.

To'liq o'rganish prinsipi kuzatuv nuqtalarining ma'lum tartibda joylashuviga

asos bo‘ladi;


Analogiya (tajriba orqali bir prinsipni qo‘llash) prinsipi o‘xshash foydali qazilma konlarida kuzatuv nuqtalari orasidagi masofa razvedka to‘rining shakli va yo‘nalishi bo‘yicha ma‘lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi, ayniqsa, mufassal baholash bosqichida yordam beradi;

Katta maydonda, tadqiqot ishlari natijasiga asoslanib, bir qismiga o‘tib, katta masshtabda geologiya-qidiruv ishlarini unumli davom ettirish prinsipi razvedka to‘rini zichlashga, ya‘ni kuzatish nuqtalari orasidagi masofalarni ikki barobar kamaytirishga asos yaratadi.

Tadqiqot ishlarini samarali o‘tkazish prinsipi ekstrapolyatsiya usuli yordamida, ma‘dan uchratgan burg‘ilash quduqlari va tog‘ lahimlari tashqarida chegaralash doirasini o‘tkazish bilan bog‘liqdir. Geologik-tadqiqot ishlariga unumli mablag‘ va vaqt ketkazish prinsipi razvedka to‘rining optimal (me‘yorli) zichligiga bog‘liqdir.

Razvedka sistemasidan iborat bo‘lgan kon lahimlar va quduqlar qabul qilingan to‘rining kataklar burchaklarida joylashishi kerak. Shu talab ko‘zda tutilsa, razvedka chiziqlar asosida tuzilgan qirqimlar bo‘yicha ma‘lumotlar ishonchli bo‘ladi.

Ya‘ni, to‘rning shakli va yo‘nalishi foydali qazilma konlari geologik tuzilishi xususiyatlariga, jumladan ma‘danli tanalar morfologiyasi va ma‘dan vujudga kelishi o‘zgaruvchanligiga to‘la e‘tibor berilsa, to‘rlar zichligini kengaytirish natijasida vaqt hamda ketadigan mablag‘larni unumli tejash mumkin.



38 - rasm. Foydali qazilma tanalarini chegaralashning universal usullari:

A - krest usuli; B – razvedka, lahimlar asosida chegaralash.

8.1.5. Foydali qazilma konlari sifatiga tegishli konditsiyalar

(Sanoat uchun iqtisodiy talablar)

Konditsiya - foydali qazilmalar sifati va ularni o'zlashtirish davridagi konchilik-texnikaviy sharoitlarga, texnik-iqtisodiy talabdan kelib chiqqan ko'rsatkichlarni inobatga olgan holdagi talablar majmuasidir.

Foydali qazilmalar uchun ishlab chiqilgan bu iqtisodiy talablar balans (javob beradigan) va zabalans (doiradan chetdagilar) zaxiralarni chegaralash (kontur o'tkazish) hamda hisoblash uchun qo'llanadi.

Konditsiyalar doimiy va vaqtincha turlarga bo'linadi.

Vaqtinchalik konditsiyalar baholash va razvedka o'tkazish davrida zaxiralarni dastlabki, tezkor hisoblashda qo'llanadi.

Doimiy konditsiyalar, foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha respublika Davlat komissiyasiga tasdiqlash maqsadida taqdim etish uchun hisoblangan zaxiralarga asos bo'ladi.

Ushbu ikki turdagi konditsiyalar tarkibida quyidagilarga e'tibor beriladi:

1-Foydali qazilma konlarining sanoat uchun o'zlashtirish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni hisobga olish ko'rsatkichlari;

2-Foydali qazilma konlarining o'zlashtirish texnologiyasini hisobga olish ko'rsatkichlari;

3-Foydali qazilmalarni qayta ishlash texnologiyasini hisobga olish ko'rsatkichlari.

Birinchi konditsiya ko'rsatkichlari guruhiga quyidagilar kiradi: ma'dan tarkibida mavjud bo'lgan foydali komponentlarning eng kam sanoatbop miqdori (1); murakkab, foydali komponentlar tarqalishi o'ta bir xil bo'lmagan va chegaralash ishlarini o'tkazish o'ta noqulay sharoitga ega, foydali qazilmalar uchun ma'dan vujudga kelish koeffitsiyenti (2); foydali komponentning chegaraviy miqdori (bort) (3); konchilik ishida ochiq usul bilan o'zlashtirish. Foydali qazilmalar va bo'shliq jinslarining qalinligi yoki hajmi kelib chiqishining maksimal holati (4) ochiq usul bilan o'zlashtirish konchilik ishida ma'dan qazib olish chuqurligining holati (5).

1) balansli zaxiralar bo'lgan ma'danlar foydali komponentlarining miqdorini ko'rsatadi. Agar miqdor shu belgidan yana past bo'lsa, ma'dan balansdan tashqari, ya'ni hozircha iqtisodiy talablarga javob bermaydi.

Eng kam sanoatbop miqdori tushunchasi – ma'danni sanoat uchun qimmatini uning sonini (tonnada) hisobga olgan holda o'zlashtirishga ketgan mablag'ga tengligidan kelib chiqadi. Ma'danning eng kam sanoat miqdori foydali qazilma konlari tarkibidagi foydali komponentlarning o'rta miqdori bo'yicha unumligi

hisobi koeffitsiyenti sifatida qabul qilinishi mumkin. Vaholanki, agar ma'danning o'rtacha miqdori eng kam sanoatbop miqdoriga teng bo'lganda konni o'zlashtirish unumli (rentabelli) bo'lmaydi. Shundan eng kam sanoatbop miqdori qaysi eng katta ma'danli blokga yoki gorizontga (uchastkaga) tegishli o'zlashtirish jarayonining muhim masalalaridan biri bo'lib qoladi.

2) ma'dan vujudga kelish koeffitsiyenti ma'danning geologik-strukturaviy joylashuvi murakkab bo'lgan tanalari uyali, mayda tomirsimon shaklli foydali qazilma konlarida qo'llanishi mumkin. Ularning morfologiyasi keskin va turli ma'danli tanalari mayda bo'lishi chegaralash jarayoniga salbiy ta'sirini o'tkazganligidan, hajmlari ma'danli koeffitsiyenti (maydon va tanalarni uzunligini solishtirish) orqali hisoblanadi.

3) foydali komponentlarning chegaraviy miqdori kam bo'lgan foydali komponentlarni olingan namuna tarkibiga asoslanib foydali qazilmalarning uyumlarini chegara (bort)ga o'tkazilishi.

Agar foydali qazilma va ularni o'zlashtiruvchi tog' jinslar orasida aniq chegara (tabiiy) bo'lmasa, bu holat konturli namunalash natijalari asosida o'tkaziladi va miqdori konditsiya tarkibiga kiritiladi.

Ushbu ko'rsatkichdan foydalanishda chambarchas bog'liq texnik-iqtisodiy parametrlar hamda foydali qazilma konlarini sanoat o'zlashtirilishini hisobga olish kerak.

4) bu ko'rsatkich qo'llanganda (ochiq usul bilan qazib olishda) ikki holat yuzaga kelishi mumkin: olib tashlaydigan bosh jinslarning fizik - mexanik xususiyatlari foydali qazilma bilan juda aniq bo'lishi; bosh jinslarning shag'al, qum, tuproqdan iboratligi.

Birinchi holatda, bo'shliq tog' jinslarini qazib olish sharoiti foydali qazilma bilan o'xshash bo'ladi (ish unumi, tannarxi), ikkinchisida esa qazib olish maxsus usullarni qo'llashni talab qiladi, ya'ni foydali qazilmaning 1m^3 ni qazib olish tannarxi, bo'shliq tog' jinslarini 1m^3 ni tannarxi, bo'shliq tog' jinslarni chegarasi raqami.

Ikkinchi konditsiyalar ko'rsatkichi guruhiga quyidagilar kiradi: ma'danli tanalarning eng kam qalinligi (1); bo'sh va foydali komponentlarning miqdori kam bo'lgan konditsion emas, ammo balansli zaxira doirasiga qo'shilgan jinslarning qatlamlarini maksimal hamda belgilangan (iqtisodiy tomondan) qalinligi (2). Bu ko'rsatkichlar birinchi guruh tarkibidagi raqamlarga ko'ra, qazib olish sistemasi va konchilik ishlarining mexanizatsiyalash darajasi bilan bog'liqdir va tegishli hisobot olib borish loyihalash tashkilotlariga topshiriladi.

1) tik yotgan tomirsimon tanalarning eng kam o'zlashtirish qalinligi 0.7-1.0. Burchagi kam qatlamsimon tanali foydali qazilma konlarida (temir, marganes)-1,4-

1,7 metrdan iborat bo'ladi.

2) bu ko'rsatkich raqami yer osti usuli bilan qazib olish holatda 1-2,1 metrga, yer usti usulida esa 2-4,0 metrga teng bo'ladi.

Boyitish fabrikasi qurilishiga ketgan mablag' tannarxini zamonaviy konchilik uskuna va mexanizmlaridan foydalanish hamda samarali o'zlashtirish sistemalarini qo'llash yordamida iqtisodiy masalani ijobiy hal qilish mumkin.

Uchinchi konditsiyalar ko'rsatkich guruhiga quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

1) qayta ishlashga asos bo'luvchi ma'danlarning texnologik xususiyatlarini hisobga olgan holda turlarga ajratilishiga bo'lgan talablar;

2) zaxiralarning hisobga tegishli qo'shimcha foydali komponentlari ro'yxati va ularni hisobga olish tartibi;

3) zararli komponentlarning talabga muvofiq eng ko'p miqdori va namunalarda mavjud bo'lgan miqdorining yuqori bo'lgan me'yori.

9-BO'LIM

9.1. FOYDALI QAZILMALARNING ZAXIRALARINI HISOBLASH

Zaxirani hisoblash jarayonining mazmuni geologik-qidiruv ishlaridagi geologik, geofizik, geokimyoviy va boshqa tajribalar orqali olingan ma'lumotlar majmuasi hamda har tomonlama tahlillardan iboratdir. Hisoblash natijasida foydali qazilma konlarning geologik sanoat modeli tuziladi va uning tarkibi geologik jihatdan o'rganish ma'lumotlaridan iborat bo'ladi, zaxiralar yoki foydali qazilmalarning bashoratli resurslari baholanadi. Shu bilan birga geologik - qidiruv parametrlari (raqamli ko'rsatkichlari) ko'zdan kechiriladi.

Foydali qazilmaning strukturaviy holati, konlarning morfologiyasi va foydali komponentlar tarqalishi xususiyatlari bo'yicha olingan ma'lumotlarning to'g'riligi hamda unumligi bilan, zaxiralar va resurslar zaxiralar hisobining baholanishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Geologiya-qidiruv jarayonida zaxiralarni hisoblashda uch usul qo'llanib kelmoqda: qirqimlar, geologik va ekspluatatsion bloklar. Bu tarmoq tadqiqotchilar fikri bo'yicha hisoblash usullarini umumlashtirgan holda o'rta arifmetik hisoblash usuli deb nomlanishi mumkin.

Hisoblash usullariga asosiy (turli ko'rsatkichlardan tashqari) morfologiyasi murakkab bo'lgan ma'danli tanalarni va shu tanalar hajmining hisobini osonlashtirish maqsadida hajmiga yaqin, ammo shakllari oddiylashtirilgan geometrik figuralarga aylantirish harakatlari kiradi.

Zaxiralarni hisoblashda eng murakkab ishlardan: ularni chegaralash (kontur o'tkazish) turli sabablar bo'yicha bloklarga ajratish, hisoblash va o'rta arifmetik raqamlarni aniqlash va ularning foydali konlarini ma'lum hajmiga tegishligini e'tiborga olish hisoblanadi.

Zaxiralar bo'yicha davlat komissiyasi klassifikatsiyasi talabi – zaxira faqat belgilangan raqamga asoslanib chegaralash doirasida hisoblanishi mumkin.

Chegara o'tkazishning (konturlashning) umumiy maqsadi - zaxiralarni qimmatligiga qarab (balansli, balansdan tashqari) hamda bo'sh, ma'dan o'zlashtiruvchi jinlardan ajratish, umumiy balansli zaxiralarning chegaralanish doirasi tarkibida tuzilishi sifati, morfologiya bo'yicha yoki razvedka ishlari o'tkazish darajasiga asoslanib, geologiya va texnologiya jihatidan o'zlashtirishga (qazib olishga) qulay bo'lishi maqsadida bir-biriga juda yaqin uchastka, bloklar ajratiladi.

Zaxiralarni chegaralash qabul qilingan tartibda, avvalambor ma'danning razvedka lahimlari kesib o'tish joylardan keyin umumlashtirib, qirqimlar yoki

razvedka gorizonti bo'yicha inter va ekstrapolyatsiya chegaralash usuli orqali va nihoyat, foydali qazilmaning butun hajmida o'tkaziladi. Chegaralash jarayonida (qirqim yoki gorizont doirasida) interpolyatsiya o'tkazishda birlamchi ma'dan qismlarining bir uyum yoki tanaga tegishligini aniq bilish kerak. Aks holda chegaralash doirasiga sifati nuqtai nazardan, yaqin qo'shni ma'danli gorizontlar blokka birlashtiriladi, uning uchun ma'dan bilan bog'liq bo'lgan strukturalar to'g'ri qiyofaga keltirilishi va avvalgi olingan geologik ma'lumotlar umumli umumlashtirilishi zarur.

Belgilangan miqdor bo'yicha chegaralash, geologik xossalarga asoslanib ma'danni blok va uchastkalariga ajratishdan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi va umumli, muhimligi-ma'danning qaysi hajmiga tegishligini aniqlashdan kelib chiqadi va shunga muvofiq uyumlar chegarasi, ular tarkibidagi foydali komponentlar o'rta miqdori va ma'dan vujudga kelish koeffitsiyentlari o'zgarishi aniq. Chegaralash amaliyotida "bort" miqdori ma'lum usuli bilan olingan namuna hajmiga tegishli hisoblanadi, umumiy ajratilgan sanoat chegaralanishi doirasi tarkibida ma'dan zaxiralarini bloklarga bo'lib chiqish foydali qazilmalarni tabiiy va texnologik turlari zaxirasini ajratib baholash maqsadida o'tkaziladi.

Bosqichma-bosqich razvedka ishlari murakkablashganda (razvedka to'ri zichlashganda), foydali qazilmalarning zaxirasini hisoblash parametrlari kamayib boradi.

9.2. GEOLOGIK-QIDIRUV PARAMETRLARINING O'RTACHA MIQDORINI HISOBLASH VA ULAR USLUBIYATINI QO'LLASH

Foydali qazilma zaxiralarini hisoblash uchun quyi parametrlar (ko'rsatkichlar): ma'danli tanalarni (blokni)ng hajmi, uning hajmiy og'irligi, foydali komponentlarining tana yoki blokdagi o'rtacha miqdori va turli koeffitsiyentlar kerak bo'ladi.

Hajmi (V) ni hisoblash zaxiralarni hisoblash usuli bilan bog'liq bo'lgan qirqimlar usulida: o'rta arifmetik maydon ikki qirqim orasidagi masofaga ko'paytiriladi (1); bloklar usulida: blok tubi maydoni ma'danli tanalarning o'rtacha qalinligiga ko'paytiriladi (2);

Agar ikkinchi variant bo'yicha to'g'ri (haqiqiy) qalinlik burg'ilash holatida kesib o'tilgan qalinligidan geometrik (sin, cos, tan, cot) formula orqali quduqni azimutal hamda tik qiyshayishni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Hajmiy og'irlikning o'rtacha miqdori 100 dan ziyod laboratoriya natijalarining o'rtacha arifmetik usuli orqali aniqlanadi va hajm vaznini hisoblashda namlik, darzlik va hokazolarni nazarda tutish zarur.

Foydali va zararli qo‘shimcha foydali komponentlar namuna tahlili asosida yoki yadroviy-geofizik usullar yordamida aniqlanadi.

Geologiya-qidiruv jarayoni amaliyotida blokda mavjud bo‘lgan foydali komponentlarning o‘rtacha miqdori statistik aniqlangan tanalar qalinligiga asoslanib o‘rtacha tartib usuli bilan hisoblanadi.

Bu usul o‘rtacha arifmetik yo‘l yordamida miqdorni hisoblashda aniqligi sababli keng qo‘llanadi, chunki u foydali qazilmalar konlarida doimo mavjud bo‘lgan o‘zgaruvchanlikning tasodifiy salbiy rolini kamaytiradi.

9.2.1. Ma‘danni qo‘shimcha komponentlar zaxirasini hisoblash xususiyati

Qo‘shimcha elementlarning zaxirasini hisoblash razvedka qidiruv lahimlarining ma‘dan tanasini kesib o‘tish joylarini namunalash va hujjatlar asosida o‘tkaziladi. Ya‘ni, laboratoriyaga topshirilgan guruhlashtirilgan namunalar tahlili, ma‘dan bo‘yicha maxsus texnologik va mineral-geokimyoviy tadqiqot, jumladan ma‘danni boyitish hamda qayta ishlashga tegishli, monomineral (yakka) namunalar tahlili ham ko‘zda tutiladi.

Bir tomondan, namunalarni guruhlariga birlashtirish usuli qo‘shimcha komponentlar sifatini o‘rganish maqsadida, laboratoriyaga (tajriba uchun) jo‘natiladigan namunalar sonini ancha kamaytirishi bilan, ikkinchi tomondan, hisoblash bloklarda qo‘shimcha elementlarning joylashuvi va tarqalish qonuniyatini aniqlash ishonchligi ancha pasayadi. Shu sababli, ular zaxirasini baholash tartibi asosiy elementlarga nisbatan pasayadi va “C” dan yuqori bo‘lmaydi.

Alohida mineral tashkil qilgan qo‘shimcha elementlarning zaxirasini hisoblashga tegishli konditsiyalari, ma‘danni texnologik sinovdan o‘tkazish natijasida, ular tabiiy hamda texnologik turlarni nazarda tutgan holda hisoblanadi.

Asosiy foydali qazilmani sanoat doirasiga kiritilgan bosh konsentratida mavjud bo‘lganligi iqtisodiy tomondan unumli bajarilish sharti bilan qo‘shimcha komponentning belgilangan miqdori muhim konditsion ko‘rsatkich bo‘ladi.

Qo‘shimcha foydali elementlar qatorida foydali minerallar va tarkibida mavjud bo‘lgan tarqoq elementlar aniqlanadi. Shu tarqoq elementlarni hisobga olish zaruriyatini tog‘-kon korxonasi sharoitida qayta ishlash mahsulotdagi ularning me‘yorli miqdori orqali kerakli qo‘shimcha mablag‘ ketishini ko‘zlab baholanadi.

Foydali qazilmalarning zaxirasini hisoblash ishonchliligi ularni o‘rganish darajasi bilan bog‘liq bo‘ladi, ya‘ni bajarilgan geologiya-qidiruv ishlarining sifati, to‘laligi va turli foydali qazilmalar tuzilishiga doir masalalarni oydinlashtirishdan

iborat.

Klassifikatsiyaga ko'ra foydali qazilmalar resurs va zaxira baholash toifalarini o'rganish darajasiga asos bo'lgan sifat ko'rsatkichlar bilan to'g'ri va unumli foydalanish natijasidir.

Foydali qazilma konlarining zaxirasini baholash usuli ishonchligini etalon konda o'tkazilgan geologiya-qidiruv va o'zlashtirish (qazib olish) tajribasi natijalari analogiyasi (o'xshash) prinsipida aniqlash mumkin.

Ammo, o'zlashtirishda faqat qazib olinadigan foydali mahsulotlar zaxirasi tasdiqlanadi, ya'ni hisoblangan va DZK tasdiqlagan (geologik zaxira hisobiga nisbatan), ularning ma'lum foiz yer ostida har xil sabablarga ko'ra (ma'dan ustuni 15 % gacha) qolib ketishi mumkin (foydali qazilmani yo'qotish).

Mineral xomashyo sifati nuqtai nazaridan qaralganda, uning qazib olingan qismining sifati, yer ostidagi foydali qazilma'dan faqat miqdori jihatidan raqamiga farq qilishi mumkin, ya'ni susayish sababi vujudga keladi.

Shuning uchun, butun qazib olish jarayoni davrida foydali qazilmani yo'qotish va susayish darajasini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilishi shart.

Foydali qazilmalar konlarini o'rganishga bo'lgan talab va razvedka ishlariga ketadigan mablag'ning yuqori me'yori, ular geologik tuzilishining murakkabligi uchun emas, aksincha, zaxiralar masshtabi hamda ma'danning sifati bilan belgilanishi to'g'ri bo'ladi.

Zaxiralarni ishonchliligi (razvedka olib borish jarayoni natijasida olingan ma'lumotlar haqiqatga yaqinligi) darajasini baholashning asosi sifatida konchilik, boyitish ishlarida iqtisodiy samaradorligiga o'z ta'sirini o'tkazadigan va konchilik korxonasi ishlash unumligi beradigan daromadini hamda foydali qazilma konlarini sanoat tomonidan o'zlashtirishda iqtisodiy tavakkalchilik mavjudligini aniqlaydigan ko'rsatkichlar sistemasini qabul qilish kerak. Bu ko'rsatkichlar quyidagicha bo'ladi:

Qazib olingan mineral xomashyo tarkibidagi foydali komponentlarning o'rtacha miqdorini, ma'danning joylashuvi holatini, uning shaklini, tuzilishini, hamda foydali qazilmalar uyumlarining ko'rinishini aniqlashdan iborat.

Foydali komponentlarni o'rtacha miqdorini aniqlashdagi xatolar mavjudligi ma'danni qayta ishlashning texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlariga jumladan konchilik korxonasi mahsulotining tannarxiga salbiy ta'sir qiladi.

O'rtacha miqdorni aniqlashdagi nuqsonlar foydali komponentlarni blok (uchastok) bo'yicha o'rtacha arifmetik miqdorni baholashda yo'l qo'yilgan xatolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qazib olish ishlarini loyihalashtirishdagi susayish koeffitsiyentini aniqlash nuqsonidan kelib chiqadi.

Zaxiralarning holatini aniqlashdagi nuqsonlar "Foydali qazilmalar

uyumlarining joylashuvi xususiyati”, konni o‘zlashtirish texnologiyasining o‘zgarishiga olib keladi.

Qazib olingan mineral xomashyoning vaznidagi mavjud bo‘lgan foydali komponentlarning o‘rtacha miqdori tasdiqlanmagani foydali qazilmalar seleksiyasi (turlariga bo‘linishi) hajmlarining me‘yorlarini to‘g‘ri chiziq shakli olingan namunalar tahlili asosida noto‘g‘ri baholash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Xorij tadqiqotchilari ma‘lumoti bo‘yicha: mis, qo‘rg‘oshin, rux va oltin bo‘yicha razvedka olib boriladigan konlarda zaxiralarining o‘rtacha nuqsoni $\pm 10 - 25$ % gacha bo‘lishi kutiladi.

Turli geologiya – qidiruv bosqichlarida foydali qazilmalar konlarini iqtisodiy jihatdan baholash.

Konlarni iqtisodiy baholash ma‘danni butun o‘rganish jarayonining muhim yakuniy qismi hisoblanadi. Chunki faqat baholash talablariga amaliyotda rioya qilinganda, foydali qazilma konlari iqtisodiy nuqtai nazardan vujudga kelishi mumkin.

Respublika hududida geologiya - qidiruvga tegishli ishlar orqali o‘rganib chiqish darajasi ancha yuqori hisoblanadi. Shu harakat natijasida olingan foydali qazilmalar xususiyatlariga tegishli ma‘lumotlar, konlarni aniqlash, o‘zlashtirishga tayyorlashga yoki kichik, hozirgi davr talabiga javob bermaydigan (daromad keltirmaydigan) obyektlarda ishlarni vaqtinchalik to‘xtatishga (konservatsiya) yordam beradi va tegishli xulosa chiqarishga ko‘maklashadi.

Geologiya – qidiruv jarayoni natijasida mavjud bo‘lgan obektlarni bashoratlash va baholash hamda ularni iqtisodiy tomondan saralash tartibi faqat to‘g‘ri metodologik asosda – yer osti boyliklarini o‘rganish sistemasini qo‘llash jarayonida tadqiqot ishlarini oldinma-keyin (bosqichma-bosqich) o‘tkazish va olingan natijalarni unumli tahlil qilishdan iborat bo‘lishi kerak.

Umumiy hududdan konkret maydonga o‘tish, analogiya (o‘xshatish, yaqinlashtirish) va talabga ko‘ra, maydonning bir qismini detallashtirish, ya‘ni nisbatdan izlanish ishlarini katta masshtabda o‘tkazish prinsiplari unumli qo‘llanishi zarur.

Foydali qazilma konlarini geologik-iqtisodiy baholash samarasini oshirish o‘rganish obyektlarini aniqlash bilan bog‘liq, ya‘ni bosqichlar jadvalidan misol keltirsak: tasvirlash va izlash ishlarida – ma‘danli maydonlarni izlash va baholashda esa – foydali qazilma konlari potensial obyekt sifatida ko‘rsatilishi mumkin.

Nihoyat, razvedka bosqichida: foydali qazilma konlarining ma‘danli uchastkalari, qatlamlari, qazib olish davridagi razvedka ishlari – uyumlar, tanalarga birlashgan tayyor o‘zlashtirish bloklarga tegishli maqsadga muvofiq bo‘lgan

tadqiqot ishlari olib boriladi.

Izlash ishlarning (M 1:10000) maqsadi: potensial ma'danli maydonlarning samarali ekanligini taxminiy baholash va geokimyoviy, geologik tasvirlash natijalari asosida "P₂" toifali bashoratli resurslar hamda detallashtirilgan uchastkalarda esa - "P₁" bo'yicha aniqlanadi.

Ijobiy holatda, ma'danli maydon qismlarida foydali qazilma konlarini sanoat talablariga muvofiqligini baholash bosqichi bo'yicha (M 1:2000) ishlar davom etadi.

Razvedka bosqichiga ma'lumotlar tayyorlash, geologiya-qidiruv ishlarini baholash o'ziga xos va muhim ahamiyatga egadir. Umuman olganda, foydali qazilma konlarini bosqichma-bosqich o'rganish jarayoniga ajratilgan mablag'ning 50 % gachasi shu baholash qismiga tegishli bo'ladi, chunki aynan shu bosqichda tadqiqot ishlarini olib borish natijasida obyekt keyingi bosqichga o'tadi, ya'ni razvedkaga yoki hozircha iqtisod talablariga javob bermasligi sababli konservatsiya qilinadi.

Baholash bosqichida foydali qazilmalar resurslari "P₁" toifa bo'yicha burg'ilash quduqlari va lahimlariga asoslanib geofizik, geokimyoviy namunalash natijalarini hamda aniqlanib kuzatilgan ma'dan mezonlari va alomatlarini inobatga olib chegaralash o'tkaziladi.

Detallashtirish uchastkalarida esa "C₂" toifasiga o'tgunga qadar sanoat kon turlariga qarab zaxiralar baholanadi.

Bosqichning mufassal baholash qismi (1994 yilgacha – dastlabki razvedka bosqichi) bo'yicha ishlar o'tkazishning maqsadi: bunda foydali minerallashtirish mavjudligining umumiy masshtabi (tarqalish doirasi), mineral xomashyoning o'rtacha sifati va texnologik xususiyatini hamda foydali qazilma konlarini geologik-konchilik tomonidan o'zlashtirish (qazib olish) uchun holati aniqlanadi.

Zaxiralar "C₂ va C₁" toifalari bo'yicha hisoblanadi hamda shu konni sanoat tomonidan o'zlashtirish uchun iqtisodiy unumliligini asoslab beradigan texnik – iqtisodiy asoslash (TIA) tuziladi.

TIA ma'lumotida ko'rsatilgan va tavsiya etilgan uchastkalarda razvedka ishlari olib boriladi (kerakli mablag' ajratiladi).

O'zlashtirishga (qazib olishga) tayyorlangan va hisoblangan zaxiralar, tog' korxonasi kamida 8 – 10 yil ishlashini ta'minlash sharti bilan qabul qilinadi va "C₁" – toifalar bo'yicha, detallashtirish uchastkalarda esa - "B" toifa miqyosida baholanadi.

Shuningdek, foydali qazilma konlarining geologik-qidiruvning turli bosqichlarida iqtisodiy tomondan baholashning asosiy farqi, baholashni turli ko'rsatkichlarini aniqlashdan va bashoratli resurslardan bosqichma-bosqich,

dastlabki baholangan (“C₂” toifa) dan mufassal razvedkaviy (“B+C₁” toifalar) zaxiralarni iqtisodiy talablarga rioya qiladigan daraja sifatigacha olib kelishdan iborat bo‘ladi.

Foydali qazilma konlarining razvedka qilish bosqichida iqtisodiy baholashni (texnika-iqtisodiy asoslash – TIA) dastlabki loyihaviy baholash deb qabul qilish mumkin.

GLOSSARIY

Aksessor minerallar (aksessoriyalar) - t.j. tarkibida juda kam miqdoriy ko'rsatkichlarga, lekin muhim ahamiyatga egalar. Ular t.j. hosil bo'lishi va o'zgarishining turli bosqichlarida allotigen va autigen bo'lishlari mumkin. Birinchisining assotsiatsiyasidan noaniq cho'kindi jinslar qatlamlarini korreksiyalashda va oqib kelgan jinslarning manbaini aniqlashda, autigen a.m. yordamida esa, cho'kindilar hosil bo'lishining fatsial sharoitini tasvirlashda foydalanish mumkin.

Amalgamatsiya - oltinni maydalangan t.j. yoki qumdan simobda eritish yo'li bilan ajratib olish.

Anomaliya (geofizik, geokimyoviy va b.) – ma'lum bir normal (fon, tan olingan) miqdoriy yoki sifat ko'rsatkichlaridan keskin farqlanuvchi og'ishishlarga ega bo'lgan hududiy ajratilgan maydon.

Anshlif - ma'danli minerallar joylashishi va tarkibini binokulyar ostida yoki aks etgan nurda ko'rib o'rganish uchun sayqallab tayyorlangan t.j. namunasi.

Atmokimyoviy (gazli) izlash usuli - tarqoq va ayrim nodir elementlarni gaz fazasida o'rganishga asoslangan.

Gidrokimyoviy izlash usuli - turli f.q.larni izlash maqsadida tabiiy suvlarning (asosan yer osti) kimyoviy tarkibini o'rganish.

Aerofotoxaritalash - samolyot yoki vertolyotga o'rnatilgan oddiy fotoapparat, maxsus yengil kamera yoki avtomatik tarzda harakatga keladigan apparatlar yordamida Yer yuzasini (quruqlik va dengiz) suratga olish.

Balansdagi zaxiralar chegarasi - ma'dan t.j.ning chegarasi bo'lib, uning doirasidagi ma'danlar xomashyo sifati, qalinligi, ma'danlilik koeffitsiyenti, yotish chuqurligi va boshqa geologik iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha sanoat talablariga (konditsiyaga) mos keladi.

Balansdan tashqari zaxiralar - foydalanish iqtisodiy nuqtai nazardan yoki texnik va texnologik jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan, biroq ularni keyinchalik balansga o'tkazish imkoniyati bor bo'lgan zaxiralar. Agar qattiq f.q. keyinroq qazib olish uchun yer ostida yoki omborlarda saqlash mumkinligi isbotlangan bo'lsa, ular hisobga olinadilar.

Baholash ishlari - asosiy vazifalari f.q.ni C_2 va C_1 toifadagi zaxiralarini hamda P_1 toifasidagi bashorat resurslarini hisoblash vositasida sanoat uchun ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Baholash konditsiyalarining parametrlari - ular doirasiga quyidagilar kiradi: f.q.ning bort miqdori, minimal sanoat miqdori, ma'dansiz oraliq qatlamlarning qalinligi, minimal ruxsat etilgan qalinliklar.

Bashoratlash xaritasi - topilishi mumkin bo'lgan, lekin hali aniqlanmagan istiqbolli ma'danli maydon va konlarni bashoratlash natijalarini ko'rsatuvchi va keyinroq bo'ladigan geologiya qidirish ishlarining yo'nalishlarini ko'rsatadigan xarita. Ularga faqat bashorat uchun kerak bo'ladigan elementlar tushiriladi. Birinchi navbatda - barcha kon namoyonlar; ma'dan joylashishi uchun mos bo'lgan yoki tarkibida ma'dan bo'lgan cho'kindi va vulkanogen formatsiyalar, ma'danlashuv bilan genetik yoki paragenetik bog'liq bo'lgan intruziv to'plamlar, ma'dan nazorat qiluvchi tuzilmalar, metallogenik zonalar, f.q. tarqalish oreollari, ma'dan atrofi o'zgarish zonolari, geokimyoviy, geofizik ma'lumotlar va b. tushiriladi. Ma'dan maydonlari istiqbollilik darajasiga muvofiq bir necha toifalarga bo'linadi va keyinroq quyiladigan ishlar uchun maydon ajratiladi.

Biogeokimyoviy izlash usullari - foydali qazilma konlarini aniqlash maqsadida biosferaning turli mahsulotlardagi kimyoviy elementlarning anomal konsentratsiyalarini yoki organizmlarning muhitdagi kimyoviy elementlarning ta'siri reaksiyasini o'rganishga asoslangan.

Geokimyoviy izlash usullari - t.j., suv, atmosfera, o'simlik va hayvonot organizmlarida kimyoviy elementlar yoki ularning birikmalarining taqsimlanishi hamda tarqalishidagi qonuniyatlarni qo'llagan holda f.q.larni izlash usuli. Ularning ilmiy asosi - yer qobig'ida kimyoviy elementlarning harakatchanligi haqidagi ta'limotdir.

Geologik blok - qidirib chamalashda ozmi-ko'pmi bir xil geologik shart-sharoitlari, foydali qazilma qismlarining qalinligi, tuzilishi, tarkibi, sifati va xususiyatlari, tor kon texnik shart-sharoitlari va shu kabilar bilan tavsiflanadigan ma'danli maydon yoki kon uchastkasi.

Geologik bloklar usuli - yetakchi geologik-sanoat parametrlari (qalinlik, miqdor, yotish sharoiti, chuqurligi, texnologik xususiyatlari va b.) yaqinligi asosida hisoblash bloklarini ajratish va chegaralab, f.q. zaxiralarini hisoblash.

Geologiya qidiruv ishlarini loyihalash - Geologik (texnik) topshiriqda qo'yilgan masalalarni hal qilish maqsadida tuziladigan geologiya qidiruv ishlari loyihasi, loyihada joylangan uslublar majmuasi, bajarish texnikasi va texnologiyasi asoslanadi. Geologiya qidiruv ishlarining loyihasi va smetasini tuzish bo'yicha tasdiqlangan yo'riqnoma asosida amalga oshiriladi.

Geologik hujjatlash - xaritalarda, planlarda, profil va kesmalarda maxsus geologik tadqiqotlarni o'tkazishda, tasvirlashda, izlash va qidirish ishlarida, shuningdek, konlardan foydalanishda, har tomonlama hujjatlashtirish (bayon qilish, izoh berish) va grafik tasvirlash. U o'z ichiga geografik bog'lanishni, ochilmalar, kern, kolleksiyalar, har xil namunalar va f.q.lardan olingan namunalarning joylarini izohlashni oladi. Tog' inshootlarida hamda burg'i

quduqlarida qilingan tasvirlashlar va hujjatlashlarni standartlashtirishga yordam beradi. Geologik partiyalarda o‘tkazilayotgan ish turlariga qarab shlixli, borozdali, spektral namunalash jurnallari, shurflar va kanavalarni hujjatlashtirish jurnallarini tutish ko‘zda tutiladi. Geologik hujjatlashga t.j. namunalari, shlixlar, kern, shlam, har xil namunalari, dala daftarlari, kundaliklar, ochilmalarni va tog‘ inshootlarining izohlari, namunalash jurnallari, jadvallar, diagrammalar, xaritalar, planlar, tasvirlar, fotomateriallar va b. kiradi.

Geologik xaritalash - geologik tekshirish usullaridan biri. Muayyan joylarda Yer yuzasining relyefi, geologik tuzilishi, t.j.larining yoshi, dastlabki ichki tuzilishi, keyingi jarayonlardagi o‘zgarishlari, magmatik t.j.larining paydo bo‘lish xususiyatlari, har xil f.q.ning joylashish qonuniyatlarini o‘rganish va kelajak istiqbollarini aniqlashda foydalaniladi. Tabiiy va sun‘iy yo‘l bilan ochilgan t.j.larini navbati bilan o‘rganib, organik qoldiqlarini topish, mineral tarkibi va paydo bo‘lishini aniqlash, ulardan olingan namunalarni amaliyotda turli usullar yordamida o‘rganish natijasida olingan ma‘lumotlar asosida geologiya xaritasi tuziladi.

Geologik xaritalash usuli bilan izlash - konlarni izlash majmuidagi asosiy usul bo‘lib f.q. konlarni joylashish qonuniyatlarini aniqlash va izlash omillarini topish. Geologik tasvirlash ishlarini, bajarilgan bashoratli chizmalarni tekshirish. Geologik tuzilmalar, qatlamlar, shlixli xaritalarni kesmalari bilan tuzishga yo‘naltirilgan. Shu asosida rayonda topilgan f.q. konlari va namoyonlarining istiqboli baholanadi.

Geofizik anomaliya - geofizik maydonni odatdagi ko‘rsatkichlaridan boshqacha keskin farq qiluvchi ko‘rsatkichlarga ega hududi.

Geokimyoviy mezonlar - kimyoviy elementlarning Yer qobig‘ining rivojlanish jarayonida turli qismlarida yuzaga keluvchi sharoitlariga nisbatan to‘planish, tarqalish yoki neytral xususiyatlarini namoyon etishini taqozolovchi geokimyoviy ko‘rsatkichlar majmuasi.

Geokimyoviy izlash - kimyoviy elementlarning litosfera, gidrosfera va biosferadagi taqsimlanish qonuniyatlarini konlarni qidirish maqsadlarida tadqiqot qilishga asoslangan usul. Shuningdek ularning doirasiga atmogeokimyoviy va radiometrik usullar ham kiradi. Ma‘danli konlarni izlashda ayniqsa litokimyoviy usullar juda katta ahamiyatga ega. Geologiya-qidiruv ishlarining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi.

Gidrotermal eritmalar (gidrotermallar) - magma‘dan ajralib chiqadigan suv bug‘lari va issiq suvli eritmalar. Yer yuzasidagi suvlarning chuqurlikka tushib isishi, kuchli minerallanishi va gidrotermal eritmaga o‘xshab kon hosil qilishi ehtimoli ham yo‘q emas.

Daryo chaqiq tog' jinslari yordamida izlash usuli - allyuvial, delyuvial va elyuvial yirik bo'lakli oreollar va mexanik tarqalish oqimlarini o'rganishga asoslangan.

Jo'yakli namuna olish - qattiq f.q. konlarini namunalash usullaridan biri bo'lib, bunda f.q. jismiga tik ravishda, odatda to'g'ri burchakli shaklda bo'lgan jo'yaklar o'tkaziladi. Jo'yaklarning odatdagi kengligi 5-15 sm, chuqurligi 3-6 sm.ni tashkil etadi. F.q. taqsimlanishi bir tekis bo'lmasa, u kengroq va chuqurroq olinadi.

Zaxiralar aniqligi (ishonchliligi) - yer ostidagi (kondagi) metallar va ma'danlar zaxiralarining miqdoriy tavsiflarining haqiqiy qiymatiga muvofiqlik darajasi.

Izlash belgilari - ma'lum bir maydon yoki uchastka doirasida f.q.ning mavjudligini bevosita yoki bilvosita ko'rsatuvchi geofizik, minerologik, geokimyoviy omillar. Geologik izlash belgilarini umumiy va muayyan turlarga bo'lish mumkin. Umumiysi stratigrafik, litologik, tuzilmaviy, magmatogen (shu bilan birga ma'danlashuv sababli t. j. o'zgarishining turli namoyonlari ham), gidrogeologik va geomorfologiklarga bo'linadi. Muayyan izlash belgilari ma'lum bir rayon uchun xosdir.

Izlash shartlari, izlash mezonlari - Yer qobig'ida f.q.ning joylanishi sharoitlarini aniqlovchi geologik, mineralogik, geokimyoviy, geofizik omillar. Izlash shartlari ma'lum bir maydonlarda f.q.larni topish mezonini baholash imkonini beradi; f.q. izlash mezonlari geologik tuzilmalar, relyef, iqlim, geologik hosilalarning yoshi, t.j. tarkibi, turli turdagi anomal maydonlar bilan bog'liqligini aks ettiradi.

Izlash chizig'i - bu chiziq bo'ylab t.j. sun'iy ochiladi, geokimyoviy namunalar olinadi yoki geofizik ishlar bo'lganda t.j.larining fizik xossalari o'lchanadi. Ular odatda taxmin qilinayotgan f.q. jismi yo'nalishiga tik ravishda o'tkaziladi.

Ikkilamchi oreol - ekzogen jarayonlarning f.q.li konlariga ta'sirida hosil bo'lgan ayrim kimyoviy elementlar anomal konsentratsiyalari zonasi.

Kanavalar - kesimi trapetsiyasimon, uzunligi katta (yuzlab m.), chuqur bo'lmagan (3 m.gacha) va eni 0,8 m.ni tashkil qilgan ariqsimon ochiq tog' inshooti. F.q. ochish yoki ustki bo'shoq t.j.larning kesimini o'rganish uchun o'tiladi.

Kernsiz parmalash - kern olmasdan amalga oshiriladigan parmalash. Bunday parmalash geologik tuzilishi ma'lum bo'lgan joylarda hamda geofizika va boshqa usullar yordamida uni aniqlash mumkin bo'lgan hollarda amalga oshiriladi.

Kimyoviy namunalash - f.q. kimyoviy tarkibini zaxira hisoblash, ma'dan jismlari maydon va qalinligini topish va boshqa maqsadlarda aniqlash.

Kon - Yer qobig'ining ma'lum maydonida turli geologik jarayonlar natijasida vujudga kelgan f.q. to'plangan joy. Konlardagi ma'danlarning miqdori va sifati hozirgi zamon iqtisodiyoti va texnika taraqqiyoti nuqtai nazaridan sanoat talabiga javob bersa, bunday konlar sanoat ahamiyatidagi konlar deb yuritiladi. Ular zaxirasi, sifati va xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga qarab kichik, o'rta hamda katta konlarga bo'linadi.

Konvergeniya - turli kelib chiqish manbalari va yo'llar bilan o'xshash turdagi mahsulotlarning hosil bo'lishi.

Konditsiyalar - sanoatning mineral xomashyo sifati va konni tog'-geologik ko'rsatkichlariga bo'lgan talablarining yig'indisi. Bu talablar f.q. zaxiralarini hisoblashda va chegaralashda qo'llaniladi. Ularga rioya qilinganda zaxiralar balansdagi va balansdan tashqari turlarga bo'linadi. Konditsiyalarning asosiy ko'rsatkichlari: 1) Hisoblash bloklari ma'danlaridagi foydali komponentning (metallning) minimal sanoat miqdori. 2) Konning chegaralari aniqlanadigan chekka namunalardagi foydali komponentning bort miqdori. 3) Ma'dan jismining minimal qalinligi va maksimal chuqurligi. 4) Ma'danlilik koeffitsiyentining minimal ko'rsatkichi va ma'danni ochish koeffitsiyentining maksimal ko'rsatkichi. 5) Zararli aralashmalarning maksimal miqdori. 6). F.q. minimal zaxirasi va b. K.lar vaqtinchalik bo'ladi. Ularning darajasi xalq xo'jaligining talabiga va mineral xomashyo turining zaxiralari balansiga bog'liq bo'ladi va mineral xomashyo bazasining ahvoli hamda talab o'zgarishi bilan u o'zgaradi. K.lar geologik tashkilotlar tomonidan, loyihalash institutlari bilan birgalikda konning dastlabki va mufassal chamalash materiallari asosida bajariladi.

Konditsiyalarni texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash - qidiruv ishlari bosqichi tugallangandan so'ng zaxiralarni hisoblab ularni DZKga topshirish uchun bajariladi. U f.q.ning moddiy tarkibini, texnologik xossalarini, gidrogeologik, muhandis-geologik, tog'-geologik kabi tabiiy sharoitlarini qidirish talablariga muvofiq har tomonlama o'rganishni nazarda tutadi.

Konni dastlabki baholash - baholash bosqichining boshlang'ich qismi bo'lib, topilgan konning sanoat uchun umumiy ahamiyati va f.q.ni geologik joylashish qonuniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, C₂ toifadagi ma'dan zaxiralari va P₁ toifadagi resurslar hisoblanadi.

Bashoratlash - f.q.larning yangi maydonlarini geologik dalillar asosida, qanday va qayerga joylashganligini, resurslar miqdorini oldindan aytib berish, tavsiya etish, fikr bildirish.

Konni mufassal baholash - f.q. konini sanoat uchun baholash, zaxiralarini C₂ toifasi bo'yicha, birinchi navbatda ishga tushiriladigan uchastkalarda C₁ toifasi bo'yicha baholab, iqtisodiy asoslash uchun o'tkaziladi.

Konni qo‘shimcha qidirish - konning chetlari va chuqur gorizontlarini yangi aniqlangan qonuniyatlar va geologik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida to‘liqroq o‘rganish.

Kon (ma‘dan jismi) **modeli** - asosan 1:100-1:200 miqyoslarda tuziluvchi yer qobig‘ining kon yoki ma‘dan tanasini qamrab olgan bo‘lagining hajmiy va moddiy tasviri. Obyekt geologik tuzilishi, ma‘danlashuvning makondagi joylashuvi, tabiiy turlari va b. xususida ma‘lumot olish imkonini beradi.

Konlarning geologik-sanoatbop parametrlari - f.q. yotqiziqlarining va xomashyo tabiiy xossalarning miqdoriy geologik tavsifi bo‘lib, bu konni o‘zlashtirish sharoitlariga va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga, xomashyoni boyitish va qayta ishlashga ta'sir qiladi. Bular ichidagi sistemalari, yotqiziq qalinligi, moddiy tarkibi, sifati va texnologik xossalari, yotish sharoitlari, kondan foydalanishning texnologik sharoitlaridir.

Ma‘dan atrofi o‘zgarishlari - ma‘dan hosil bo‘lishi jarayonlari bilan bog‘liq qamrovchi t.j.laridagi o‘zgarishlar. Ularga kvarslanish, seritsitlanish va b. kiradi. Ma‘danli konlarni izlash belgilari bo‘lib xizmat qiladi.

Ma‘danli maydonning bashoratlash xaritasi - ma‘danlashuvning turli geologik omillar bilan bog‘liqligi va bashoratli xulosalarni ko‘rsatuvchi 1:10000 (ba‘zan 1:25000) va undan katta miqyosli ma‘danli maydonning tuzilmalar xaritasi. Shu bilan birga ma‘danli maydon doirasida xususan chuqurlikda (yoki kon va ma‘danli t.j.larni aniqlash uchun) bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma‘danlashuvni bashoratlash. Alohida kon va ma‘dan namoyonlarini baholash va istiqbolli ma‘danli maydonni umumiy miqdoriy baholash uchun xizmat qiladi. U tog‘-kon inshootlariga va burg‘i quduqlarni joylashtirish bilan birga keyingi izlash-qidirish ishlarini yo‘nalishlarini asoslab berishi kerak.

Ma‘danlilik ko‘effitsiyenti - murakkab tuzilishli konlarning zaxiralarini hisoblashda qo‘llaniladigan tuzatuvchi ko‘effitsiyent. U maydon qalinligini yoki qalinligi umumiy bo‘lgan ma‘danli uchastkalar hajmini maydonga yoki ma‘danli qatlamning hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. U uch xil - chiziqli, maydonli yoki hajmli bo‘ladi. Ma‘danlilik ko‘effitsiyenti zaxiralar hisoblanayotganda, agar ma‘dansiz uchastkalarining chegarasini aniqlab bo‘lmagan taqdirda hisoblanadi.

Ma‘dan tanasini chegaralash usullari - plan va kesmalarda ma‘dan jismlarini chegaralashning (nulevoy, ishchi va b.) turli usullari. Asosan tayanch nuqtalari bo‘yicha nuqtalar oralig‘ini interpolyatsiyalash, yo‘q bo‘lib ketish burchagining o‘rtachasi bo‘yicha va ma‘lum nuqtalar bo‘yicha elektropolyatsiyalash ajratiladi. Birinchi usul eng ishonchli hisoblanadi.

Ma‘danli nuqtalar - sanoat ahamiyatiga ega bo‘lmagan (o‘lchamlari yoki metallar miqdori bo‘yicha) ma‘dan namoyonlari.

Ma'dan namoyonlari - ma'dan minerallarining tabiiy holdagi yig'indisi. Ular sifati bo'yicha konditsiya talablariga deyarli javob beradi, lekin miqdori jihatidan shu davr iqtisodiy sharoitida qazib chiqarish obyekti bo'la olmaydi. Zaxiralari qidirish natijasida ko'payganda yoki konditsiya talablari kamaytirilganda kon toifasiga o'tishi mumkin.

Ma'dansiz tog' jinslari - tarkibida ma'danli minerallar bo'lmagan t.j.lari (bo'sh jinslar sinonimi).

Ma'danli konlarning genezisi - ma'dan konlarining paydo bo'lishi. U borliq xususidagi juda muhim ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirishga xizmat qilish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish maqsadlarida baholashda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan alohida konni genetik tasniflashning qaysi guruhi va turiga mansubligini aniqlash imkonini beradi.

Ma'danlashuv to'planishining geologik shart-sharoitlari - ma'danni nazorat qiluvchi omillar atamasining sinonimi bo'lib, ularning orasida litologik, magmatik, tuzilmaviy-magmatik, litologik-tuzilmaviy, litologik-stratigrafik omillar katta ahamiyatga ega. Tektonik-magmatik, tuzilmaviy-fatsial, erozion kesim va chuqurliklar omillari ko'proq regional ahamiyatga ega.

Ma'dan konlarini qidirishning gidrokimyoviy usuli - tabiiy suvlar kimyoviy tarkibidan ma'danli konlarni qidirish maqsadida foydalanish.

Metallogenik tahlil - metallogenik tadqiqotlar usuli bo'lib, foydali qazilma konlarini joylashish qonuniyatlarini aniqlash va metallogenik hamda bashoratlash xaritalarini tuzishda qo'llaniladi. Batafsilligiga ko'ra regional metallogenik va ma'dan nazorat qiluvchi omillarni metallogenik tahlillariga bo'linadi.

Mexanik tarqalish oreollari - bo'shoq t.j.laridagi ma'danli minerallarning ko'paygan miqdorini tarqalish oblasti bo'lib, f.q. yotqiziqklarining yuqori qismlari yoki ularning birlamchi oreollarini tarqalish doirasidagi fizik buzilishlar jarayonida paydo bo'ladi.

Mineralogik namunalash - f.q.larning mineral tarkibini sifat va miqdor jihatdan tavsiflash, minerallarini tuzilmaviy va tekstura xususiyatlari (donachalarini o'lchamlari, shakli va nisbatlari), fizik xossalari (zichligi, qattiqligi, mo'rtligi, ulanishi, radioaktivligi, magnitlanganligi, elektr o'tkazuvchanligi, ho'llanishi, kislotada erishi va h.k.), kimyoviy tarkibi, turli tabiiy va sanoat turlaridagi ma'danlarda taqsimlanishini aniqlash bo'yicha olib boriladigan ishlarning barchasi.

